

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

Saidova Muhabbatxon

O'zbek shevalaridagi qarindoshlik terminlarining
leksik –semantik xususiyatlari

Monografiya

Toshkent-2021

UO'K:821.512.133-9

KBK:84 (5O`zb) 7

S-17

Monografiyada o'zbek tili va uning shevalarida mavjud bo'lgan nikohgacha va nikohdan keyin xosil bo'lgan qarindoshlik terminlarining qiyosiy-tarixiy genezisi, ularning yasalish dinamikasi, shakllanish tarixi, yaratilish davridan boshlab shu kungacha terminlarning tizimida ruy bergan fonetik o'zgarishlar, ma'no anglatishdagi umumiy va xususiy tomonlari sheva materiallari asosida tahlil qilingan va atroflicha yoritilgan.

Monografiya tilshunos olimlar, yosh tadqiqotchilar, filologiya fakulteti magistratura yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:

Uluqov Nosirjon,

Filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Filologiya fanlari doktori, professor

Usmonova Huriniso, Filologiya fanlari doktori, professor

Nabieva Diloru, Filologiya fanlari doktori, professor

Shaxobiddinova Shoxida, Filologiya fanlari doktori, professor

Monografiya Namangan davlat universiteti ilmiy-texnik Kengashning 2021 yil 10-aprel kuni bo'lib o'tgan 4-sonli yig'ilishi bayonnomasi bilan nashrga tavsiya etilgan

ISBN 978-9943-6981-8-5

© Saidova Muhabbat © «ARJUMAND MEDIYA»
nashriyoti 2021 yil

Ilmiy-ommabob nashr

Saidova Muhabbatxon

O'zbek shevalaridagi qarindoshlik terminlarining
leksik –semantik xususiyatlari

Monografiya

Mas'ul muharrir: N. Uluqov
Texnik muharrir: S. Axmadjanova
Musahhiha: M. Ne'matjanova

“Arjumand media” MCHJ nashriyoti Namangan shahri, A. Xo'jayev ko'chasi, 43
Nashriyot litsenziya raqami AI №007 20.07.2018 yilda berilgan.

Terishga berildi: 15.03.2021 y. Bosishga ruxsat etildi 24.04 -2021.
Qog'oz bichimi 60*841-6. Ofset qog'ozi garniturası. Hisob nashriyoti
tabog'i 8,0. Shartli bosma tabog'i 8,0 Adadi 100
Bahosi kelishilgan narhda

“Arjumand media” Mas'ulyati cheklangan jamiyatining matbaa
bo'limida chop 100 nusxada chop etildi.

Manzil: Namangan, Navoiy ko'chasi,69.
Tel.:(99891)275-65-06

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

Saidova Muhabbatxon

**O'ZBEK SHEVALARIDAGI
QARINDOSHLIK TERMINLARINING
LEKSIK –SEMANTIK XUSUSIYATLARI**

Monografiya

Toshkent-2021

O'ZBEK SHEVALARIDAGI QARINDOSHLIK TERMINLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Mavzuning dolzarbligi. O'zbek tilining qorluq lahjasiga mansub shevalarni tadqiq qilish, umuman uning konkret u yoki bu shevaga xos bo'lgan terminlarni oddiy tavsifiy planda emas, tarixiy-etimologik nuqtai nazardan turkiy va turkiy bo'lmagan qator til faktlari bilan qiyosan tadqiq qilish qator tarixiy-lingvistik muammolarni ko'ndalang qo'yadi. Bu muammolarning muhim ahamiyatga ega bo'lganlaridan biri o'zbek shevalarining shakllanish tarixi va genetik jihatdan o'zbek xalqi tarkibiga kirgan boshqa urug'dosh etnik guruhlar bilan qarindoshlik terminlarining umumiy xususiyatlari bo'lsa, ikkinchidan genetik jihatdan bir bo'lgan umum o'zbek shevalari bilan bir tomondan va qorluq guruhiga mansub o'zbek shevalaridan farqlab, o'ziga xos fonetik va morfologik, leksik xususiyatlari bilan ajralib turishidadir.

Prof.E.D.Polivanov bir vaqtlar dunyodagi turkiy tillarning birontasi hali o'zbek tili singari shevalararo bu qadar keskin farqlanmaydi, demak turkiy tillarning birontasi ham bu qadar dialektal turlicha xususiyatga ega emas, deganda haqli edi. Shu nuqtai nazardan qaralsa o'zbek shevalarida mavjud bo'lgan qarindoshlik terminlarini fonetik, morfologik va leksik tizimiga ko'ra deyarli barcha o'zbek shevalaridan farqlanib turishi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Jumladan *aba*, *aya*, *singil*, *abacha*, *kinchabi*, *acha*, *ova*, *doda* // *dedo* kabi variantlarning boshqa o'zbek shevalarida shu ma'noda ishlatilmasligi bo'lsa, ikkinchidan umlautli shahar tip shevalarida nikohdan keyin hosil bo'lgan qarindoshlik terminlarining boshqa shevalardagidek *qaynag'a*, *qayinsingil*, *qayinbika* shaklida differentsiatsiya qilinmasligidadir.

Turkiy tillarda qarindoshlik terminlari va ularning tavsifiga bag'ishlangan bir qator ilmiy ishlar, monografiyalar va ayrim maqolalar e'lon qilingan. Lekin mazkur ilmiy ishlarda qarindoshlik terminlari yo'l-yo'lakay tahlil qilinib, etnografik nuqtai nazardan tadqiq etilgan. O'zbek tilidagi qarindoshlik

terminlarining leksik-semantik xususiyatlarini tavsif qilishga bag'ishlangan I.Ismoilovning yagona monografiyasida ham avvalgi ilmiy ishlardagidek qarindoshlik terminlarining tavsifi va ayrim leksik-semantik xususiyatlari kontekstda anglatgan ma'nolari tahlil qilingan holos. Shuning uchun ham o'zbek tili va uning shevalarida amal qilayotgan rang-barang va juda qadimiy tarixga ega bo'lgan, hali o'zining sof lingvistik tadqiqotiga ega bo'lmagan qarindoshlik terminologiyasining qiyosiy-tarixiy genezisini tadqiqot ob'ekti sifatida tanladik. Masalaning muhim tomoni shundaki hozirga qadar qarindoshlik terminologiyasi maxsus tadqiqot ob'ekti sifatida na shevalararo, na adabiy tildagi formalarning genezisi va anglatgan ma'nolari o'z ifodasini topmagan. Qarindoshlik terminlarining yaratilish davri juda qadim-ibtidoiy jamoa tuzumiga borib taqaladi va u o'sha davr mahsuli sifatida qarindoshlar orasidagi munosabatlarni ifodalab keladi. Lekin bizgacha yetib kelgan yozma manbalarda o'sha davrda ishlatilgan terminlar saqlanib qolinmagan. Maxsus qarindoshlik terminlari izohlangan lug'atlar yo'q. Shunday ekan ming yillar o'sha o'zi yaratib unga ma'lum munosabatlarni aniqlash ma'nosi yuklatilgan qarindoshlik terminlarini sheva materiallari asosida to'plash boshqa turkiy tillar materiallari bilan qiyosiy tahlil qilib ularni lingvistik nuqtai nazardan tavsiflash muhim vazifalardan biridir. Xalqimizning umr bo'yi yo'ldoshi bo'lgan bu bebaho boyligini lisoniy tadqiq qilish leksikologiya, terminologiya, til tarixining ko'pgina masalalarini hal qilish imkonini yaratadi.

Hozirgi kunda semantika fani bilan umumjahon tilshunoslari shug'ullanmoqdalar. Semantikasiz tilning tabiati va mohiyati, qonuniyatlari vazifasi va rivojlanishi, uning bog'lanishlari mukammal tasnif etilmaydi. Semantika semiotikaning ma'no o'rganuvchi bo'limi bo'lib, belgi va ularning talqini o'rtasidagi o'zaro munosabatlarini tekshiradi. Bu fan tilshunoslikning alohida bo'limi sifatida nemis va fransuz filologlari tomonidan XIX asrda vujudga keldi. Bundan nemis filologi Reyzig va fransuz tilshunosi Breallarning xizmati katta bo'ldi¹.

¹ L.A. Novikov, Semantika russkogo yazika. M, "Visshaya shkola" str-s

O'zbek tilida 70-yillarda boshlab semantika haqida ko'zga ko'rinarli ishlar qilindi. Tilni semantik nuqtai nazardan o'rganish dastlab til sistemasining lug'at sostavida boshlandi. Hozirgi kunda semantika xilma-xil til elementlariga tatbiq qilinmoqda. Lug'aviy birliklarning semantikasi, sintaktik birliklarning semantikasi o'rganilmoqda. Leksik ma'noga ega bo'lgan so'zlarning semantik strukturasi komponent tahlil asosida aniqroq ochilmoqda. Shu jumladan qarindosh-urug'chilik so'zlarining ham semantik maydoni va semantik strukturasi haqida fikr yuritish ishlari olib borilmoqda.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligi doirasida A.M.Kuznetsov, V.I.Abaev, N.A.Baskakov, N.V.Bekbulatov, A.A.Burikin, G.G.Djafarov, A.Ishaev, A.N.Kononov, Laude Sirtautas, A.Mametov, A.A.Pokrovskayalar² tomonidan qarindoshlik nomlarining lisoniy xususiyatlari turli nuqtai nazardan o'rganilgan. Turkiyshunoslikda qarindoshlikka doir leksik materiallarni tizimli o'rganish bo'yicha Sh.Rahmatullaev, I.Qo'chqorto'ev, E.Begmatov, N.Mahmudov, A.Nurmonov, K.M.Musaev, H.Ne'matov, R.Rasulova, A.Berdialiev, Sh.Iskandarova, I.Ismailovlarning ishlarida tadqiq etilgan. Xullas, qarindoshlik atamaları an'anaviy, qiyosiy-chog'ishtirma usullarda tahlil qilingan.

Ishning maqsad va vazifalari.

Tadqiqotning asosiy maqsadi o'zbek shevalaridagi qarindoshlik terminlarining nikohgacha va nikohdan keyin hosil bo'lgan xillarini to'plash, ularning yasaliş dinamikasi, shakllanish tarixi, yaratilish davridan tortib, shu kungacha terminlarning tizimida ro'y bergan fonetik o'zgarishlar, ma'no anglatishdagi umumiy klassifikatsion va xususiy tomonlarini aniqlashdir.

² Kuznetsov A.M. Sopotavitel'no-tipologicheskii analiz terminov rodstva angliyskogo, datskogo, frantsuzskogo i ispanskogo yazikov // V kn. Sinxronno-sopotavitel'niy analiz yazikov raznix sistem. – M.: Nauka, 1971. – S. 269–277; Abaev V.I. O rodovix otnosheniyax i terminax rodstva u osetin // Engel's i yazikoznanie. – M.: Nauka, 1971. – S. 239–242; Baskakov N.A. Altayskaya sem'ya yazikov i yee izuchenie. – M.: Nauka, 1987. 136 s.; Bekbulatov N.V. Bashkirskaya sistema rodstva. – M., 1981; Burikin A.A. Kakaya real'nost' nablyudaetsya issledovatelyami pri opisaniy sistem terminov rodstva // Algebra Rodstva. SPb.: MAE RAN, 2001. Vip. 5. – S.63–75; Djafarov G.G. Termini rodstva v semanticheskoy sisteme i grammaticheskoy strukture yazika // ST, 1974. – № 3. – S. 22–32; Ishaev A. Istoricheskoe razvitie leksiki tyurkskix yazikov. – M.: AN SSSR, 1961. – S. 11–81; Kononov A.N. Rodoslovnaya turkmen. – L., 1958, Laude Sirtautas. K voprosu o tabu i evfemizmax v kazaxskom, kirgizskom i uzbekskom yazikax // ST, 1976. – № 4. – S. 72–87; Mametov A. O terminax rodstva v krimskotatarskom yazike // ST, Baku. 1980. № 6. – S. 70–76, Pokrovskaya A.A. Termini rodstva v tyurkskix yazikax // V kn. Istoricheskoe razvitie leksiki tyurkskix yazikov. – M.: Izd-vo AN SSSR, 1961. – S. 11–81.

Mana shu maqsaddan kelib chiqib quyidagi vazifalar belgilandi:

- O'zbek shevalarida mavjud bo'lgan qarindoshlik munosabatlarini ifodalovchi terminlarni to'plash;
- Qarindoshlik terminlarining nikohgacha va nikohdan keyin paydo bo'lgan terminlar sifatida tasniflash;
- Sof qarindoshlik va quda-andachilik asosida yaratilgan terminlarni tahlil qilish;
- Nikohdan so'ng paydo bo'lgan qarindoshlik terminlarining yasash modellarini aniqlash;
- Qadim davrda yaratilgan qarindoshlik terminlarining tarkibida asrlar osha sodir bo'lgan fonetik, morfologik va semantik o'zgarishlarning izlarini topish;
- Qarindoshlik terminlarini boshqa turkiy va turkiy bo'lmagan tillar qarindoshlik terminlariga qiyoslab ularning etimologiyasini aniqlash;

So'zning semantik strukturasini o'rganish semantika sohasining muhim vazifalardan biridir. Ob'ektiv olamdagi elementlarni leksik-semantik gruppalariga bo'lingan.

Ushbu leksik-semantik gruppalar esa yana o'z tarkibida kichikroq leksik-semantik gruppalariga bo'linish jihatdan har bir so'z turkumining semantik nuqtai nazardan tahlil etish maqsadga muvofiqdir. Faqat so'z turkumlarini semantik strukturasini tekshiribgina qolmay, balki tilda ma'lum bir qatlamni hosil qiluvchi qavm-qarindoshlik giponimlarini ham semantik tahlil qiluvchi qavm-qarindoshlik giponimlarini ham semantik tahlil qilish mumkin. Bir semantik maydonni hosil qiluvchi giponimlarning har biri qanday ma'no ifodalovchi tomonlardan iborat ekanligini tekshirish maqsadida quyidagi vazifalar hal qilindi:

- giponimiya va semantika haqida ma'lumot berildi;
- qavm-qarindoshlik giponimlarining leksik ma'nolari haqida ma'lumot keltirildi;
- qarindoshlik giponimlari gruppalariga ajratildi, ularning komponentlari tahlil qilindi;

- Qon-qarindosh bo'lgan giponimlarning birlashtiruvchi va farqlovchi semalari aniqlandi;

- Yuridik boqib olish orqali hosil bo'lgan qardoshlik giponimlarining birlashtiruvchi va farqlovchi semalari aniqlanadi.

Ishning metodologik asosi va tadqiqot metodi

Ilmiy tadqiqotga I.Ismoilovning turkiy tillarda qardosh-urug'chilik terminlari haqidagi ilmiy monografiyasi, I.Kuchqortoev, R.Safarova, A.Nurmanov, M.Narzieva, A.Ishaevalarning ilmiy maqolalari, nazariyalari manba vazifasini o'tadi.

Ishning nazariy va amaliy ahamiyati.

Bu mavzuda kishilarning qavm-qarindoshlik giponimlari haqidagi ma'lumotlari kengayadi, giponomiya va semantika haqidagi tushunchalari oshadi. Qarindoshlik ifodalovchi so'zlarning leksik ma'nolaridan tashqari ularning ichki ma'nolari ham aniqlanadi, ya'ni nechtdan ma'no farqlovchi tomonga /semaga/ ega ekanliklari va har bir leksema tarkibidagi semalar bilan o'xshash va noo'xshash tomonlari aniqlanadi. Ish jarayonida foydalanilgan komponent tahlil usuli va uning samarali natijalari aks ettiriladi.

Kirish. Jahon tilshunosligida muayyan leksik tizimning shakllanishi, bu tizimning semantik taraqqiyoti hamda yaxlit sistema sifatida tarkib topishiga doir xilma-xil ilmiy qarashlar mavjud. Zero, tilda tashqi, ya'ni ekstralingvistik omillar bilan bog'liq ko'plab qoidalarni talab qiladigan, lisoniy shakllar uchun muqarrar bo'lmagan holatlar uchrab turadi. Bunday noizchiliklar barcha tillarning qarindoshlik atamaları sistemasiga ham taalluqlidir. O'rganilayotgan ob'ektlarni mohiyatan tizimlashtirish va aniqlashtirish tilshunoslik fani rivojida muhim ahamiyatga ega.

Dunyo tilshunosligida barcha millatlar lisoniy olamidagi qavm-qarindoshlik tushunchalarining necha asrlik ijtimoiy amaliyotda shakllangan va ijtimoiy tarkibda qo'llanadigan faol nasliy leksik tizim ko'rinishida, muayyan paradigmalar asosida shaxslarning genetik ierarxiyasini namoyon qilishi batafsil o'rganilgan. Mazkur masala bir yoki turli tizimdagi tillarning grammatik tuzilishini inobatga olib va tilning alohida xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, qavm-qarindoshlik tushunchalarini mantiqiy-lisoniy kategoriya sifatida o'rganishni taqozo etadi. Boshqa tillardagi kabi o'zbek va ingliz tillarida ham qarindoshlik atamaları o'ziga xos leksik tizimni shakllantiradi. Ushbu tizimdagi ayol jinsiga xos qavm-qarindoshlik va yaqinlik atamalarini o'rganish bu birliklarning tarixiy taraqqiyotini va qo'llanish mexanizmini aniqlashga imkon beradi.

O'zbek tilshunosligida bugunga qadar so'zlarni semantik maydon asosida o'rganish yuzasidan qator ishlar amalga oshirildi. Shunday bo'lsa-da, o'zbek hamda ingliz tillarida ayol jinsiga xos qavm-qarindoshlik va yaqinlik atamaları mantiqiy-lisoniy kategoriya sifatida sinxron aspektda o'rganilgan emas. Tilshunoslik fani rivojining zamonaviy bosqichi tadqiqotchilar oldiga ushbu masalaga oid til materiallarini alohida tizim sifatida o'rganishni qayta ko'rib chiqish vazifasini qo'ymoqda. Ta'kidlash lozimki, tadqiq usuli borasida onomasiologik hamda semasiologik jihatlar o'zaro chambarchas bog'liq va ularni bir-biridan ayro tasavvur qilib bo'lmaydi. Til faktlarini funktsional lingvistikaning asosiy, yetakchi tamoyili bo'lgan onomasiologik nuqtai nazardan o'rganish zamonaviy tilshunoslikning ustuvor yo'nalishiga aylanib bormoqda.

O'zbek tili turkiy tillar oilasiga kiruvchi o'zbek xalqi tilidir. Hozirgi zamon jamiyati, fan-texnikasi, madaniyati, adabiyot va san'ati gurrkirab rijovlanayotgan bir paytda, tilshunoslik ham ko'p til masalalarini hal qila borib rivojlanmoqda.

O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi olim, yozuvchi, ishchi, ziyoli, umuman ommaning tilga bo'lgan qarashini o'zgartiradi.

O'zbek tili leksikasi o'zining ichki va tashqi imkoniyatlaridan foydalanib boyib bormoqda. Tilga aktivroq e'tibor berish til masalalarini amalda puxta o'rganish muhim vazifalardan biridir.

Leksik qatlam tarkibida qardoshlik terminlari ham tilning asosiy gruppasini tashkil qiladi. Qavm-qardoshlik so'zlari lug'atimizning eng qadimiy fondi hisoblanadi. F.Engels o'zining "Oila, xususiy mulk va davlatning kelib chiqishi" degan genial asarida oila formalarini u yoki bu shakldagi qardoshlik terminlariniing ahamiyati to'g'risida: "ota, o'g'li va qiz, aka-uka, opa-singil degan nomlar faqat faxriy, juda jiddiy o'zaro majburiyatlarning majmuasi mazkur xalqlarning ijtimoiy tuzumining muhim qismini tashkil etadi."³ deb yozgan edi. Bu nasabdoshlik (belgilari) terminlari sistemasining juda uzoq vaqtlargacha o'zgarmasdan qolishini ham ko'rsatib o'tadi. Boshqa oilaga mansub tillarda qardoshlik nomlarini o'rganish ishlari ancha ilgari boshlangan (19-asr o'rtalarida)

Turkiy tillar bo'yicha qilingan dastlabki ishlar turkiy tillar gruppasiga kiruvchi biror xalqning tarixini uning etnografik xususiyatlarini tekshirish bilan bog'lab, qavm-qarindoshlik terminlari ustida yo'l-yo'lakay to'xtab o'tilgan xolos.

Turkiy tillarda qavm-qarindoshlik terminlari to'g'risida yozilgan dastlabki maqolalar deb L.A.Pokrovskaya, X.G. Yusupov, S.A.Burnasheva, B.O'rinboevalar asarlarini ko'rsatish mumkin. Bu asarlar turkiy tillardagi qarindoshlik terminlarining ma'no tomonlarini tekshirishda ijobiy yutuqlarga erishgan bo'lsada, o'zbek va uyg'ur tillardagi qarindoshlik bildiruvchi so'zlar juda ko'p, ularning qo'llanishi doirasida, leksik, morfologik ma'nolari ham xilma-xildir.

Qarindoshlik nomlari haqida I.Ismoilovanning "Turkiy tillarda qavm-qarindoshlik terminlari" monografiyasi bu terminlarining leksik-gramatik

³ F.Engel's, oila, xususiy mulk va davlatning kelib chiqishi, Toshkent, O'zdavnashr, 1956, 30-bet.

ma'nolarini aniq ifodalab bergan. Kitobda hozirgi zamon o'zbek va uyg'ur tili materialli asosida qavm-qarindoshlik terminlari qiyosiy tekshirilib, unga qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq va turkman tillari ham qiyoslanadi. O'zbek va uyg'ur tilidagi qarindoshlik terminlarining bir-biridan farqi, shuningdek, ularning tarixiy taraqqiyoti, shevalardagi ko'rinishi to'g'risidagi fikr yuritiladi.

Tillardagi umumturkiy birlik va har bir tilning o'ziga xos xususiyatlari, bir-biridan farqlari tahlil etiladi.

O'zbek tilidagi qarindosh-urug'chilik so'zlari haqida M.Narzieva, A.Ishaev kabilar maqolalar bilan chiqdilar. M.Narzieva maqolasida qarindosh urug'chilik so'zlarining komponent tahlili haqida to'xtaladi va so'zlarning semantik jihatdan tahlil qiladi. A.Ishaev esa qarindoshlik terminlarining tarixiy va hozirgi ko'rinishlarda o'zgarish bor-yo'qligi haqida ma'lumot beradi.

Ma'lumki, boshqa so'z turkumlari qatori qarindoshlik terminlari ham tilning ichki va tashqi rivojlanishi qonuniyatlari asosida ayrimlari unitilib, yo'qolib ketadi. Lekin ularning asosiy qismi asrlar davomida avloddan avlodga o'tib saqlanib qoladi. Masalan, olimlarning aniqlashlaricha O'rxun-Enasoy yodnomalarida qayd etilgan so'zlardan 40 % ga yaqin (bulardan ayrimlari fonetik o'zgarishlarga uchragan holda) hozirgi turkiy tillarning ko'pchiligida mavjud ekan. O'rxun-Enasoy yozma yodgorliklari tilida qarindoshlik bildiruvchi *ota, ada, ana, aba, aka, acha, o'g'il, qiz, aka, singil, ini, chaluk, er, katuk, kelin, yigit, qarindosh* singari terminlar hozirgi turkiy tillar va ularning shevalarida aktiv so'z sifatida qo'llanmoqda.

Shuningdek bundan 900 yil muqaddam yozilgan Mahmud Qoshg'ariyning "Devon" idagi qarindoshlik terminlarining beshdan to'rt qismi o'zbek tili va shevalarida qariyb hech qanday o'zgarishsiz saqlanib qolgan.⁴ Demak turkiy tillardagi qarindoshlik terminlari, ayrim etnograflar aytganidek, X-asrdan boshlab tamomila o'zgarib ketgan bo'lishi, boshqa qarindoshlik terminlari bilan almashishi mumkin emas.

⁴ I.A. Ishaev, Turkiy tillarda qarindoshlik terminlari o'zgarganmi?, "O'zbek tili va adabiyoti", 1973, 6-son, 34-bet.

Turkiy tillardagi qarindoshlik ifodalovchi soʻzlarning asosini tashkil etuvchi *ata, aba, aka, ini, ana*, kabi terminlar juda qadimdan mavjud boʻlib, ular turkiy tillarga boshqa tillardan oʻzlashgan emas. Bu fikrning toʻgʻri ekanligini turkiy tillarning yozma yodgorliklari yaqqol isbotlaydi. Ammo oʻzbek xalqi shu jumladan turk xalqi oʻzi oʻzgarganmi?, taraqqiyoti jarayonida turli sistemadagi tillarda gapiruvchi koʻpgina xalqlar bilan birga hayot kechiradi, aralashdi. Shuning natijasida oʻzbek va uygʻur tili, murakkab sharoitda shakllandi va uning lugʻat sostavi, shu jumladan qavm-qarindoshlik terminlari boshqa tillarning leksik elementlarini-terminlarini oʻz ichiga olgan holda rivojlandi.

Qavm-qarindoshlik terminlarini tilshunoslikda turli tomondan tekshirish mumkin. Masalan: terminlar va nomlarning (giponimlarning) qoʻllanishi va taraqqiyoti, hozirgi koʻrinishlarini leksik grammatik xususiyatlarini va semantik strukturasi jihatdan, qavm-qarindoshlik terminlarini kelib chiqish va maʼnosiga koʻra uchta katta gruppaga boʻladi:

1. Qon-qarindoshlik terminlari.
2. Nikohdan keyin paydo boʻlgan qarindoshlik terminlari.
3. Yaqinlik nomlari.

M.Narzieva maqolasida bu terminlari 2 ga ajratadi. Yaʼni yaqinlik nomlari gruppasini kiritmaydi.

Bulardan xulosa chiqargan holda biz quyida qavm-qarindoshlik giponimlarini quyidagicha klassifikatsiya qildik:

1. Qon-qarindoshlik giponimlari.
2. Nikohdan keyin paydo boʻlgan qarindoshlik giponimlari.
3. Yuridik boqib olish orqali paydo boʻlgan qarindoshlik giponimlari.
4. “Tutingan” soʻzi orqali qarindoshlik ifodalovchi giponimlar.

Biz quyidagi qavm-qarindoshlik giponimlarining semantik strukturasi haqida fikr yuritamiz. Buni semantik tahlil yoki komponent tahlil deb ham ataladi.

Berilgan tahlilda har qaysi qarindoshlik giponimining qanday semalardan iborat ekanini aniqroq koʻrsatish mumkin. Semantik tahlil qilishdan avval giponimlarning leksik maʼnolari haqida, semantika va giponimiya tushunchalari

haqida to‘xtalib o‘tamiz. Ammo giponimlarning tuzilishi, tarixiy yoki hozirgi ma’nolari, shakllari haqida, qaysi sheva va dialektlarda qanday nomlanishi haqida, qo‘llanish doirasi to‘g‘risida ma’lumot berish biz ko‘zda tutgan maqsad emasligi uchun bularga e’tibor qaratamiz.

Qavm-qarindoshlik, qarindosh urug‘chilik deganda umumiy hamma gruppaga uchun mos giponimlar tushuniladi. Qon-qarindoshlik termini rus tilidagi “termini rodstva po krovi” (I.I) ma’nosida “yaqin” qarindoshlikni bildiradi. Bir gruppaga giponimlarni o‘z ichiga oladi.

1.1.Qarindoshlik atamalari tizimi o'ziga xos mantiqiy-lisoniy kategoriyaning turi sifatida

Tillarni tipologik tadqiq etish ularning umumiy nazariyasi uchun qimmatli ma'lumotlarni beradi va ayni paytda, har bir tilning dunyo tillari tizimidagi o'rnini aniqlashga yordam beradi. Shuningdek, ularning rivojlanish va o'zaro ta'sir qonuniyatlari kabi muhim masalalarni hal qilishda ham foydalaniladi.

So'nggi paytlarda tilshunoslar tomonidan turli tipdagi tillarning tipologik tadqiqotlariga jiddiy e'tibor qaratilayotganligi diqqatga loyiq. Bu jahon hamjamiyati moddiy va ma'naviy hayotining barcha sohalarida globallashtirish jarayonlarining tobora rivojlanib borayotganiga o'ziga xos javob reaksiyasidir. Tarjima va axborot xizmatlari masalalari, turli lug'at va ma'lumotnomalar yaratish vazifasi, ona tilidan boshqa tillarni o'qitish uslublarini takomillashtirish qiyosiy tipologiya oldida turgan dolzarb vazifalardandir. Aynan shu jihat tadqiqotimiz ob'ekti sifatida o'zbek va ingliz tillarida qarindoshlik atamalarining tanlanishiga sabab bo'ldi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, ingliz va o'zbek tillarining qiyoslanayotgan hodisalari taraqqiyot evolyutsiyasini ko'rib chiqish asosiy vazifa emas: oldimizga nisbatan soddaroq – bu tillarning muayyan leksik qatlamini taqqoslash masalasi ko'ndalang qo'yilgan.

Ma'lumki, turli tizimdagi tillarning alohida leksik qatlamlarini qiyoslash nihoyatda mushkul vazifadir. O'z navbatida, A.A. Potebnya ona tili bo'lmagan tillarning leksikasini o'rganish mashaqqatiga haqqoniy baho bergan: “Men hatto

bir-biriga ancha yaqin bo'lgan tillarning ichki tuzilishi va bitta til lahjalaridagi farqni rad etmayman, biroq bilamanki, tillar qancha o'xshash bo'lsa, ularning asosiy farqlarini aniqlash shunchalik qiyin bo'ladi"⁵.

Qiyosiy tarixiy tilshunoslikning yetakchi vakillaridan biri, "tarixiy grammatika asoschisi" Ya. Grimmning qayd etishicha, "... til suyaklar, buyumlar va qabristonlardan ko'ra afzal turadigan xalq tarixining asosiy guvohi hisoblanadi. Til – bu insoniyat ruhining nafasi"⁶. Akademik YA.Marr esa YA.Grimmning til haqidagi bu fikrlarini to'ldirib shunday yozadi: "Til insoniyatning boshqa madaniy ixtirolari tarkibiga kiradi. Farqi shuki, til bir vaqtning o'zida insoniyat rivojlanishida ijod tadrijining barcha bosqichlarini ular qanday tuzilgan bo'lsa va qanday ma'noda qo'llanilgan bo'lsa, shunday aks ettiradi"⁷.

Qardosh bo'lmagan tillarning bir-biriga nisbatan ekvivalentlik asoslarini tadqiq etish jarayonida, odatda, qiyosiy-tipologik metoddan foydalanilgan bo'lib, u bugun ham o'zining ahamiyatini yo'qotmagan, hozir ham taqqoslanayotgan tillardagi o'xshash va farqli jihatlarini aniqlashga imkon beradi. Bu usul XIX asr boshlarida qiyosiy-tarixiy tilshunoslik, ya'ni komparativistika bilan bir paytda paydo bo'ldi va hozirda tor terminologik ma'nodagi tilni emas, balki nutqiy xarakterdagi til faktlarini o'rganishga ko'maklashuvchi an'anaviy tadqiqot usullari sirasidan hisoblanadi.

O'z navbatida, an'anaviy usullar ayrim kamchiliklardan xoli emas, bu esa, asosan, ularning yordamida tilning barcha qatlamlari ham birdek tadqiqqa tortila olmasligida namoyon bo'ladi. Masalan, qiyosiy (tarixiy) metod yordamida faqatgina bir til oilasiga mansub tillarning qiyosiy fonetikasi va morfologiyasi ko'rib chiqiladi. Semantika va sintaksis materiallarini o'rganishda bu metodga passiv murojaat etiladi.⁸

Hozirgi kunda tilshunoslikka oid tadqiqotlarda lingvistik tadqiqotlarning zamonaviy usullari bilan bog'liq bo'lgan tizimli metod faol qo'llanmoqda. Biroq

⁵ Potebnya A. A Iz zapisok po russkoy grammatike. T. IV. – M. – L., 1941. – S. 36.

⁶ Usmonov S. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent, 1972. – S. 61.

⁷ Marr N.YA. Znachenie i rol' izucheniya natsmen'shinstva v kraevedenii // V kn. Kraevedenie. – M., 1927. T. IV, vip. I. – S. 8.

⁸ Potebnya A. A Iz zapisok po russkoy grammatike. T. IV. – M. – L., 1941. – S. 177.

ta'kidlash joizki, tilning barcha qatlamlarini o'rganishda bu usul bir xilda samarali emas. Tilning lug'at manbalarini o'rganishda tizimli metod qator noqulayliklar tug'diradi. Bu usulning noqulayligi va murakkabligining sababi shundaki, "har qanday tilning leksik materiali o'ziga xosdir. Morfologiya, fonetika yoki sintaksis materialiga qaraganda uni sistem tadqiq etish qiyinroq. Leksikada "oppozitsion juft so'z"ni tanlash sistemasining "ochiqligi" va doimiy harakatchanligi tufayli ma'lum darajada shartlidir".⁹

Leksik manbani sistem metod bilan o'rganishga to'sqinlik qiluvchi boshqa sabablar ham bor. Masalan, lug'at tarkibining ayrim leksik-semantik qatlamlari sistematik xarakterga ega bo'lib, ob'ekt bunday tarzda oson o'rganilishi mumkin. Boshqa birlari esa, murakkab sistem tuzilishga ega bo'lib, ular tadqiqotning bunday yondashuviga mutanosib kelmaydi. Bu haqda A.G. Grigoryan quyidagilarni yozadi: "Ba'zi leksik-semantik guruhlar – eng avvalo, qarindoshlik, rang terminlari, muayyan so'zlarning ayrim guruhlari nisbatan yaxshi o'rganilgan; amalga oshirilgan salmoqli ishlarga qaramay, ijtimoiy munosabatlar va kishilarning shaxsiy hayotiga oid ishoralar bilan bog'liq ishlar hali o'rganilishi lozim. Tadqiqot darajasidagi bu farqlar, avvalo, tadqiqot ob'ektining o'zi bir maromli emasligi bilan asoslanadi: ba'zi so'z guruhlari boshqalariga nisbatan "sistemali"roq shakllangan, ba'zilari esa tarkibiy jihatdan boshqalariga qaraganda murakkabroq va hokazo».¹⁰

Qardosh va qardosh bo'lmagan tillarning bir-biriga bog'liq ekvivalent jihatlarini o'rganishda an'anaviy xarakterga ega bo'lgan qiyosiy-tipologik metoddan foydalaniladi. Uning yordamida tadqiqotchilar tomonidan bevosita kuzatilayotgan tor terminologik ma'nodagi lisoniy emas, balki nutqiy xususiyatlar o'rganiladi.

Til materiallarini tizimli tadqiq qilish ko'p jihatdan XX asrning 50 yillarida vujudga kelgan komponent tahlil metodi bilan bog'liq. Komponent tahlil usuli har bir birlik sema yoki belgi deb ataluvchi komponentlardan iborat degan gipotezaga

⁹ Budagov R.A. Problemi razvitiya yazika. – M. – L., 1965. – 4 s.

¹⁰ Grigoryan A.G. Nekotorie problemi sistemnogo i istoricheskogo izucheniya leksiki i semantiki // VYA, 1983, № 4. – S. 57.

asoslanadi.¹¹ Masalan, *amaki* leksemasining ma'nosi beshta sema yoki belgidan iborat: 1) erkak kishi, 2) qarindosh, 3) gorizontal yo'nalishda qon-qarindoshlik, 4) otaning akasi yoki ukasi, 5) birinchi avlod qarindosh. Xuddi shunday belgilar *bobo* atamasining ma'nosiga ham xos: 1) erkak kishi, 2) ota, 3) vertikal yo'nalishda ota, 4) qondosh ota, 5) ikkinchi avlod ota.¹²

Leksik-semantik guruhlarini tadqiq etishda komponent tahlil usuli nisbatan tejamkor hisoblanadi va shuning uchun ham unga murojaat qilish anchayin o'rinlidir. Aslida, semantik maydon (leksik-semantik guruh) biror bir semantik komponent asosida ajralib turgan bo'ladi. Masalan, qarindoshlik terminlari asosiy va umumiy komponenti – “qarindoshlik” asosida bir semantik maydonga birlashadi.¹³

Ta'kidlash joizki, turkologiyada leksik materialni sistem o'rganish borasida bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. O'zbek tilshunosligida leksikologiyaga oid talaygina ishlar mavjud bo'lib, ularda o'zbek tili leksikasi sistem metodi yordamida tahlil qilinadi. Bunday ishlar sirasiga SH.Rahmatullaev, I.Qo'chqortoev, H.Ne'matov, E.Begmatov, R.Rasulov, R.Safarova, SH.Iskandarova, D.Nabieva va boshqalarning tadqiqotlari kiradi va shulardan biz uchun eng ahamiyatlisi H.Ne'matov va R.Rasulovlarning “O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari” darsligidir.¹⁴

Professor O.Azizov haqli ravishda “...Til – murakkab hodisa. Tillarni qiyosiy jihatdan o'rganish yanada murakkab. Bunday murakkab muammolarni o'rganishda tadqiqotchi ko'p tillarni, eng kamida ikkita tilni mukammal bilishi kerak. Bundan tashqari, tillarni qiyosiy o'rganish tadqiqotchidan til fanining barcha sohalari bo'yicha chuqur lingvistik bilimni, shuningdek, qiyosiy o'rganilayotgan tillar xalqlarining tarixi va madaniyatini ham bilishni talab qiladi”.¹⁵

¹¹ Lingvisticheskiy entsiklopedicheskiy slovar`. – M.: Sovetskaya entsiklopediya, 1990. – S. 233–234.

¹² Levin YU. I. Algebra rodstva // Nauka i jizn`. – 1982. – № 8. – S.261-262.

¹³ Kuznetsov A.M. O primeneni metoda komponentnogo analiza v leksike // Sinxronno-sopostavitel`niy analiz yazikov raznix sistem. – M.: Nauka, 1971. – S. 260.

¹⁴ Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. –Toshkent: O'qituvchi, 1995. – 128 s.

¹⁵ Azizov O. Tillarni qiyosiy o'rganish masalasiga doir // Turkiy tillarning taraqqiyoti muammolari. –Toshkent: Fan, 1995. – S. 21.

Sinxron-qiyosiy metod sistem metod bilan birgalikda turli strukturali tillarning qarindoshlik terminlari tizimini o'rganishda juda qulay va samaralidir. Dunyo tilshunosligida qarindoshlik terminlari roman-german tillari materiali bo'yicha qiyosiy-tarixiy jihatdan o'rganilgan bir qator ishlar mavjud. XIX asr o'rtalarida bu masala nemis olimi Yakob Grimm, keyinchalik Del`bryuk, Shuf, M.M.Guxman va boshqalar tomonidan o'rganilgan .¹⁶

Yakob Grimm ba'zi german tillarida “ota” va “ona”ni ifodalovchi ikki turkum terminlarning mavjudligini qayd etib, bu hodisani izohlashga harakat qilgan. U shunday yozadi: « ... bir paytlar *vater, mutter, bruder, schwester* shakliga ega bo'lgan qardosh xalqlar Yevropani bosib olish davomida boshqa shakllarni ham uchratadilar, ba'zilar o'zlashtirilgan, boshqalari esa aksincha, ulardan qo'shnilariga kirib borgan”. YA.Grimm gotlardagi *atta* (ota) va *aife* (ona)ni misol sifatida keltiradi va uning so'zlariga ko'ra, yuqori nemis qabilalari orasida *azo i eidi* shakllaridan kamdan kam hollarda foydalanish holatlarini keltiradi .¹⁷

M.M.Guxmanning “Hind-Yevropa davrigacha german tillaridagi qarindoshlik terminlari” nomli maqolasida qayd etilishicha, «...keyingi ishlarda, kengroq ma'noda, germanistlar hind-yevropa tillarida umumiy ma'lum qarindoshlik terminlari guruhlar qatorida hech bir hind-yevropa tillarida umumiy bo'lmagan va nisbatan primitiv shaklga ega yana bir qator boshqa terminlar mavjudligini hisobga olishga majbur bo'ldilar” .¹⁸

Del`bryuk ulardan ikkinchisini, tuzilishi o'xshash bo'lganlarni maxsus ajratadi: asosan, sanskritcha *tata*, nemis shevasidagi *deda, nena, muhme* singari bir bo'g'inning, ba'zan birinchi undosh qisqargan *ata, ama, ane* va hk. reduplikatsiyasi. M.M.Guxman tadqiqotchilarni ikki holat hayratga solganini yozadi: 1) butun yer shari bo'ylab bu komplekslarning haddan tashqari keng tarqalishi, ularning mutlaq mavjudligi, hatto begona va noo'xshash tillarda ham; 2) bir yoki yaqindan qo'shni

¹⁶ Guxman M.M. Doindoeuropeyskie termini rodstva v germanskix yazikax // Pamyati akademika I.YA. Marra. – M. – L., 1978. – S. 93–115.

¹⁷ Guxman M.M. Doindoeuropeyskie termini rodstva v germanskix yazikax // Pamyati akademika I.YA. Marra. – M. – L., 1978. – S. 93–115.

¹⁸ Guxman M.M. O'sha manba. – B. 93.

tillarda hamma vaqt “ota”, “ona”; “ota”, “bobo”; “ona”, “xola” va hokazolarni bildiruvchi har bir kompleks semantikasining yoyilib ketganligi” .¹⁹

M.M.Guxman odamlar o'rtasidagi qon-qarindoshlik munosabatlarini bildiradigan ko'plab qarindoshlik atamalari “umummilliy, xalqaro” xarakterga ega hamda ular bir bo'g'inning reduplikatsiyasi va birinchi undoshning qisqarishi bilan paydo bo'lgan, deb hisoblaydi. U Pottning so'z yasalishi va so'z tuslanishini qabul qilishning turli til bosqichlari uchun dunyo tillari orasida universal sifatida reduplikatsiya keng tarqalganligi haqidagi ta'rifiga qo'shiladi. M.M.Guxmanning yuqorida keltirilgan ishida qayd etilishicha, “... reduplikatsiya yo'li bilan “ota”, “amaki”, “bobo” ma'nosidagi *tata//tate, dade*; “ona”, “xola” ma'nosidagi *tihte, tetya*; “ota”, “ona”, “buvi”, “bobo” ma'nolaridagi *pahpa, pappe, pappa*; birinchi undoshni qisqartirish yo'li bilan “ota”, “amaki”, “bobo” ma'nosidagi *atta, ette, ade*; “ona”, “xola” – ata, atta; “ota”, “ona”, “buvi”, “bobo” – *ap, yep, apo* tipidagi qarindoshlik terminlari hosil qilingan” .²⁰

1871 yili amerikalik huquqshunos L.G.Morgan “Sistemi rodstva i svoystva chelovecheskoy sem'i (Inson oilasida qarindoshlik va yaqinlik tizimi)” nomli asarida qarindoshlik atamalari o'zgarishlarga uchragan, deb xulosa qiladi va shunga qaramay, ilk tizimda o'rin tutgan qarindoshlarni tasniflash ilk tamoyillari doimiy bo'lib qoladi, deb qo'shimcha qiladi; bu xususiyat turli xalqlarning qadimiy qarindoshligiga dalil bo'lib xizmat qilishi mumkin. Qarindoshlik tizimlarining o'xshashligini xalqlar o'rtasida hukm surayotgan oila-nikoh munosabatlarining ba'zan aynan bir xil bo'lishi bilan izohlash mumkin .²¹

“Amaki” va “xola” ma'nolari bilan qarindoshlik terminlarining paydo bo'lishi masalasiga kelganda Morgan *punalua* (“turon qarindoshlik tizimi”)ni aks ettiruvchi qarindoshlik tizimida “onaning singlisi” bir vaqtning o'zida ham ona, “otaning aka-ukasi” ham ota hisoblanadi, deb faraz qiladi, shunga ko'ra “onaning aka-ukasi” esa tog'a va “otaning singlisi” esa *amma* hisoblanadi .²²

¹⁹ Guxman M.M. O'sha manba. – B. 97-98.

²⁰ Guxman M.M. O'sha manba. – B. 112.

²¹ Grigoryan A.G. Nekotorie problemi sistemnogo i istoricheskogo izucheniya leksiki i semantiki // VYA, 1983, № 4. – S. 36-40.

²² Guxman M.M. O'sha manba. – B. 112.

O'z davrida F.Engel's "Konservativ bo'lmish qarindoshlik terminlari tizimi ko'pincha ma'lum bir xalqning mavjud oilaviy munosabatlariga mos kelmaydi, balki ijtimoiy taraqqiyotning oldingi bosqichini aks ettiradi", deb qayd etgan. Misol tariqasida F.Engel's Shimoliy Amerika irokezlarining qarindoshlik terminlarini keltiradi. Ularda "juftlashgan oila" hukmron edi. Demak, "ota", "ona", "o'g'il", "qiz", "aka (uka)", "opa (singil)" atamaları o'z ma'nolarida oilaning bu shakliga mos kelishi lozim edi. Aslida esa bunday emasdi. *"Irokez o'g'il-qizlarim deb nafaqat o'z farzandlari, balki aka-ukalarining farzandlarini ham ataydi, ular esa uni ota deb atashadi, irokezka opa-singillarining bolalarini ham o'z farzandlari qatori o'g'il-qizlarim deb ataydi, ular esa uni ona deb atashadi, aka-ukalar bolalari opa-singillarning farzandlari kabi bir-birlarini aka-uka, opa-singil deb ataydilar"*.²³ Keyinchalik V.I.Abaev "osetin tilida "ota" (fud), "ona" (mad), "o'g'il" (furt) terminlari oilaviy terminlar hisoblanadi, ya'ni ular hozirgi tushunchamizdagi ichki oilaviy qarindoshlik munosabatlariga nisbatan qo'llaniladi", deb guvohlik beradi.²⁴

Yuqoridagi faktlar dunyoning deyarli barcha tillaridagi ayrim qarindoshlik terminlari polifunksional, polisemantik xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi. Demak, o'zbek tilida bobo – *"ota yoki ona tomondan bobo"*, *"onaning otasi"*, *"otaning otasi"*, amaki – *"ota tomondan qarindosh"*, o'z ma'nosidan tashqari, *"otaning katta akasi"*, *"otaning kichik ukasi"* ma'nolarida; tog'a *"ona tomondan qarindosh"* – *"onaning katta akasi"*, *"onaning kichik ukasi"* ma'nolarida ham ishlatiladi. O'zbek tilida ota termini *"ota"* atamasi *"bobo"*, *"otaning katta akasi"*, *"ona tomondan tog'a"*, *"otaning katta akasi"*, *"ota tomondan amaki"*, *"onaning katta akasi"*, umuman, *"otadan katta qarindosh"* va boshqa ma'nolarda ham qo'llanishi mumkin, bu ularning ingliz tilidagi ekvivalentlari uchun xos emas. Bunday qo'llanishlarda (o'z ma'nosida emas) *"ota"* (*father*) atamasining semantik strukturasida uning asosiy belgilaridan biri, *"ota-ona"* belgisi – semasi neytrallashadi. Bu opa atamasi – *"ota-onaning egodan katta qiz farzandi"*

²³ Abaev V.I. O rodovix otnosheniyax i terminax rodstva u osetin // Engel's i yazikoznanie. – M.: Nauka, 1971. – S. 239–242.

²⁴ Abaev V.I. O'sha manba. – B.240.

ma'nosida ham kuzatiladi. *Opa* leksemasi o'z ma'nosidan tashqari, “*ota-onaning ayol jinsidagisi*” (*ona*), “*otaning opa-singlisi*” (*ota tomondan amma*), “*onaning opa-singlisi*” (*ona tomondan xola*), “*akaning xotini*”, “*o'gay ona*”, “*ota-onaning katta qizi*” (*katta opa*), “*so'zlovchidan yoshi katta bo'lgan barcha ayol*” ma'nolarida ham qo'llanadi va bunda “*gorizontal yo'nalishda qon qarindosh*” semasi neytral hisoblanadi.

Qarindoshlik terminlarini o'z ma'nosidan boshqa ma'nolarda qo'llashda ikki va undan ortiq qarindoshlik terminlari o'rtasida “nostandart” sinonimik qator yuzaga keladi. Masalan, “*aka*” (*elder brother*) qarindoshlik termini *aka* ma'nosi bilan “*ota*” (*father*) terminiga; *bobo* ma'nosi bilan “*bobo*” (*grandfather*) terminiga sinonimdir; “*opa*” (*elder sister*) qarindoshlik termini “*ona*” ma'nosida “*ona*” (*mother*) termini bilan, “*amma*” ma'nosi bilan (*aunt*), “*xola*” ma'nosi bilan (*aunt*) terminlari va h.k. bilan o'zaro sinonim bo'ladi. Bunday hollarda terminlarning semantik [85; 102] tuzilishi ularning o'z ma'nolari tuzilishiga xos bo'lmagan yangi sema-belgilarni kasb etadi. Masalan, “*aka*” (*elder brother*) atamalarining semantik strukturasi “*ota*”, “*opa*” (*elder sister*) ma'nosi bilan “*ona*” ma'nosi bilan “*qondosh ota-ona*” sema-belgisi paydo bo'ladi va h.k.

A.D.Shmelev o'z maqolasida “qonning funksiyalari haqidagi tasavvurlar bir-biri bilan muayyan tarzda bog'liq. Shunday qilib, qon aloqasi, qon bilan bog'langan ifodalarida qon qarindoshligiga o'xshash tushunchalar g'oyasi bilan bir qatorda, hissiy yaqinlik g'oyasi ham aks etadi» deya ta'kidlab o'tgan.²⁵

Yu.I.Levin qarindoshlik turlarini qon qarindoshligi: to'g'ridan-to'g'ri, “*ona*”, “*o'g'il*”, “*buvi*” terminlari bilan ifodalanuvchi, tarkibida “*opa*”, “*xola*” kabi atamalarni saqlovchi yon qarindoshlik; qondosh bo'lmagan qarindoshlik, ya'ni er-xotinning birortasi orqali qarindoshlik sifatida belgilaydi [84; 104]. A.A.Burikin qayd etishicha, har qanday qarindoshlik tizimi uchun universal hisoblangan olti tasniflovchi xususiyatlarni o'z ichiga oladi: 1) ego jinsi; 2) al'tera jinsi; 3) konnektor jinsi; 4) qarindoshlik tabiati – qon/qondosh bo'lmaganlik xususiyati; 5)

²⁵ Zalianyak Anna A., Shmelev A. D. Vvedenie v russkuyu aspektologiyu. – M.: Yaziki russkoy kul'turi, 2000. - 60 s.

egoga nisbatan yosh; 6) egoga nisbatan avlod. Muallif turli tillarning qarindoshlik terminologiyasi leksik-semantik guruhida yuqorida keltirilgan semantik belgilarning turli xil to'plamlari amalga oshishini, ularning soni muayyan bir til doirasida har doim universal to'plamdan kamroq, deb qo'shimcha qiladi .²⁶

Tadqiqotimizning asosiy maqsadi o'zbek va ingliz tillarida ayollar jinsidagi qarindoshlik va yaqinlik terminlarining mazmuniy ifoda vositalari paradigmasini onomasiologik o'rganishdir.

Bizga ma'lumki, qarindoshlik terminlari har qaysi tilning lug'at tarkibida har qanday semantik tizim ostida o'ziga xos mikrosistema (leksik-semantik maydon) hosil qiladi. Har qanday semantik tizimosti qarindoshlik terminlarini o'rganish bir til oilasiga mansub tillarning tegishli va aloqador bo'lmagan genezisining ishonchli tasavvuri shakllanishiga yordam beradi. Yakob Grimm hind-yevropa tillari munosabatini aniqlay turib, tillarning qarindoshlik munosabatidan dalolat beruvchi to'rt guruh atamalarni keltiradi. Ularga quyidagilar kiradi:

- 1) son sistemasi;
- 2) olmosh;
- 3) verbum substantivum;
- 4) “ota”, “ona”, “opa-singil”, “aka-uka”, “qiz” tipidagi qarindoshlik terminlari .²⁷

M.M.Guxmanning haqli mulohazalariga ko'ra, qarindoshlik terminlari “Haqiqatan ham, kompravistika asoslari beqarorligini isbotlash uchun, ayniqsa, keng qo'llaniladigan sevimli materialdir” .²⁸

Qarindoshlik terminlari boshqa ko'plab tillarda ham tadqiqqa tortilgan. E.V.Sevortyan o'zining leksikografik asarida shunday yozadi: “Qarindoshlik terminlarini o'rganish ba'zi qiyinchiliklarni tug'diradi. Ular turli til oilalaridagi asosiy qarindoshlik terminlari mushtarakligining izoh talab etishi bilan namoyon

²⁶ Burikin A.A. Kakaya real`nost` nablyudaetsya issledovatelyami pri opisani sistem terminov rodstva // Algebra Rodstva. SPb.: MAE RAN, 2001. Vip. 5. – S.63-75.

²⁷ Pokrovskaya A.A. Termini rodstva v tyurkskix yazikax // V kn. Istoricheskoe razvitie leksiki tyurkskix yazikov. – M.: Izd-vo AN SSSR, 1961. – S. 94.

²⁸ Guxman M.M. Doindoevropeyskie termini rodstva v germanskix yazikax // Pamyati akademika I.YA. Marra. – M. – L., 1978. – S. 132

bo'ladi, bunda, aftidan, ushbu leksik turkumlarning genetik umumiyligini istisno qilish zarur. Aks holda, til oilalarining o'zida o'zaro genetik aloqalari haqidagi savol paydo bo'ladi".²⁹

Rus tili manbalari bo'yicha qarindoshlik atamalari A.I.Moiseev tomonidan o'rganilgan³⁰. Turkologiyada ular ozarbayjon³¹, tatar³² va o'zbek tillari³³ materiallari bo'yicha monografik miqyosda o'rganilgan.

Umumturkiy xarakterdagi tadqiq masalalari ko'rilgan ishlar ham mavjud. Bunday ishlar sirasiga A.A.Pokrovskaya³⁴, A.N.Kononov³⁵, K.M.Musaev³⁶ va boshqalarning ishlarini kiritish mumkin.

Keltirilgan ishlar orasida o'rganilayotgan materialning hajmi va mazmun ko'lamiga ko'ra A.A.Pokrovskayaning "Turkiy tillardagi qarindoshlik terminlari» asari ajralib turadi. Ushbu leksik birliklarni inobatga olgan holda A.A.Pokrovskaya "...qarindoshlik terminologiyasi leksikaning eng arxaik qatlamlariga mansub", deb hisoblaydi. Bu leksik-semantik guruhda eng muhim qarindoshlik munosabatlarini aks ettiruvchi nomlar, shubhasiz, har bir tilning asosiy lug'at fondiga kiritiladi. Qarindoshlik terminologiyasini biror til yoki tillar guruhida o'rganish katta qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi, sababi "oila shakli qarindoshlik tizimiga nisbatan tezroq o'zgaradi va shuning uchun turli xalqlarda qadimdan saqlanib qolgan qarindoshlik munosabatlari tizimi bilan zamonaviy oila shakli o'rtasida

²⁹ Sevortyan E.V. Etimologicheskii slovar` tyurkskix yazikov. Obshetyurkskie i mejtyurkskie osnovi na glasnii. – M.: Nauka, 1974. – S. 57.

³⁰ Moiseev A.I. Termini rodstva v sovremennom russkom yazike // NDVSH Filologicheskie nauki. – 1963. № 3.

³¹ Djafarov G.G. O terminax sed`moy-odinnadtsatoy stupeney rodstva po pryamoy linii v azerbaydjanskom yazike // V kn. Sinxronno-sopostavitel`niy analiz yazikov raznix sistem. – M.: Nauka, 1971.

³² Axmet`yanov R.G. Sravnitel`noe issledovanie tatarskogo i chuvashskogo yazikov. – M.: Nauka, 1978.

³³ Dul`zon A.P. Termini rodstva i svoystva v yazikax Narinskogo kraya i Prichulim`ya. II Uchyonie zapiski Tomskogogospedinstituta. T. XI. –Tomsk, 1954.

³⁴ Pokrovskaya A.A. Termini rodstva v tyurkskix yazikax // V kn. Istoricheskoe razvitie leksiki tyurkskix yazikov. – M.: Izd-vo AN SSSR, 1961.

³⁵ Kononov A.N. Rodoslovnaya turkmen. – L., 1958.

³⁶ Musaev K.M. Leksika tyurkskix yazikov v sravnitel`nom osveshenii. –M., 1975.

nomuvofiqliklar mavjud. Turkiy xalqlar orasida ham xuddi shunday hodisa kuzatiladi³⁷.

A.A.Pokrovskayaning ishlarida yigirma yetti qarindoshlik atamaları nomlari o'rganilgan. Ular ikkiga bo'linadi: 1) qon bilan qarindoshlik, 2) nikoh bilan qarindoshlik atamaları. Tadqiqot muallifi haqli ravishda "...bu asar barcha yoki aksar zamonaviy turkiy tillar uchun umumiy bo'lgan qarindoshlik terminlarini lingvistik jihatdan ko'rib chiqishning birinchi va, shubhasiz, nomukammal tajribasidir"³⁸, deb yozadi. Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, A.A.Pokrovskaya o'z asarida yaqinlik terminlarini (nikoh qarindoshligi terminlari) qarindoshlik terminlari sifatida ko'rib chiqadi.

Turkiy tillarning qarindoshlik terminlarini o'rganishda I.Ismoilovning "Turkiy tillarda qarindoshlik terminlari" nomli monografiyasi muhim rol o'ynaydi. Tadqiq uch qismdan iborat: 1) qarindoshlik atamaları (*ona, ota, o'g'il, qiz, aka//og'a, ini, opa, singil, qarindosh, buva, amaki, jiyan, nevara*); 2) nikoh munosabatlari orqali bo'luvchi qarindoshlik atamaları (*er, xotin, kuyov, kelin, yanga, pochcha, boja, ovsin, boldiz, qayin, quda, o'gay*); 3) urug'-aymoq va yaqinlik munosabatlari nomlari (*qarindosh bolalar, xolavachcha, amnavachcha, amakivachcha, tog'avachcha*). Ilgari surilgan fikrlarni isbotlash uchun tahlil jarayonida I.Ismoilov ko'plab turkiy tillardan, xususan, o'zbek, uyg'ur, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq va turkman tillaridan tegishli misollarni keltiradi. Monografiyada qayd etilishicha: "O'zbek va uyg'ur tillaridagi qarindoshlik terminlarining o'rganilishi nolingvistik xarakterga ega". Bu nuqtai nazarni M.Sh.Saidova qo'llab-quvvatlaydi, u "qarindoshlik terminlarini o'rganish, avvalo, etnografik xarakterga ega hisoblanadi", deb yozadi. Bu tezis olim tomonidan o'zbek tilining Namangan lahjalari etimologiyasi va qarindoshlik terminlarini shakllantirish va rivojlantirish yo'llarini aniqlashga bag'ishlangan "Namangan lahjalarining qarindoshlik

³⁷ Ismoilov I. Turkiy tillarda to'ng'ich, kenja, egizak so'zlari // "O'zbek tili va adabiyoti". – Toshkent, 1975. – № 2. – B.11.

³⁸ Покровская А.А. Термины родства в тюркских языках // В кн. Историческое развитие лексики тюркских языков. – М.: Изд-во АН СССР, 1961. – С. 11-18.

terminlarini leksik-semantik tahlil qilish” nomli dissertatsiyasida o'z ifodasini topgan.

M.Sh.Saidova ishida qadim zamonlardan to hozirgi kunga qadar aniqlangan qarindoshlik terminlarini shakllantirishning tarixiy yo'llari ochib berilgan, ularning fonetik, morfologik, semantik o'zgarishlari tahlil qilingan.

Tadqiqot ikki bobdan iborat. Birinchi bobda (nikohgacha munosabatlardan kelib chiquvchi qarindoshlik atamalarining etimologiyasi) “ota”, “ona”, “bobo”, “buvi”, “opa-singil”, “aka” kabi qarindoshlik terminlari tahlil qilinadi. Ikkinchi bobda (nikohdan keyingi munosabatlar orqali qarindoshlik terminlari etimologiyasi) “xotin”, “ovsin”, “yazna”, “boja”, “kelin”, “uda” (*bir yil ichida tug'ilgan bolalar*), “ini” kabi qarindoshlik terminlarining etimologik xususiyatlari tahlil qilinadi.

M.Sh.Saidovanning xulosasi quyidagicha: “Qarindoshlik terminlari lug'at fondining ajralmas qismi bo'lib, til leksikasida muhim o'rinni egallaydi”³⁹.

A.Ishaev maqolasida o'zbek tilining 723 ta qarindoshlik terminlarini ko'rib chiqilgan. Bunday nomlarning ko'p sonli miqdori har bir invariant (qarindoshlik atamasi) o'zbek tilining alohida lahjalariga xos ko'plab leksik va fonetik variantlarga ega ekanligi bilan izohlanadi. Ta'kidlash joizki, maqolada qarindoshlik terminlari bilan bog'liq bo'lmagan sheva birliklari ham mavjud. Masalan, *hey*: 1) *xorazmcha* – *erning xotinga murojaati*; 2) *xivacha* – *xotinning erga murojaati*; *yoki*: *xeyboyuunse* (*yuqori Qashqadaryo*) – “*tengdosh*”, “*tenqur*”; *hemkur* (*qarluq*) – “*tengdosh*” va hokazo⁴⁰.

Qayd etish kerakki, bu ishlar tadqiqot metodiga oid an'anaviy xarakterga ega. Qiyosiy-tarixiy metod yordamida yozilgan bu ishlarda ko'rib chiqilayotgan atamalarning o'ziga xos sistem xususiyatlariga doir materiallar mavjud emas.

³⁹ Saidova M.SH. Namangan shevalaridagi qarindoshlik terminlarining leksik-semantik tahlili:NDA. – Toshkent, 1995. – B. 3-4.

⁴⁰ Ishaev A. O'zbek shevalaridagi qarindoshlik terminlari // Vkn. O'zbek xalq shevalari lug'ati. –Toshkent: Fan, 1971. –S. 354.

Bundan tashqari, qarindoshlik terminlari tizimli metod asosida ko'rib chiqilgan ishlar ham mavjud bo'lib, ular sirasiga G.G.Jafarov va M.Narzievaning ishlarini kiritish mumkin.

Qarindoshlik terminlarining sistem xususiyatlari barcha terminlarning bir-biri bilan ma'lum munosabatlar orqali bog'langanligi bilan xarakterlanadi. “Qarindoshlik terminlari uchun umumiy jihat – har biri munosabat ifodalaydi. Munosabat – ikki narsani bir-biriga qiyoslash yoki ko'rib chiqish va shu qiyoslash asosida nomni bir yoki har ikkisiga, ba'zan munosabatning o'ziga ham belgilash usulidir”⁴¹.

G.G.Jafarov A.I.Moiseevning kuzatuviga asoslanib, qarindoshlik atamalari o'rtasidagi uchta bog'liqlikni ko'rsatadi: 1) qarama-qarshi nisbiylik-bog'lanish; 2) umumiy (yoki bilvosita) bog'lanish; 3) izchil (yoki numerativ) bog'lanish⁴².

Qarama-qarshi bog'lanish doirasida qarindoshlik terminlari tafovut asosida ular tomonidan ifodalangan qarindoshlik darajalari, qarindoshlikning mutanosib asoslarining diametral teskarisi bilan birgalikda qiyoslanadi va zidlanadi: “*ota-o'g'il*”, “*ona-qiz*”, “*kelin-qaynona*” va hokazo.

Umumiy (bilvosita) bog'lanish doirasida bir-birini to'ldiruvchi qarindoshlik terminlari ko'rib chiqiladi, bir holat mustasno (“er va xotin” atamasi).

Ketma-ket (chiziqli) bog'lanish doirasida xronologik kesimga nisbatan bir-biridan farq qiluvchi qarindoshlik terminlari (ota – bobo // otaning otasi-katta bobo // boboning otasi) qiyoslanadi va zidlanadi. Ta'kidlanishicha, nisbiylikning bu turi, aslida, chiziqli xarakterga ega ekanligi uchun o'zaro bog'lanish hosil qilmaydi.

M.Narzievaning “O'zbek tilining qarindoshlik terminlari” maqolasida bu terminlar ikki guruhga bo'linadi:

- 1) qarindoshlik atamalari;
- 2) nikohdan keyin vujudga kelgan qarindoshlik atamalari.

Tarkibiy xususiyatlariga ko'ra ular ikki xil ko'rinishga ega:

- 1) **oddiy** (tub): *opa, qiz, aka, jiyan, tog'a, nevara, bobo, buvi* va hokazo;

⁴¹ Djafarov G.G. Termini rodstva v semanticheskoy sisteme i grammaticheskoy strukture yazika // ST, 1974. № 3. – S. 22.

⁴² Djafarov G.G. O'sha manba. –B. 22-32..

2) **qo'shma** (murakkab): *amakivachcha, qayinona, katta buvi, o'gay o'g'il* va *hokazo*⁴³.

Barcha qarindoshlik atamalari “men”ga munosabati asosida tahlil qilinadi.

“Men”ga nisbatan qarindoshlik atamalari quyidagicha tasniflanadi:

1) mendan katta: *ota, ona, bobo, buvi, aka, opa*;

2) mendan kichkina: *o'g'il, qiz, uka, singil, jiyan, nevara, evara, chevara*;

3) neytral (“men”ga nisbatan): *tog'a, xola, amaki, amma*. Shu bilan birga, ayrim hollarda qarindoshlikni ifodalovchi *tog'a, amaki, amma* atamalari bilan belgilanadigan shaxslar sub'ekt – so'zlovchidan (men) katta yoki kichik bo'lishi mumkinligi, ya'ni diz'yunktsiya hodisasi yuz berishi qayd etildi.

O'zbek tilining naslga nisbatan qarindoshlik terminlari birinchi, ikkinchi va uchinchi; tabiiy jinsga nisbatan uchga: erkak, ayol, neytral jinsga bo'linadi.

Ota, ona, aka, opa, uka, singil, o'g'il, qiz tipidagi qarindoshlik terminlari bevosita qarindoshlik darajasiga nisbatan to'g'ridan-to'g'ri ifodalanadi; *bobo, buvi, tog'a, jiyan, amaki, nevara, evara, chevara* – bilvosita.

Qarindoshlik terminlarining semantik strukturasining ayrim belgilari (semalari) universal xarakterga ega. Masalan, “erkak jinsidagi odam” semasi (belgi) *ota, bobo, aka, uka//ini, tog'a, amaki* va boshqa qarindoshlik terminlarining semantik strukturalari uchun; shu singari “ayol jinsidagi odam” semasi – *ona, buvi, opa, singil, xola, amma* va boshqa qarindoshlik terminlarining semantik strukturalari uchun ustun sanaladi.

Yillar bo'yicha ulug'lik differensiatsiyasi ona qarindoshligida butunlay yo'q, biroq unda avlod bo'yicha ulug'lik qat'iy kuzatiladi, bu esa o'z navbatida, ota qarindoshligida butunlay e'tibordan chetda qoladi. Misol uchun, ota tomondan qarindosh *amaki* – otaning ukasi yoshi jihatdan jiyanidan yoshroq bo'lishi mumkin, lekin jiyan uchun *amaki* hisoblanadi va, aksincha, u o'zining kichik ukasi deb atasa ham. *Tog'a* esa yoshidan qat'iy nazar bitta atamaga ega⁴⁴.

⁴³ Narzieva M. Qon-qarindoshlik nomlarining komponent tahlili // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1986. № 5. –S. 47–48.

⁴⁴ Narzieva M. Qon-qarindoshlik nomlarining komponent tahlili // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1986. № 5. –S. 47–48.

Qarindoshlik atamalarining terminologiya birliklariga – metatil xarakteridagi birliklarga munosabatini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Kishilarning qarindoshlik munosabatlari nomlari tilning ko'p funksiyali va polisemantik birliklaridan biridir. Ular, bizningcha, ilmiy ma'noda oddiy so'z va atamalar orasida o'rin egallaydi.

Ilmiy ma'nodagi atamalar kishilarning kasbiy-mehnat ehtiyojlariga xizmat qiluvchi ilmiy tushunchaga ega bo'lgan so'zlardir. Atamaning ma'nosi umumiste'moldagi so'zlarning ma'nolariga nisbatan qat'iy tushunchadir, ya'ni tushuncha haqida ma'lumot beradi, tushunchani ifodalaydi va tushunchani shakllantirishda ishtirok etadi. Termin leksik ma'nosining sof tushunchasi uni umumiste'mol so'zlariga xos ayrim sintagmatik va so'z yasovchi xususiyatlardan mahrum etadi.

Masalan, terminlarda bunday bog'lanishlar istisno qilinmasa-da, obrazli, xususan, metaforik ma'nolar yaratuvchi sintagmatik bog'lanishlarga erkin kirisha olmaydi. Odatda, atamalar sub'ektiv baho qo'shimchalarini o'z ichiga olmaydi hamda ekspressivlik va modallik ma'nosidagi yasama so'zlar hosil qilishda ishtirok etmaydi⁴⁵. Shu bilan bir qatorda, terminlar ilmiy nuqtai nazardan “adabiy leksikaning maxsus qatlamini tashkil etadi va tor ixtisoslik so'zlari terminlarga emas, balki umumiste'mol so'zlariga qarshi qo'yiladi»⁴⁶.

Ta'kidlash kerakki, qarindoshlik terminlari jonli xalq tilining maxsus leksik qatlamini tashkil qiladi, ular ilmiy tushunchada terminlarga nisbatan badiiy shaklda emas.

Ba'zi tadqiqotchilar (masalan, A.A.Reformatskiy) tilning terminologik tizimini ikki guruhga ajratadi:

1) nazariy terminlar;

2) nomenklatura terminlari yoki ilmiy terminlar bilan bevosita bog'liq bo'lgan narsalar nomlarini bildiruvchi nomenklatura. A.A.Reformatskiyning ta'rifiga ko'ra, “terminologiya ushbu fanning tushunchalar tizimiga bog'liq, nomenklatura esa

⁴⁵ Berdialiev A. “Podsho”likka chek qo'ygan “pochcha”lar - Xujand, 2018. – B.265-266.

⁴⁶ Beliy V.V. «Strukturnaya i semanticheskaya xarakteristika terminov v sovremennom russkom yazike»: AKD. –M., 1982, – S.118.

faqat uning ob'ektlarini belgilaydi”⁴⁷. Qarindoshlik terminlarining tabiati ikkinchi guruh terminlari sistemasiga o'xshaydi. Bu qarindoshlik atamalari va nomenklatura atamalarining bir-biridan farq qilmasligini anglatmaydi. Ular o'rtasidagi farq, birinchi navbatda, ularning ekspressiv va emotsional qo'llanishida kuzatiladi: nazariy va nomenklatura xarakteridagi atamalar uslubiy jihatdan qat'iy betaraftir.

Qarindoshlik terminlari, ular bilan solishtirganda badiiy, “nazariy” terminlardan farqli o'laroq, ham ekspressivlik, ham emotsional bo'yoqdorligi bilan tavsiflanishi mumkin (bolajon, xolajon va boshqalar). Qarindoshlik terminlarining xarakterli xususiyatlaridan biri ularning aksariyati ko'p ma'noli va polifunksionaldir. Masalan, turkiy tillardagi “*ata*” qarindoshlik atamasining ma'nosi Ye.V.Sevortyan lug'atida quyidagicha qayd etilgan:

- 1) ota, dada, amma, mening qaynonam, mening qaynotam, cho'qintirgan ota (chuv.);
- 2) ota tomondan bobo (turk.), bobo (turk.dial.), ajdod (qirg'., q.qalp. va boshq.), patriarx (kar.), chol, qariya;
- 3) ism bilan murojaat qilinganda keksa odamning nomiga qo'shiladi (turk., o'zb.), qariyaga muloyim murojaat (o'zb.), keksalarga murojaat (kul.), hurmatli, muhtaram (turk.dial.), katta yoshli ayolga murojaat (turk.dial.);
- 4) amaki (turk.dial.)
- 5) aka (turk.dial.), opa (turk.dial.);
- 6) erkak (no'g'., tat., boshq.)

Bundan tashqari, E.V.Sevortyan ataning ma'nolari tarkibida ulardan markaziylari patriarxal tartib bilan bog'liqligini qayd etadi: urug'da yoki oilada eng kattasi, ya'ni otasi – “*bobo*”.

Bu “erkak” ma'no tipi uchun xususan, no'g'ay, tatar va boshqird tillarida ifodalangan “nar” ma'nosi ham xarakterlidir.

Ayol liniyasida ota semantikasi (“ota”) tarixan ota tomondan bobo ma'nosini anglatishi bilan xarakterlanadi (aksincha – bobo “ona tomondan bobo”)⁴⁸.

⁴⁷ Reformatskiy A.A. Chto takoe termin i terminologiya // Voprosi terminologii (Materiali Vsesoyuznogo terminologicheskogo soveshaniya). – M.: Izd.AN SSSR, 1951. – S. 47.

⁴⁸ Sevortyan E.V. Etimologicheskii slovar` tyurkskix yazykov. Obshetyurkskie i mejtyurkskie osnovi

O'zbek tili leksikasida qarindoshlik terminlari sifatida nutqda qo'llanuvchi alohida so'zlar ham bor. Bu so'zlarning o'ziga xosligi ularning umumlashgan qarindoshlik tushunchasiga – «qarindosh» ma'nosiga ega ekanligi bilan xarakterlanadi. Qarindoshlik darajasi xususiyatiga ko'ra, ularni ikki guruhga ajratish mumkin: 1) “yaqin qarindoshlik”, 2) “uzoq qarindoshlik”.

Qarindoshlikning birinchi guruhiga quyidagilar kiradi: *zot, urug'*. Ikkinchi guruhga *tomir, taraf, yaqin, negiz, arqonning bir uchi* iboralashgan birikmalari kiradi.

Bu leksema (va frazemalar)larning o'ziga xos jihati shundaki, ular unutilish bosqichida bo'lgan aloqalarga nisbatan ishlatiladi. Bu so'zlarni ob'ekt-adresatga nisbatan ishlatib, gapiruvchi sub'ekt-adresant uning suhbatdoshi-adresatning ota yoki ona tomondan qarindoshi ekanligini bilmaydi.

Muloqotdagi ko'pchilik qarindoshlik terminlari murojaat sifatida ishlatiladi va suhbatdosh-adresantning so'zlovchi-adresantga nisbatan qarindosh yoki qarindosh emasligidan qat'iy nazar shu tartibda chaqiradi. «*Amaki, qaerga borayapsiz?*». O'zbek tilidagi *singil* so'zi murojaatda 1-shaxs-son qo'shimchasini oladi – *singlim*: «*Singlim, qaerda o'qiysan?*». O'zbek tilida o'g'il, qiz, bola va boshqa qarindoshlik atamalari 1-shaxsdagi egalik qo'shimchasini qabul qiladi: *qizim, o'g'lim, bolam* va hokazo.

Aka va *opa* kabi o'zbek tilidagi ba'zi qarindoshlik terminlari chaqiruv-undash vazifani bajaradi, bu jihatga B.Hasanov e'tibor qaratgan. Ular bilan katta qarindoshlar va hamyurtlarni atashgan. Hozirgi tilda ular o'z murabbiylariga, ustozlariga muloyim, hurmat bilan murojaat qilish shakli bo'lib xizmat qiladi. Aksariyat so'zlar murojaat ma'nosiga maxsus suffikslar yordamida ega bo'ladilar: *yeke, aka, ka, y, ya, ye, sh, s* va boshqalar⁴⁹.

Ayrim QT leksemalari, masalan, *bolakay* (*bola+kay*), *qizalok* (*qiz-alok*) murojaat funksiyasini bajarishi mumkin. Ulardan foydalanish ijtimoiy jihatdan cheklangan, chunki bu faqat bolalarga murojaat qilish shakli. Kattalarning bir-

na glasnie. – M.: Nauka, 1974. – S. 206.

⁴⁹ O'zbek tilining izohli lug'ati. –M., 1980. T. I-II. – S. 211–214.

biriga *bolakay*, *qizaloq* so'zlari bilan murojaat qilishi betakalluflik yoki kinoya bo'yog'ini kasb etadi. Bu jihat *singlim* – erkak kishining qizlarga singlim ma'nosidagi murojaati, *qizim* – keksa odamning yosh ayolga nisbatan murojaati, *onasi* – urning o'z xotiniga murojaati, *otasi* – *dadasi* – xotinning eriga murojaati, *bobosi* – buvining o'z eriga, nevaralariga nisbatan bobosiga murojaati, *buvisi* – boboning o'z xotiniga, nevaralarga nisbatan buvisiga murojaati va h.k. so'z-atamaları uchun ham xos.

Ingliz tilida urning xotiniga, xotinning eriga murojaat qilishning boshqa tizimi kuzatiladi. Inglizlar turli birikmalardan keng foydalanadilar, masalan: *My honey*, *My sweet*, *My dear*.

Bundan tashqari, ingliz tilida ayolning oilaviy holati juda qat'iy farqlanadi, turmush qurmagan ayolga *Miss* deb murojaat qilinsa, turmush qurgan ayolga *Mistress* deb murojaat qilinadi.

1.2. Qarindoshlik va yaqinlik ma'nolari tizimining mazmun rejasi

Tilshunoslik fanida o'z yechimlarini kutayotgan tushunchalar hali juda ko'p. Ulardan biri suppletivizm tushunchasidir. Bu masalani o'rganishga bag'ishlangan ishlarda suppletivizm Hind-Yevropa tillaridan olingan materiallar asosida ko'rib chiqiladi.

Turkiy tillar asosida suppletivizmning mavjudligi va qay tartibda amal qilishi o'rganilmagan. Bundan tashqari, suppletivizm tadqiqiga oid ishlarda faqat so'z o'zgartirish tizimiga nisbatan, ya'ni morfologik sathda ko'rib chiqilgan.

A.A.Gorbachevskiy haqli ravishda “suppletiv shakllarning tilda kelib chiqishi, yuzaga kelish usullari keng qamrovda maxsus tadqiqot predmeti bo'lgan emas edi. Turli mualliflar ushbu masalaning u yoki bu jihatlariga to'xtalib, “grammatik”, “leksik” yoki “fonetik” suppletivlarning kelib chiqishi muammosiga to'xtalganlar. Biroq bu masalaning qo'yilishi, odatda, noto'liq edi”⁵⁰.

⁵⁰ Gorbachevskiy A.A. K voprosu o putyax vozniknoveniya suppletivnix form v slavyanskix yazikax. – Dushanbe, 1967. – S.5.

Ta'kidlash lozimki, suppletivizm tor va keng ifodalarni qo'llash uchun ishlatiladi, bu bilan esa uning murakkab lingvistik xarakteri belgilanadi. Tor ma'noda suppletivizm so'z o'zgartirish, ya'ni morfologiya bilan cheklanadi, keng ma'noda esa uning tarkibiga sinonimiya va antonimiya tizimlari ham kiradi. Suppletivizm professor A.A.Reformatskiy tomonidan shunday talqin qilinadi. Uning ta'kidlashicha, suppletivizm “turli asosli so'zlar yoki turli ildizlardan hosil qilingan so'zlarni bir grammatik shaklga birlashtirganda namoyon bo'ladi. Ildizlar yoki asoslar farqlanganda so'zlarning leksik ma'nosi o'zgarmaydi, “turli so'zlar” esa faqat grammatik ma'nolarni farqlashning grammatik usuli bo'lib, *suppletivizm* deb ataladi”.

Suppletivizmning bunday keng talqiniga muvofiq, A.A.Reformatskiy suppletivizm-o'zak hamda suppletivizm-asosni alohida guruhlariga ajratadi. Birinchi guruhga: *chelovek — lyudi (odam — insonlar), rebyonok — deti (bola — bolalar)*; ikkinchisiga esa *kozyol — koza (taka/echki), prodavets — prodavshitsa (sotuvchi erkak/sotuvchi ayol)* va boshqalar taalluqli. Shunday qilib, “suppletivizm” atamasi A. A. Reformatkiyda kamida ikki jihatga ega bo'ladi: a) tuslanishda so'zlarning turli ildizlardan hosil bo'lgan so'z shakllardan foydalana olish qobiliyati; b) tuslanishda so'zlarning turli asoslardan hosil bo'lgan so'z shakllardan foydalana olish qobiliyati⁵¹.

V.M.Solntsev va L.S.Barxudarov kabi olimlarning nuqtai nazarlari A.A.Reformatskiyning suppletivizm borasidagi fikrlariga mutanosib keladi. V.M.Solntsevning ta'kidlashicha, ba'zi hollarda ular bir xil ma'noli affiksalar xarakterdagi turli fonetik shakllar (uning nomlashi bo'yicha: sonemalar K.V.) bilan ifodalanishi mumkin⁵².

Tilda suppletiv shakllarning paydo bo'lishi va qo'llanilishi til belgilarining mazmun plani bilan bog'liq bo'lgan tabiiy hodisadir. Bir xil mazmunni turli ikki belgining biri yordamida ifodalash qobiliyati suppletivlar orqali amalga oshiriladi. Tabiiyki, tilda sinonimiya, antonimiya va giponimiya hodisalarining mavjudligi

⁵¹ Reformatskiy A.A. Chto takoe termin i terminologiya // Voprosi terminologii (Materiali Vsesoyuznogo terminologicheskogo soveshaniya). – M.: Izd.AN SSSR, 1951. – S. 4-61.

⁵² Солнцев В.М. Язык как системно-структурное образование. – М., 1977. – С.40-41.

tilning leksik sathi suppletivlari bilan, shubhasiz, bog'liqdir. Fonetik jihatdan turlicha tuzilgan so'z-shakllar invariant til birliklaridan biri doirasida o'zining real funktsional-semantik variantlari sifatida birikadi. Fonetik jihatdan turlicha tuzilgan birliklar tilda rus tilidagi *idu-shel* (*boryapman — o'tdim*), *chelovek-lyudi* (*odam — insonlar*), *xorosho-luchshe* (*yaxshi — yanayam yaxshi*) va hokazolar kabi suppletiv tur yoki alternantlar sifatida yashaydi⁵³.

Suppletivizm va suppletivlar faoliyati hajmi R.A. Budagov tomonidan yanada kengroq o'rganilgan. Uning yozishicha, "...ularning ayrimlari turli ildizlarning keyingi o'xshashligi natijasida emas (konvergenstsiya), balki dastlabki yagona ildizning keyingi tafovutiga (divergentsiya) bog'liq bo'lgan fonetik o'zgarishlar natijasi hisoblanadi. Suppletivlar yoki suppletiv hosilalar nafaqat qiyoslash bosqichida, balki kelishik shaklini hosil qilishda (*ya — menya* (*men — menga*), jinsga ko'ra cheklashda (*mujchina — jenshina* (*erkak — ayol*), soniga ko'ra (*chelovek — lyudi* (*odam — insonlar*), zamonga ko'ra (*idu — shel* (*boryapman — o'tdim*) va boshqa hollarda namoyon bo'ladi"⁵⁴.

V.V. Lopatin tadqiqotlarida esa suppletivizm umumiy ildizga ega turli shakllarning mikrotizimi sifatida qaraladi. Bunday xarakterli suppletivlarning ildiz morfemalari fonetik tuzilishi jihatidan bir-biridan farq qiladi. Suppletiv mikrosistemaning korrelyativ a'zolari bitta invariant morfemaning allomorflari sanalmaydi. V.V. Lopatin suppletiv juftlik uchun misol sifatida rus tilida an'anaviy daraja kasb etgan *rebyonok — deti*, *chelovek — lyudi* shaklidagi leksik korrelyatlarni keltiradi⁵⁵. Bu nuqtai nazar 1990 yildagi "Rus tili grammatikasi"da yanada mustahkamlangan⁵⁶.

O.S. Axmanova suppletivizmni bir xil leksemaning turli so'z-shakllari (masalan, *idu-shel*, *xorosho-luchshe*, *ya-menya*) sifatida tavsiflaydi, ular ildizlarning noo'xshashligiga nisbatan bir-biridan farq qiladi. U suppletivizm geterokliziya (turli xarakterdagi turlanish) va geteroklitika (har xil tipdagi otlarning

⁵³ Solntsev V.M. O'sha manba. — B.238.

⁵⁴ Budagov R.A. Istoriya slov v istorii obshestva. — M.: Prosveshchenie, 1971. — S. 5-298.

⁵⁵ Lopatin V.M. Suppletivizm // Russkiy yazik. — M., 1969. — 340.

⁵⁶ Potebnya A. A Iz zapisok po russkoy grammatike. T. IV. — M. — L., 1941. — S. 130-503.

turlanishi) hodisalari bilan bir xil (o'xshash) darajada ekanligini qayd etadi⁵⁷. Suppletivizmning shunga o'xshash ta'rifi D.E.Rozental va M.A.Telenkova tomonidan "Lug'at-ma'lumotnoma"da berilgan, unda suppletivizm "turli ildizlar yoki asoslardan tashkil topgan bir so'zning shakllari: *chelovek-lyudi, brat`-vzyat`, govorit`-skazat`, lovit`-poymat`, xoroshiy-luchshe, ploxoy-xuje, mnogo-bol`she, malo-men`she, ya-menya`*", deya tavsiflanadi⁵⁸.

V.G.Admonining fikricha, suppletivizm so'zlarning grammatik shakllarining bir xil darajasiga tegishli bo'lgan turli ildizli so'z-shakllarining oppozitsion munosabatlarining natijasidir. Bu xarakterdagi oppozitsion munosabatlarning a'zolari (tarkibiy qismlari, korrelyatlari) o'ziga xos farqlar bilan grammatik jihatdan bir-birini to'ldiradi. Oppozitsiya a'zolari (korrelyatsiyalar)dagi farqlar yordamida til grammatik tizimining ayrim qismlari to'ldiriladi.

Suppletivizm leksemalarni umumiy grammatik ma'no bilan birlashtiruvchi gap a'zolari tizimini ham o'z ichiga oladi. Qayd etilishicha, gap a'zolari kategoriyasining sistematik tabiati tilda suppletivizm hodisasining mavjudligi va faoliyat ko'rsatishi bilan belgilanadi⁵⁹.

G'arb olimlari, masalan, O.Yespersen, SH.Balli va boshqalarning asarlarida, suppletivizm so'z yasaliishi tizimida ham ko'rib chiqiladi, bu D.Apresyan⁶⁰ va V.P.Konetskaya⁶¹ singari alohida rus tilshunoslari tadqiqotlari uchun ham xos.

YU.D.Apresyanning fikricha, suppletivizm so'z yasaliishining o'ziga xos usullaridan biri bo'lib, uning affiksali usuli bilan o'xshashliklarga ega. Qayd etilishicha, yasovchi asos va yasovchi vositalar o'rtasidagi bog'liqlik yasama so'zlarning tuzilish modeliga asoslangan bo'lib, ularning ildizlari yasovchi va yasama so'zlar uchun umumiydir⁶².

⁵⁷ Axmanova O.S. Slovar` lingvisticheskix terminov. – M., 1966. – S. 97-98.

⁵⁸ Rozental` D.E., Telenkova M.A. Slovar`-spravochnik lingvisticheskix terminov. –M.: Prosveshение, 1976. – S.210-476.

⁵⁹ Адмони В.Г. Грамматический строй как система построения и общая теория грамматики. – М., 1988.–С.91-92.

⁶⁰ Апресян Ю.Д. О понятиях и методах структурной лексикологии (на материале русского глагола) // Проблемы структурной лингвистики. – М., 1962.

⁶¹ Конецкая В.П. Супплетивизм в германских языках. – М.: Наука, 1973.

⁶² Апресян Ю.Д. О понятиях и методах структурной лексикологии (на материале русского глагола) // Проблемы структурной лингвистики. – М., 1962.

Qarindoshlik terminlari kabi suppletivizm hodisasi til taraqqiyotining dastlabki bosqichlariga taalluqlidir. V.P.Konetskayaning fikricha, bu nomlar patriarxal katta oilada qarindoshlikning eng xilma-xil darajalarini ajratib ko'rsatish muhim bo'lgan majusiy tuzum davriga borib taqaladi va so'zlovchilar ongida bu so'zlar hech qanday grammatik tizimda ifodalanmagan⁶³. Uning fikricha, ayrim otlarning suppletivizm-qarindoshlik terminlari hind-yevropa tillari jamoasi davriga borib taqaladi, chunki otlarning ma'nolaridagi etimologik parallellar va *otets – mat` (ota – ona), sin – doch` (o'g'il – qiz), mat` – sestra (ona – singil)* ma'nolari bundan dalolat beradi. Got tili bundan istisno bo'lib, unda “ota” ma'nosidagi ot faqat vokativ *fadar* shaklida ifodalangan, suppletiv qator boshqa tillarda etimologik so'zlarga ega bo'lgan *father «otets», mother «mat`»* otlari bilan hosil qilingan. Bu holatda, albatta, jins xususiyatlariga asoslangan korellyatsiya mavjud. V.P.Konetskayaning fikricha, qarindoshlik nomlarining suppletivlik sabablari turli lingvistik omillarga bog'liq: sinonimlarning raqobati, turli ildizli so'zlarning semantik attraktsiyasi, so'zlarning semantik va fonetik o'zgarishlari⁶⁴.

Suppletivlar nominatsiya jarayonining leksik paradigmaları tizimida muhim rol o'ynaydi, bu uning leksik-so'z yasash darajasining lingvistik tabiati bilan ham asoslanadi. YU.D.Apresyaning qarashlari turkiy tillarning faktlarida ham o'z isbotini topadi. Masalan, leksik sathdagi suppletivlarga o'zbek tilidagi *ota va ona; er va xotin hamda buvi va bobo; ona va bola* va boshqa so'z-giponimlari kiradi, ular alohida leksik-semantik mikrosistemalarning korrelyativ a'zolari bo'lib, “tabiiy jins farqlari” semasiga nisbatan bir-biridan farq qiladi.

Ota va bola, aka va uka, opa va singil, tog'a va jiyan va boshqa suppletiv juftliklarda mikrosistema (yoki mikroparadigmalar: termin biz tomonimizdan taklif etildi – V.K.)ning korrelyativ a'zolari bir-biridan “yosh farqi” semasiga nisbatan farqlanadi.

“Tabiiy jins” semasining farqlanishi *ota va ona, aka va opa, aka va singil* hamda boshqa mikrosistema (mikroparadigma)sining korrelyativ a'zolariga ham xos.

⁶³ Konetskaya V.P. Suppletivizm v germanskix yazikax. – M.: Nauka, 1973. – S.76.

⁶⁴ Konetskaya V.P. Suppletivizm v germanskix yazikax. – M.: Nauka, 1973. – S. 103.

Bundan tashqari, *ota va ona, aka va uka, opa va singil, tog'a va jiyan* hamda boshqa suppletiv paradigmalarining korrelyativ a'zolari o'rtasida geteronimik munosabatlar ham ishlaydi.

Geteronimiya hodisasi bevosita *ota-ona, er-xotin, ota-bola, opa-singil, aka-uka* va boshqa shu kabi funktsional-semantik mikrosistema (paradigma) korrelyativ a'zolarining semantik strukturasidagi kategorial va differentsial xususiyatlarning o'zaro bir-birini taqozo qiluvchi tizim munosabatlariga kirish uchun turli ildizli birliklar uyushmasidir.

Geteronimik munosabatlarning faoliyati tufayli tilda juft so'zlar hosil bo'ladi, korrelyativ a'zolari leksik suppletiv xarakteriga ega bo'lgan *ota-ona, ota-bobo, ota-bola, ona-bola, opa-singil, og'a-ini, aka-singil, tog'a–jiyan* kabi turkiy tillardagi qarindoshlik atamaları tizimida ham ko'p uchraydi.

Misollarimiz tabiatidan ko'rinib turibdiki, leksik suppletivlar turli ildizli leksemalarning assotsiativ o'zaro bog'liqligi (munosabati)dan kelib chiqadi. Ular (suppletivlar) tilning qaysi sathlarida joylashganligidan qat'iy nazar muhim qonuniy hodisadir.

Leksik tizimdagi suppletiv munosabatlarning ahamiyati M.Ya.Blox tomonidan ham qayd etib o'tilgan. Uning yozishicha, “leksik nomlash paradigmasi doirasida suppletivizmning roli o'ta muhim, chunki suppletivizmning bu turi leksikaning ma'noviy qismi ochiqqligida muhim omillardan biri hisoblanadi”⁶⁵.

Leksik sath suppletivizmi, asosan, ma'noga mantiqiy-assotsiativ yondashuv zarur bo'lganda yuzaga keladi. Bu jarayonda ifoda (ya'ni leksema) birligiga emas, balki tilning mazmun (ya'ni semema) birligiga e'tibor qaratiladi. So'z va uning ma'nosi rivojlanishi simmetrik va muntazam ravishda amalga oshmaydi.

Lug'aviy suppletivizm leksik assotsiatsiya yoki leksik guruh ixtiyorida bo'ladi. Leksik assotsiatsiya (yoki leksik guruh) tushunchasi tarixan Aristotel nomi bilan bog'lanadi. Keyinchalik, ya'ni XX asrda bu masala mutaxassis-olimlarning diqqat

⁶⁵ Blox M.YA. Teoreticheskie osnovi grammatiki.– M., 1986. – S.79.

markazida bo'ldi. Jumladan, AQSH va Germaniyada leksik assotsiatsiya (leksik guruh) bilan vrachlar hamda psixologlar shug'ullanganlar⁶⁶.

Yuqorida tilga olingan lisoniy manbalarning xarakteridan ko'rinadiki, tushunchalar o'rtasidagi sezilarli farqqa qaramay, leksik suppletivlar giponim hodisasi bilan yaqin o'xshashlikka ega. Leksik suppletivlar va giponimlar o'rtasidagi o'xshashlik leksik sath suppletivlari ham, giponimlar ham bir xil leksema ichida faoliyat ko'rsatishi bilan, ya'ni ular bir leksema bir-biriga mos kelishi bilan izohlanadi. Qiyoslang: *ota* va *ona*, *aka* va *uka* va h.k. leksemalari bir-biriga nisbatan xuddi suppletivlar (sogiponimlar) singari ishlovchi giponimlardir. Leksik suppletivlar va giponimlar o'rtasidagi farq shundaki, giponimlardagi mantiqiy-assotsiativ aloqalar leksik suppletivlardagi mantiqiy-assotsiativ aloqaga nisbatan kuchsizroqdir.

Giponimlar muayyan giperonimning paradigma (mikrosistema) a'zolaridan biri sifatida namoyon bo'luvchi turli so'zlarning arxisemasi asosida birikadi. Chunonchi, *bola*, *qiz* so'z-leksemalari farzand giperonimining; “*ota*”, “*ona*” – “*oila*” giperonimining; “*aka*”, “*uka*” – “*og'a-ini*” giperonimining; “*opa*”, “*singil*” – “*opa-singil*” va h.k. giperonimlarining giponimlari hisoblanadi.

Ushbu tadqiqotning faktik materiallarida aynan bir so'z korrelyativ a'zo sifatida bir nechta suppletiv juftliklarda ishtirok etishi mumkin. Shunday qilib, korrelyativ a'zo vazifasidagi “*ota*” so'zi uchta suppletiv paradigmada ishtirok etadi:

- 1) *ota-bobo*;
- 2) *ota-ona*;
- 3) *ota-bola*.

Leksik sath suppletivlari so'zlarning ko'chma ma'nolari tufayli ham hosil bo'ladi. *Ota-ona* va *davlat* (aynan mamlakat, hokimiyat) suppletiv juftliklarida («*davlat//vlast*» – “*boylik*” ma'nosida), *farzand* va *qanot* (tom ma'noda “*qanot//krilya*”), *farzand* va *tirnoq* (tom ma'noda: “*tirnoq//nogti*”) va hokazo. Bu mikroparadigmalarda davlatning korrelyativ a'zolari «*ota-ona*» (roditeli) ma'nosida, *qanot* va *tirnoq* esa “*bolalar*” ma'nosida ishlatilgan.

⁶⁶ Lopatin V.M. Suppletivizm // Russkiy yazik. – M., 1969

Qarindoshlik va yaqinlik ma'nolari tizimi mantiqiy-lisoniy kategoriya sifatida geterogenlik xarakterga ega. Qarindoshlik va yaqinlik ma'nolari tizimi geterogenlik mantiqiy-lisoniy kategoriyaning bir nechta kichik turlarga ega ekanligi bilan tavsiflanadi, masalan, erkak jinsidagi qarindoshlik tizimi, ayol jinsidagi qarindoshlik tizimi, umumjinsdagi qarindoshlar tizimi, ularning har biri gomogen xususiyatga ega.

Ushbu dissertatsiya ishining ob'ekti o'zbek, ingliz tillaridagi ayol jinsidagi qarindoshlik va yaqinlik atamalarining tarkibiy qismini mantiqiy-lisoniy kategoriya sifatida, o'zbek va ingliz tillaridagi qarindoshlik hamda yaqinlik birliklari tarkibiy qismining leksik xususiyatlarini tizimli o'rganishdir. Bizga ma'lumki, bu tillar turli tillar oilasiga mansubdir.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ma'nolar va ularning denotativ asoslari milliy, umumxalq bo'lib, ularni ifodalash vositalarida farq qiladi, ya'ni, pertseptual-fonetik. Nafaqat o'zbek va ingliz tillarida qarindoshlik va yaqinlik atamaları ma'nolar farq qiladi, balki ob'ektiv voqelikning boshqa hodisalari ham turli ma'noga ega. Axir, ma'nolar mantiq toifaga tegishli: hodisalar va mantiq kategoriyalari umummilliy, umumbashariydir.

1- BOB. “QON-QARINDOSHLIK TERMINLARINING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI”

Bu bobda nikohgacha paydo bo'lgan qarindoshlik terminlari tahlil qilindi.

Qon-qarindoshlik terminlari tizimiga bobo, momo, ota-ona va ularning atrofidagi avlodlari, farzandlar va ularning farzandlarini anglatuvchi terminlar kiritildi.

Har bir tilning leksik qatlami uning fonetik va morfologik qurilishiga nisbatan o'zgaruvchan bo'lib, asrlar osha har bir davrga xos o'zgarishlarni o'zida aks ettira boradi. Lekin qarindoshlik terminlari leksikaning boshqa terminlariga nisbatan turg'un va konservativ bo'lib, ma'nodagi siljishlar/ torayish, kengayish/ni hisobga olmaganda yaratilgan davrdagi shakllarini deyarli saqlab qolgan.

Turkolog olimlarning tadqiqot natijalariga ko'ra, ibtidoiy jamiyatning dastlabki bosqichlarida qarindoshlik terminlari umumiy tushuncha (katta, ulug', buyuk ayol yoki erkakligini farqlamay) ma'nosini ifodalab, so'ng hayot taraqqiyotining ma'lum davrlaridan so'ng ular differensiyalasha borgan. Qarindoshlik terminlarining umumiylikdan xususiylikka qarab bo'lgan harakati Namangan shevalari materiallarida ham o'z ifodasini topgan.

OTA.Namangan shevalarida ota termini o'zbek adabiy tili va uning shevalarida bo'lganidek, boshqa turkiy tillarda ham keng qo'llanuvchi ota terminidan anglatgan ma'nosi farq qilmagan holda, fonetik farqi bilan ajralib turadi. Hozirgi turkiy tillarning ko'pchiligida bosh unli ham so'nggi unli ham qadimgi turkiy (a) bilan *ata* deb talaffuz etiladi. Oltoy, hakas, tuva tillarida esa [t d] jaranglashgan *ada* varianti bilan ishlatiladi.

Qadimgi turkiy talaffuz variantini saqlagan turkiy tillarda *ata* termini yozma yodgorliklarda qayt qilingan *ata* termini bilan ham fonetik, ham semantik jihatdan mos keladi. Jumladan, Mahmud Qoshg'ariyning “Devon” ida *ata* va jaranglashgan *ada* varianti ishlatiladi.

Etimologiyaga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlarda *ata*, *dada* qarindoshlik terminlari haqida turli xil fikr-mulohazalar bayon qilingan. Jumladan, M.Ryasenin *ata*, *dada* terminlarini bolalar so'zidan olingan, - deydi. K.G. Myanges ham shu

fikrni quvvatlaydi. Dj.Klosson uni taqlidiy soʻz deydi. E.V. Svertiyani esa *ata, dada* terminlarini lobnor, uygʻur va ozarbayjon tillariga fors tilidan qabul qilingan boʻlishi kerak, deb taxmin qilgani holda, uning genezisi boshqa qarindoshlik terminlariga oʻxshab noaniq, degan xulosa keladi.

Masalaning muhim tomoni shundaki, *tata – ota* maʼnosida Malayya tili tizimiga kiruvchi Afrika tillari bazasida jaranglashgan *tata – dada* varianti yuzaga keladi. Ota, dada qarindoshlik termini sifatida turkiy tillar va ularning shevalarida jaranglashgan (*dada, doda, dede, dide kabi*) va jarangsiz (*tata, tate, atta, atiy*) variantlari mavjudligi fikrimizning isboti boʻla oladi. Shuni ham alohida taʼkidlash kerakki, hozirgi kun nuqtai nazardan qaralsa, *dada/ katta doda/* termini anglatgan maʼnoda katta maʼnosi yoʻqdek tuyuladi. Aslida oʻzbek tilida *ta // da* soʻzlari katta maʼnosini anglatish hodisasi hozir ham mavjud: *da ashqazan d/a/shqazan, taagʻara > t [a] gʻara*. Hatto Surxondaryo shevalarida uning jaranglashmagan *ta* varianti ham saqlanib qolgan: tasandiq- katta sandiq.

Demak *ata, ada, dada* variantlari bilan *to//ta* soʻzi asosida yaratilgan. Tarixan *to// ta* soʻzi qarindoshlik munosabatini ifodalamay, katta, ulugʻ, buyuk maʼnolarini anglatgan va yillar osha qarindoshlik termini maqomini kasb etgan.

ONA. Turkiy tillar qarindoshlik sistemasida umuman oʻzbek tili va uning shevalarida ona termini *ana /мать /* va *ana /mama/* maʼnosida keng qoʻllaniladi. Ana termini fonetik qurilishi va anglatgan maʼnosiga koʻra qadimgi yozma yodgorliklarda qayd qilingan ana terminiga mos keladi. Lekin, turkiy tillar va uning sheva xususiyatlariga koʻra, uning turli xil variantlari yuzaga kelgan. Oltoy, Qozoq, qoraqalpoq, qirgʻiz, tuva tillarida *ene*; Volga boʻyi turklari tillarida *eni, enne, enkey, inyee, eney, anna*; hakasyoqut tillarida; *ine, iney va iye* kabi variantlar amal qiladi. Namangan shevalarida uning *ona, ana, enke, ene, buva, ebe, aye* shakllari ishlatiladi.

Ona terminining etimologiyasi va genezisi haqida turli fikrlar bayon qilingan. S.V. Sevortyan ana terminining 8 xil maʼno anglatib, ana maʼnosini ifodalashi asosiy rol oʻynaydi, - deydi. U ana terminining etimologiyasi haqida konkret fikr bayon qilinmasada, boshqa turkologlarning fikr –mulohazalariga oʻz

munosabatini bildiradi. Jumladan G. Vamberi ana terminining asosida an, am, en, em o'zaklari yotadi, ular esa *emme*, *immek*- *sosat*; *ana-mat*, *eno- mat*, *eneke-matushka* so'zlaridagi o'zaklar bilan hamohang, - deydi.

G.Remeted koreys tilidagi e/en – mat/ en- mat i doch so'zlarini tungus tilidagi *ene- mat*, *en- mama*; chuvash tilidagi *anne*, yoqut tilidagi *na* , shuningdek, koreyscha “eme”- *mat*, so'zining qadimgi turkiy tildagi *hanum* – *hena*, *hansha*; *mo'g'ulcha eche* – *jena*, jenskiy chuvashcha Lopatin V.M. Suppletivizm // Russkiy yazik. – M., 1969 jenskiy so'zlari bilan qiyoslaydi. M. Ryasenin fincha *ema* – *mat*, “*samka*”, *vengercha an*, *turk qirg'izcha* – *ema*, *chuvashcha* – *ama*, *mog'ulcha* – *jenshina*, koreyscha – *eme* – *mat* o'zaklarini qiyoslaydi. A. Yoki esa *ena*, *ana* – *mat*, yoqutcha *iya*; chuvashcha *anne*; tunguscha *en*, *ene*, ulchi tilidagi *ene* – *mat* so'zlarini koreyscha *ana* – *jena* bir o'zakli so'zlar qatorida birlashtiradi.

G. Dyorfer, Y Pokorniylar esa hind- yevropa tillarini turkiy tillar materiallari bilan qiyoslab, *ana* ni bolalar tilidan olingan so'z deb izohlaydilar. Yu. Pokorniy esa armancha- *pan- babka*, lotincha *anna* – *priyomnaya mat*, aniz, iystarshaya jenshina, qadimgi yuqori nemis tilida *ano*, o'rta yuqori nemischa *ane*, *an*, *ene* – *pridok*, *ded praded*; *ana*// *ane* – *babushka*, *probabushka prodatelnitsa*; *pruss tilida ane* – *starshaya mat* terminlari bilan qiyoslaydi. V. I. Abyev ana terminini kavkaz tillari bilan, O. N. Trubachev turkiy tillardagi *nana*, *nana/n/ a*, *an/ n /a* terminlari bilan qiyoslaydi.

L. G. Morgandan so'ng D. A. Olderogge qarindoshlik sistemasining eng qadimgi, sodda va birinchi variantini izlaydilar. Ular qarindoshlik sistemasini uzoq yillardagi izlanishlar natijasida Polineziya qit'asida yashovchi Malaya, Gavay hamda Fidji orollarida istiqomat qiluvchi xalqlar hayoti tarixidan topadilar. Aniqlanishicha Nigeriya, Dagomeya, Oltin qirg'oq, Togo, Gvineya, Gavaya va Malaya minntaqasida yashovchi xalqlar tillarida *no* va *nna* // *nne* so'zlari ona ma'nosini anglatadi.

L.G. Morgan va D. A. Olderoggelarning tadqiqot natijalariga ko'ra, Malaya qarindoshlik sistemasi, avvalo, butun Osiyoga tarqalgan va unga qarindoshlik munosabatlarini belgilashda hukmronlik rolini o'ynagan, so'ng u

Turon qarindoshlik sistemasiga, nihoyat, Xitoy qarindoshlik sistemasiga ham asos solgan. Aks holda *ana* terminining hind- yevropa, burut-mo`g`ul, koreys, roman-german va slavyan tillari sistemasidagi tillarda turli variantlari ifodalangan bo`lar edi. Shunday ekan, tadqiqotda bizni *ana* terminining qayd qilingan tillardagi *no*, *ine* so`zlariga aloqasi qiziqtiradi. Fikrimizcha, *no*, *ine* terminlari *ana* terminga aloqador va ularning genezisi aynan bir o`zak asosida shakllangan.

NO, NNE so`zlari undov tovush bilan boshlanganligi tufayli qabul qilingan tillarda bir unli tovush orttirilib talaffuz etilgan. a+na – ana [ a – o ]. So`ng shu shaklda *ana* ma`nosini anglatuvchi qarindoshlik termini maqomini olgan. **NNE** termini ham, ta`kidlaganimizdek, so`z boshida qator kelgan undoshlarni tallafuz etish, turkiy tillar tizimi uchun begona hodisa bo`lmaganligi tufayli turkiy tillar sistemasida ikki xil yo`l bilan o`zlashgan. Birinchi guruhlarida **NNE** so`zidan oldin bir unli orttirilib, uning *anne*, *anna*, *enne*, *inna* variantlari yaratildi. Ikkinchi guruhlarida esa boshida qator kelgan undoshlar orasiga bir **IeI** unlisi orttirib **NNE** nana shakli yaratilgan. Jumladan ozarbayjon tili va uning shevalarida *nana*, turk adabiy tilida *anne*, chuvash tilida *anne* ona ma`nosida ishlatiladi.

O`zbek tili va uning shevalarida *anna*, *nana* terminlari qarindoshlik sifatida kam ishlatiladi. Lekin Namangan viloyatining To`raqo`rg`on tumanidagi qipchoqlar shevasida *anna* so`zining buvi, *moma* ma`nosida ishlatilishi qadim tarixning qoldig`i sifatida qaralmog`i kerak.

OPPOG` DEDE. Adabiy tilda ota va onalarning otalarini ifodalovchi bobo buva tushunchasi Namangan shevalarida *oppoqdeda*, *oppo: dada* , *opo: da*, *oppodda* kabi termin variantlari bilan ifodalanadi. Viloyat shevalarida saqlangan variantlari ikki mustaqil qarindoshlik munosabatlarini ifodalovchi aba+dada terminlarini birikuvidan iborat bo`lib, rang tus ifodalovchi oq leksemasi sifatida emas, balki, yillar osha ular so`z formalarining torayishi qonuniga muvofiq *aba-dada- apa dada- oppoda- oppo:da* shakliga kelib qolgan. Shunday ekan, *oppog`// oppoq* termini tarkibidagi oq rang / *oppog`im* degandagiga aloqasi bo`lmay, Oltoy tillaridagi tizimi mansub turkiy tillardagi *aba+ka*, *aba+ga* termini bilan hamohangdir. V.V. Radlov va L.A. Pokrovskayalarning ta`kidlashlaricha, mazkur

terminlar aba- og`a, aba-aka terminlarining birikuvidan hosil bo`lib, so`z formalarning torayishi qonuniga muvofiq abaga- abaqa shakliga kelgan. Turkiy tillarda aba-aka- abaqa, aba-og`a – abag`a soddalashtirilgan variantlari yuzaga kelganidan keyin otaning katta akalarini ajratib atash uchun abaqa terminiga dada terminini qo`shib, uning ikki varianti: abaqa dada – abak /a/ dada va uning jarangli varianti: aba+ ag`a - dada yuzaga kelgan.

Ta`kidlaganimizdek, qarindoshlik terminlarini jinsiy farqlash xususiyatlarini kasb eta bo`lmagandan keyin bobo bilan momoni farqlash kerak bo`lganda, oppoq dada termini orqali bobolarni, oppog`acha orqali momo ma`nosini anglatga boshlagan. Shunday qilib opa/ aba/ acha , dada terminlarining birikuvidan bir qator terminlari yasala boshlangan.

**TOG`A.** o`zbek dabiyy tili va uning shevalarida tog`a qarindoshlik termini, boshqa turkiy tillarda bo`lganidek, anglatgan ma`nosiga ko`ra turg`un hisoblanib, onaning akasi – ukalarini ifodalash uchun ishlatiladi. Lekin turkiy tillar tizimiga kiruvchi boshqird, qozoq, tatar va chuvash tilida tog`a terminini bu ma`noda qo`llanilmaydi.

Tog`a terminining etimologiyasi haqida ham olimlar turli xil fikr mulohazalarni bayon qilishgan. L.A. Pokorovskayani fikricha, turkiy tillardagi tog`a terminini fonetik variantlari bosqichma- bosqich shakllangan bo`lib, uning tadrijiy takomili: *ta`ga – tag`ay// daay- day- dayin- dayi* yo`nalishi bo`ylab yuzaga kelgan. Bularning variantlari tog`a bo`lishi mumkin.

E.V.Sevortyan turkiy tillar va uning shevalarida mavjud bo`lgan variantlarini qayd etib, besh rubrika orqali ularning anglatgan ma`nolarini izohlaydi. Yetakchi ma`no sifatida tog`a ma`nosini anglatishni ta`kidlaydi. Shuningdek, olim tog`a termining variantlarining barchasi semantik jihatdan o`xshash va leksik jihatdan esa qisqargan tay- day o`zagi bilan birdir, deb hisoblaydi. Tog`a termini orqali yasalgan / tay/ ene tay eta kabi/ terminlari asos e`tibori bilan ona ma`nosini anglatgan bo`lishi kerak, deb uqtiradi.

D.A.Olderoggenning tadqiqotlari natijalariga ko`ra, Nigeriya, Dagomeya, Togo mintaqalarida yashovchi eve, Yoruba, ibo kabi qabilalar tillarida

otani-to, onani – no deb ataganlar va bular umumiy /klassifikatsion/ termin boʻlgan. Lekin yillar osha jamiyatdagi formatsiyalarning oʻzgarishi, qarindoshlik davrasining kengayib borishi ota va ona tomonidagi qarindoshlarini bir-biridan farqlash, jinsiy ajratib atash zarurati sezila borishi bilan har bir avlodni oʻz nomi bilan atash kerak boʻlgan.

Ana shu hayotiy zarurat asosida ota bilan undan katta aka- ukalarni farqlash uchun to- ota soʻziga sifat hamda ravish turkumlariga mansub gʻan katta, ulugʻ, koʻp maʼnosini ifodalaydigan soʻzni qoʻshib ,yangi qarindoshlik terminini yasalgan: to+gʻan “katta ota”, “otaning katta akasi” maʼnosini anglatgan. Shunisi xarakterliki, yuqorida qilingan tillar bazasida to+gan shaklida yaratilgan termin oxiridagi /N/ tushirilib talaffuz etilishi ham qayd etilgan.

Masalaning muhim tomoni shundaki, togʻa qarindoshlik terminini manbalarining guvohlik berishicha, hamda etnograf olimlarning qayd qilishicha u yaratilgan davrda hozirgi turkiy tillarda kasb etgan, yaʼni onaning aka-ukalari maʼnosini anglatgan. U dastlab “otaning aka- ukalari”maʼnosini anglatgan. Lekin yillar osha yakka oila va xususiy mulkchilikka oʻtilgandan keyin oilada togʻaning oʻrni orta bordi. Singilning farzandlari tarbiyasi, taqdiri togʻasining zimmasiga yuklatildi.

Singil termini soʻzlovchidan kichik yoshdagi qiz bolani, undan tashqari, “chaqirish”, “murojaat” maʼnolarini ham anglatadi. Shunisi xarakterliki, turkiy tillarda keng qoʻllanuvchi mazkur termin umumiy boʻlgan holda qipchoq tip tili / qozoq, qirgʻiz, tatar, boshqird/larda singil termini soʻzlovchining jinsiga qarab keskin farqlanadi.

N.A. Baskakovning fikricha, turkiy tillarda keng qoʻllanuvchi aka termini ham xitoy tilida ulugʻ, katta, buyuk maʼnosini anglatuvchi “ke” soʻzi asosida yaratilgan. Faqat turkiy tillarda bir (a)unlisi orttirilishi natijasida a+ka- aka paydo boʻlgan shu asosda oʻzbek tilida uning eke, ake kabi variantlari yaratilgan. E.V. Seortyan ona, oa terminlarining tarkibidagi unli (a)tovushini “nositel protsessa” deb ataydi.

EGACHI. O`zidan katta opa ma`nosini anglatgan termin ham aka termini ishtirokida yasalgan. Ta`kidlaganimizdek, “acha” termini qadimda qarindoshlik munosabatlarini ifodalashda jinsiy belgiga befarq – neytral bo`lgan. Yillar osha er va ayolni farqlash zarurati yuzaga kelib, bir qator tillarda, jumladan, o`zbek tili va uning shevalarida ham ayol ma`nosini ifodalash zaruriyati tug`ilgandan so`ng katta ona, buvi, momo ma`nosini anglatish uchun aka termini qo`shib aka+ acha+ ak/a/acha – akacha intervokal holatda k>g bo`lib jaranglashib agan/a/ - I achagi /o`guz shevalarida/ - a – euegachi – qorluq tip shevalarida talaffuz etiladigan bo`lgan.

AMAKI qarindoshlik munosabatlarini anglatuvchi termin sifatida turkiy tillar doirasida juda cheklangan. O`zbek tili va uning shevalarida keng qo`llaniladi.

Turkiy tillar va turkiy tillar sistemasiga kirmaydigan tungus- manjur, buryat- mog`ul va oltoy tillarida ama/ oma/- ota / otets/ ma`nosini anglatgan. Amaki termini ham tilda mavjud

Bo`lgan terminlarning birikuvidan yasalgan. Ya`ni ama/ oma/ ota/ katta/+aka- am/ a/ aka- amaki shakliga kelib qolgan va katta ota ma`nosini anglatgan.

AMMA termini qadimda, umuman, ona – ayol momo, buvi ma`nolarini anglatgan, ebe- ene // ene-eme terminlari asosida shakllangan. Faqat tarixiy aba- ama// ene // ama shakliga boshqa turkiy tillarda bir (m) tovushi qo`shilgan holda qo`llagan va o`zbek tilida ham uning shevalarida ham “otaning opa-singillari” ma`nosida ifodalash ma`nosini kasb etgan. Dunyo tillarida, umuman, turkiy tillarda, xususan, qarindoshlik terminlarining umumiy ma`nosini anglatishdan xususiy, yakka shaxs ma`nosini ifodalashga o`tishi olimlar tomonidan tan olingan.

O`zbek tili shevalarining bu xususiyati faqat fonetik va morfologik xususiyatlaridangina emas, balki, uning lug`at fondi asosini tashkil etuvchi leksik qatlamida ham o`z ifodasini topgan.

XOTIN. Qadimgi davrdagi xotin termini hozirgi anglatgan o`zbek adabiy tili va shevalaridagi variantlari bilan dastlabki anglatgan ma`nosidan tamoman uzoqlashib ketgan va boshqa xotin/ jena/, xotin / jenshina/ ma`nosini kasb etib

qolgan. Namangan shevalarida xotin termini xotun// xotin// xetun shaklida talaffuz qilinadi.

Qavm-qarindoshlik terminlarining tahliliga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlarda qayd qilinishicha, xotin termin tarixan yasama bo'lib "qat"- o'zagi va so'z yasovchi –IN//UN,IN affiksi orqali yasalgan. Lekin V.V Radlov tuva, hakas, va shor tillarida "qat" mustaqil so'z bo'lib xotin ma'nosini anglatadi- deb ko'rsatadi. Qat leksemasi qadimgi yodgorliklarda qanday ma'no anglatgan bo'lsa uning shevalarida ham huddi shu ma'nolarni anglatadi va o'sha shaklini saqlab qolgan. Jumladan, qadimgi turkiyda: qat – nakladivativat, ryadom, prisoyedinyat: oat – sloy , plast, yarus, ryad: "devon "da qat- qat qavat- plast, sloy. Yoqut tilida : hat/ beremennaya/ ikkiqat, turk tilida qat-qat, qatlam, qavat kabi. Ko'rilgan tillarning barchasida ham u ayol ma'nosini ifodalagan.

Ibtidoiy jamoa tuzumi yemirilib feodal munosabatlar, davlat va xususiy mulkchilikning rivojlana borishi, davlatning matriarxatdan patriarxatga o'tishi, ko'p xotinlilik va ko'p erlilik sistemasidan yakka oila qurish, meniki va seniki tarzida oila ham xususiy mulk shaklida qaralishi bilan xotin termin maqomini oladi. Bu davrga kelib, er bilan xotin bir-birlariga kim bo'lishi va qat//qad o'zagiga – inn// un affiksi qo'shilib, qad//qatin – qatin – xatin termini yasalgan.

Manbalardan ma'lum bo'lishicha patriarxal tuzumi shakllanib feodalizmga o'tish davrida va jamiyatda otaning ijtimoiy hayot va ishlab chiqarishdagi faoliyati yetakchi rol o'ynashi munosabati bilan oiladagi boshqaruv va hukmronlik otaning ixtiyoriga o'tgan. Patriarxal davridagi qat so'zining teng huquqli, bir-birining qati, qavati, sherigi ekanligi, ma'nosi asta sekin xiralashib borib, mavqeini yo'qotib borgan. Natijada, otaning mavqei kuchayib, qadin- xatin- xatun- xotin termini substansiyalashib, o'zak va affikslarga ajralmaydigan bir butun bo'lakka aylanib, qarindoshlik munosabatini bildiruvchi xotin manosi anglatgan.

Masalaning muhim tomoni shundaki, qadun//qadin//xatun//xatin// xotin termini qarindoshlik sistemasiga aloqasi bo'lmagani holda, ma'lum jarayonning taqozosiga ko'ra, bir tomondan ayol/ jenshina/ va ayol/ jena/ ma'nosini anglatib qarindoshlik munosabatini ifodalovchi terminga aylangan bo'lsa, ikkinchi

tomondan, o`sha leksemaning o`zi turkiy tillar uchun umumiy hodisa bo`lgan d>t>z>y fonetik qonuniyat asosida *qadun* // *qatin*// *qazin*// *qazin*// *qayun*//*qayin* yo`nalishi bo`ylab o`zgarishga yuz tutib, qadun ata- qaynata, qadun- ana qayinona shaklida butun bir qarindoshlik terminlari sistemasining yaratilishiga asos bo`lgan. Shu sababdan ham ular qayin terminining birikuvidan hosil bo`lgan terminlar deb qaraladi. Turkiy tillarda qayin terminining *qazin*//*qayin* kabi shakllari mavjudligi, yuqorida ta`kidlaganimizdek, d>t>z>y yo`nalishi bo`ylab fonetik o`zgarishga yuz tutganligi bilan izohlanadi.

Ishda *qayin ota*, *qayin ona*, *qayinsingil*, *qayinini* kabi boshqa terminlar ham batafsil tahlil qilingan. Faqat viloyat shevalarida qayin ini// qayni, qayinsingil shaklida talaffuz etiladi. Shuni alohida ta`kidlash lozimki, sheva vakillari nutqida qaynog`a bilan qayni terminlari boshqa shevalarda bo`lganidek keskin farqlanmaydi. Bu yerda ko`proq qaynog`a termini ishlatildi.

Namangan umlauti shuningdek Farg`ona va Toshkent til shevalarida er, xotin, singillar sharhlanmaydi, qayinsinglim shaklida ishlataveriladi. Lekin qipchoq tip shevalarida uning erining singlisi xotiniga nisbatan qaynisingil, xotinining singlisi eriga nisbatan “boldiz” termini orqali ifodalanadi.

BOLDIZ. O`zbek tili va uning shevalarida boldiz terminining areali qayinsingil terminiga nisbatan kengroq bo`lib, yaratilisha tarixi ham qadimiyroqdir. Qayinsingil termini yozma yodgorliklarda qayd qilinmagan. Lekin qadimgi turk tili lug`atida va M. Koshg`ariyning “Devon”ida “baldiz”-xotinning singlisi deb qayd qilingan. Turkiy tillarda fonetik farqlar bilan qayinsingil o`rnida boldiz terminlari ishlatiladi.

Lekin ayrim turkiy tillar va yozma manbalarda qayd qilinishicha, boldiz termini anglatgan ma`nosidan tashqari, umuman kichik singil ma`nosini bildiradi: Turk tilida esa er va xotinning singillari bir-biriga boldiz bo`ladi. Qozoq va qoraqalpoq tillarida boldiz bir vaqtning o`zida qayin ini va qayin singil terminlari o`rnida ishlatiladi. Anglashiladiki, boldiz farqlanmagan. Shu jumladan boshqird tilida ham er va xotinning singillari bir-biriga boldiz sifatida ifodalangan.

Demak, boldiz termini turkiy tillar yozma manbalarida qayd qilinishicha, ham o'g'il bola, ham qiz bola ma'nolarini anglatib bergan. Shunday ekan, boldiz termini juda qadim zamonga oid so'z bo'lib, hali ota-ona farzandlarini jinsiy farq qilmay, umumiy nom bilan atab yurgan paytda yaratilgan. Mazkur hodisa qarindoshlik munosabatlarini ifodalashda rudiment sifatida hozir ham davom etayotganligi va o'g'il hamda qiz bolalarni jinsiy farqlash-bu patriarxal davrga o'tishning belgilaridan biri bo'lganligi etnograf olimlar tomonidan isbotlangan.

E.V.Sevortyanning ta'kidlashicha, boldiz termini bol-qiz, uka, aka va vadiz yasovchi affiksining birikuvidan yasalgan. Turk tili va uning shevalarida bol so'zi o'g'il va qiz ma'nolarida hozir ham keng qo'llaniladi.

Demak, turmush qurgandan keyin kuyovning o'zidan kichik ukalari, jinsidan qat'iy nazar, kelinga uka munosabatida bo'lgan, o'z o'rnida kelinning ukalari ham kuyovga uka bo'lgan va har ikkalasi ham o'sha davrda amal qilgan termin asosida, bir-birlarining ukalarini boldiz- uka deb ataganlar.

POCHCHA. O'zbek tili va uning shevalarida mazkur termin pochcha shaklida keng qo'llaniladi. Lekin o'zbek shevalarida uning yezda, jezda sinonimlari ham amal qilib, har ikki variantda o'zidan katta opalari xola va ammalarining erlari ma'nosini anglatadi. Namangan shevalarida ham uning har ikki varianti mavjud bo'lib, opalarining erlari ma'nosini ifodalaydi.

Tadqiqotchilarning xulosalariga ko'ra, turkiy tillar tizimida yezna termini dominant rol o'ynagan holda, yozma yodgorliklarda qayd qilinmagan. Pochcha termini esa o'zbek tilining qorluq tip va uyg'ur tillaridagina amal qiladi. Turk va gagauz tillarida uning enishte varianti ishlatilmoqda. L.A. Pokravekaya ezna va enishte terminlarining genezisi bir bo'lsa kerak deb taxmin qilgani holda, hozir ularning etimologik birligini isbotlashga imkoniyatimiz yo'q deydi.

Kuzatishlarimizning ko'rsatishicha, pochcha termini ba-katta va acha (katta yoshdagi, ulug', buyuk ma'nolarni so'ng qarindoshlik ma'nosi maqomini kasb etgan) so'zlarning birikuvidan yuzaga kelgan va acha terminining qadimda jinsga nisbatan neytralligi, mazkur termin orqali er kishining atalishiga to'siq bo'lolmagan. Shunday qilib, ba+cha-b/-acha-bocha bo'lgan. Lekin, o'zaklarning

birlashib, urg'uning so'nggi bo'g'inga ko'chishi munosabati bilan bacha-pacha shaklida /b-p/ jarangsizlashgan pacha- pochcha yo'sinida, undoshning ikkilanishiga sharoit yaratilgan. Shunday qilib, pochcha degani katta aka ma'nosini anglatgan, ya'ni so'zlovchidan katta bo'lgan opasining eri unga katta aka vazifasini o'tay boshlagan, so'ng esa qarindoshlik munosabatini ifodalovchi terminga aylangan. Ana shundan murakkab fonetik jarayonni boshidan kechirgan ba+acha chuvash tilida pichcha shaklida katta aka ma'nosini kasb etib qolganligi fikrimizning isboti bo'la oladi.

BOJA. O'zbek tilida bo'lganidek, Namangan shevalarida ham boja termini opa-singillar erlarining bir-birlariga qarindoshlik munosabatlarini ifodalash uchun ishlatiladi. Boja termini turkiy tillar tizimida rang-barang ko'rinishga ega bo'lib, anglatgan ma'nolariga ham, jinsga nisbatan ham neytralligi bilan xarakterlanadi.

Tadqiqotchilar boja terminining etimologiyasi haqida biror jiddiy fikr qilmaganlari holda, baxi-singil, opa va boja /свояк/ terminlarining genezisi bir bo'lib, so'ngra ma'noda farqlanish maqomini kasb etgan desalar, boshqalari ularning fonetik farqlariga qarab /ba:ji-baja/ birinchisi so'nggi hodisa deyishadi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, boja termini aslida ikki mustaqil ba va acha so'zlarining /pochcha qismiga qarang/ birikuvidan hosil bo'lgan. Turkiy tillar tizimida intervokal holatda bu hodisa umumiylikka egadir. Shunday qilib, bacha-baja shaklida opa-singil erlarining qarindoshlik munosabatlarini ifodalovchi terminga aylangan. Uning etimologiyasi esa katta aka, og'a ma'nosiga borib taqaladi. Fikrimizcha, dastlab opasining eri singlisini eriga nisbatan katta aka ma'nosini anglatgan, yillar osha esa o'zaro munosabatni ifodalovchi terminga aylangan.

OVSIN termini ham /boja, pochcha, singil, aba kabi/ qarindoshlik munosabatlarini anglatuvchi ikki mustaqil: aba/ opa va singil so'zlarining birikuvidan hosil bo'lgan. Qarindoshlik munosabatlari endi shakllanayotgan paytlarda yaratilgan ovsin termini asrlar osha bo'g'indan –bo'g'inga, avlodlar sulolasining ta'sirida, turli davrlarda yashab kelgan qabilalar tillarining tadrijiy takomili natijasida aba singil birikmasida murakkab fonetik o'zgarishlar sodir

bo'lib, ab/a/ + sing/il/ =absin -- /v-b/ - avsin shaklida bir urg'uli bir so'z shakliga kelib qoladi. Shunisi xarakterliki, tarixan bir xil asos – o'zakka ega bo'lgan ovsin va opa singil so'zlarining birinchisi murakkab fonetik o'zgarishga yuz tutib, akaukalar xotinlari munosabatlarini ifodalovchi, ikkinchisi esa o'zgarmagan holda tug'ilgan egachi-singil ma'nosini saqlab qolgan.

KELIN OYI termini o'zbek tili uchun umumiy hodisa. Turkiy tillarning barchasida kelin // gelin shaklida ishlatiladi. Kelin terminining genezisi haqida olimlar deyarli bir fikrga kelishgan. Mazkur termin fe'l o'zagi ke/kelmo/ fe'liga, fe'l va ot yasovchi –in, -un affikslarining qo'shilishi orqali kelgan, oilaga qo'shilgan, kelgindi ma'nosini anglatadi. Lekin Namangan umlautli shevalarida uning boshqa o'zbek shevalarida qayd qilinmagan kinchabi shaklida ishlatiladi. Kelin oyi termini tarkibida kelgan oyi ma'nosi Namangan shevasida bibi: -bi: termini orqali ifodalangan. E.V.Sevortyan bibi: termini anglatgan yetti xil ma'nosi orasida aka, amakining xotinlari bilan ona, opa, moma, buvi ma'nolarini anglatishini ham ta'kidlaydi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, kelin terminining asosida qarindoshlik ma'nosi bo'lmaganligi tufayli unga ona, acha, aya qarindoshlik termini qo'shib yangi termin yasalgan. Namangan shevalarida oyi, aya, acha terminlarining sinonimi bo'lgan bibi: -bi: termini qo'shib, "kelgan ona" ma'nosini ifodalangan. Kinchabi: termini ham shakllanish jarayonida murakkab fonetik o'zgarishga yuz tutib, asli kelin+ acha +bibi /terminlarining birikuvidan/ k/el/ in+/ a/cha+bibi – kinchabibi – kinchabi/ bi/: shaklida kasb etgan.

U:DA. Namangan shevalarida ketma –ket, yiliga yetib-yetmay tugilgan bolani u:da deydi: Agar bolalari yiliga yetib-yetmay tug'ilaversa ularni u:da bolalari deyishadi. Mazkur termin O'sh, Andijon shevalarida ham amal qiladi. Adabiy tilda va uning shevalarida ma'lum fonetik farqlar bilan saqlangan bo'lishi mumkin. Qadimgi yozma manbalar va boshqa turkiy tillarda u:da –uz-ut-uy-ug'-ug-uq-uk variantlari bilan avlod, ergashmoq, uzluksiz, birin-ketin, qator, qatorasiga; orqasidan yurmoq; uka, aka: avlod, bo'g'in kabi ma'nolarni anglatishi qayd qilingan.

Demak, mazkur o'zak orqali yasalgan so'zlar vaqt, jarayon nuqtai nazardan ketma-ketlik qatorasiga ma'nolarini anglatga, qarindoshlik nuqtai nazardan ketma-ketlik, yilma-yil tug'ilgan bola, aka-uka ma'nosini anglatib, qarindoshlik terminini yasashiga asos bo'lgan. Turkiy tillar uchun umumiy bo'lgan *d-t-z-y-k-g-g'* fonetik qonuniyat asosida *ud-ut-uz-uy-uk-ug-ug'* bo'lib, konkret bola, farzand, bo'g'in, nasl ma'nosini kasb etgan.

INI termini turkiy tillarning barchasida o'zidan kichik qarindosh ma'nosini anglatish uchun ishlatiladi. Faqat yoqut tilida uning "hali" shakli farqlash xususiyatini kasb etgan umumiy /klassifikatsion/ ma'no anglatish xususiyati saqlanib qolgan. Shu boisdan otasining kichik qarindoshlari, jiyani, amakining bolalari so'zlovchidan kichik bo'lganda ini termini orqali ifodalanadi.

Fikrimizcha in, en fe'l o'zagi bo'lmay, o'rin joy ma'nosini anglatuvchi so'z bo'lgan, aks holda in, en fe'l o'zaklaridan inim, ining, inisi formalarini yasab bo'lmas edi. Ikkinchidan qarindosh termini ham faqat bir qorindan tushgan, tug'ishgan ma'nosini anglatgan, so'ng u bir butun avlodni anglata boshlagan. Shunday ekan, ini ham bir qorindan, bir joydan degan ma'noni anglatib, keyin kichik uka-ini termini maqomini olgan bo'lishi kerak.

Qarindoshlik terminlarining yaratilish tarixi insoniyat tarixining eng qadimgi-ibtidoiy jamiyat tuzumi tarixi bilan uzviy bog'liq bo'lib, u jamiyat, oila, urug'chilik orasidagi real munosabatlarni ifodalaydi. U individiumning ko'pchilik odamlar orasidagi maqomini belgilaydi. Qarindoshlik iplari bilan bog'liq bo'lgan odamlarning unga, munosabatini va uning boshqalarga bo'lgan munosabatini belgilaydi. Demak, umumbashariy davrga xos bo'lgan qarindoshlik terminlarining genezisini turon-ganazan qarindoshlik sistemasining soddalashtirilgan shaklini yaratgan malayya qarindoshlik sistemasiga kiruvchi xalqlar qarindoshlik terminlariga qiyoslamasdan aniqlash mumkin emasligi ayondir.

Tilning material mohiyati haqida fikr yuritilganda tilni belgilar sistemasi yoki semiotik sistema deb qarash hozirgi ko'pgina tilshunos olimlar tomonidan qabul qilingan. Masalan, V.M. Solntsev ... "til tipik semiotik yoki belgilar

sistemasidir”⁶⁷ deydi. Semotika fanining yuzaga kelishi bevosita semantika fanini ham dunyoga keltirdi.

Semantika yunoncha semantikos-belgili, ma’noli, so‘zlaridan olingan bo‘lib, 1897 yilda Breal tomonidan ishlatilgan. U “Semantika haqida ocherk”, “So‘z mazmunlari to‘g‘risidagi fan” asarida semantikani tilshunoslikning bir bo‘limi sifatida asosladi.

Semantika va uning printsiplari belgi va belgilar sistemasi haqidagi fan bo‘lib amerikalik logik va matematik Pris tomonidan aniqlangan.⁶⁸

Keyinchalik filosof Ch.U.Morris rivojlantirib, sistemalashtirgan va belgi va belgilar sistemalarining funksiyasiga muvofiq 3 bo‘limiga bo‘lgan:

- 1) SINTAKTIKA
- 2) SEMANTIKA
- 3) PRAGMATIKA

Demak, semiotikaning ma’no o‘rganuvchi bo‘limi bo‘lib, belgi va ularning talqini o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni tekshiradi. Semantika tilshunoslikning aktiv o‘rganilayotgan sohalaridan biridir. Chunki hozir barcha tillarda birliklarni semantik nuqtai nazardan analiz qilishga katta e’tibor berilmoqda.

Rus grammatikasida semantika F.P.Filin, L.T.Evgeneva, O.N.Trubachayev va A.G. Gaklarning nomi bilan bog‘liqdir. Bu sohalarni rivojlantirishda L.A.Novikov va Vasilevlarning xizmati katta bo‘ladi.

O‘zbek tili 70 yillarda bu sohaga yurish boshlandi, bunda I.Kuchqortoev, R.Rasulov, A.Xojievlarning ishlari ko‘zga tashlandi.

Semantika- yunoncha semantikos-belgi, ma’no degan tushunchani bildiradi. Tilshunoslikda tilning ma’no sohasini o‘rganuvchi tomondur.⁶⁹

Semasiologiya – yunoncha semasia- belgi, ma’no logos- tushuncha, ta’limot so‘zlaridan tarkib topib, ma’no haqidagi ta’limot degan ma’noni bildiradi.⁷⁰

Tilning ma’no-mazmun tomonini, ya’ni semantikasini o‘rganish bo‘limi *semasiologiya* deb ataladi. Leksikologiya tildagi so‘zlarning yasalishi, ularning

⁶⁷ HNovikov, Semantika russkogo yazika. M, «Visshaya shkola» str-22

⁶⁸ T.A.Seblok, Semiotika i rodstvennyye terminy, «Voprosy yazikoznaniya», 1973, 3-vipusk

⁶⁹ O.Azizov. Tilshunoslikka kirish, Toshkent “O‘z SSR, o‘rta va oliy maktab” davlat nashriyoti, 1963, 55-bet

⁷⁰ O‘zbek sovet entsiklopediyasi, 9-tom, Toshkent, 1977, 589-bet

kelib chiqishi va ishlatishini o'rganadi. Semasiologiya esa keng ko'lamda tildagi barcha birliklarning (so'z, so'z formasi, morfema, so'z birikmalari, gap, frazeologizmlar) ma'no-mazmun tomonini tadqiq qiladi. Ularning har ikkisi uzviy ravishda bog'liq bo'lib, semasiologiyaning o'rganish ob'yekti ancha kengroq. Chunki semasiologiya tilning ma'no-mazmun tomonini ancha chuqur va obstrakt tekshirib, uning tushuncha, tafakkur va belgi bilan bog'liq tomonlarini ham tadqiq etadi.

Ko'pincha leksikologiya va semasiologiyaning asosiy vazifasi tilning markaziy birligi bo'lgan so'zini o'rganishga qaratiladi.⁷¹

So'zlarning ma'no mazmun jihatdan tahlil etilgan semantik strukturasi deb ataladi. So'zning semantik strukturasi so'zlashuv situatsiyasida yoki kontekstda kengroq ochiladi. So'zning farqlanish alomatlari *sema* deb ataladi.

Semalarning yig'indisi *semantika* deyiladi. Leksik qatlamda semantemaga leksema to'g'ri keladi.

Leksikologiyada tilning lug'at sostavi tashqi tomondan lug'aviy birliklarning jamiyatga, xalqning hayot tarziga munosabati, ularning fikr almashuv sohalariga muvofiqlashuvi kabi nuqtalari o'rganilsa, semasiologiyada aksincha, tilning ichki tomoni o'rganiladi.⁷²

Tildagi barcha so'zlar ma'noli bo'lsada, lekin ular ma'noning umumiy xususiyatlariga ko'ra ham o'zaro farqlanadi. Masalan, quyidagi so'zlarning asosiy qismi ob'ektiv borlikdagi narsa, belgi yoki harakat haqidagi tushunchani bildiradi: paxta, suv, oq, tekis, ushlamoq, yuguroq kabi. Boshqa so'zlar esa, ya'ni yordamchi so'zlar (bilan, uchun, va, agar, va boshqalar), shuningdek undov va taqlid so'zlar tushuncha ifodalamaydi. Tushuncha ifodalaydigan so'zlar leksik ma'noga ega bo'lib, leksikologiya va semasiologiyaning ob'ekti hisoblanadi.

So'zlarning konkret ma'nodan obstrakt ma'noga o'tishi, umuman so'z ma'nolarining taraqqiy etish, o'zgarishi jarayoni xilma-xil va murakkabdir⁷³.

⁷¹ I.A.Baskakov va bosh. Umumiy tilshunoslik, Toshkent. "O'qituvchi", 1979,97-bet

⁷² I.Quchqortoev, O'zbek tili leksik semasiologiyasi va uning aktual masalalari, 1982 "O'zbek tili va adabiyoti" 6-son

⁷³ SH.Shoabduraxmonov, va yuoshqalar, Hozirgi o'zbek adabiy tili, Toshkent "O'qituvchi"1980

Soʻz semantik jihatdan predmet, hodisa, harakat, ish, belgi va shu kabilarning nomini bildiradigan grammatik jihatdan shakllangan, bir tilda soʻzlovchi kishilar kollektivi uchun bir xilda tushuniladigan nutq birligidir. Bu birlik (leksik birlik) oʻzida bir necha maʼnoli belgilarni ifoda etadi. Bu hol semantik koʻp komponentlik yoki soʻzning semantik strukturasi deyiladi.

Soʻzning semantik strukturasi soʻzning maʼnoli komponentlari yoki soʻz variantlaridir. Soʻzning leksik maʼnosi predmetlarning oʻz va koʻchma maʼnosini bildiradi. Soʻzning semantik strukturasi aniqlashda soʻzning oʻzgarmas maʼnoga yaʼni oʻz maʼnoga nisbatan aniqlanadi.⁷⁴

Soʻnggi lingvistik tadqiqotlarda soʻzlar orasidagi sinonimik, omonimik, antonimik munosabatlar bilan bir qatorda leksik giponomiyaga ham alohida eʼtibor berilmoqda. Giponomik yoki gipernomik qatorini odatda maʼno jihatdan jins, tur munosabatlari bilan oʻzaro bogʻlangan soʻzlar tizmasi tashkil etadi. Bunda giperonim maʼlum bir jinsning umumiy nomini (M: meva, hayvon, gul) giponim esa shu jinsga kiruvchi birliklarning nomlarini bildiradi. Masalan, meva: olma, anor, behi, olcha ... Umumiy katta boʻlim j i n s deb, toʻda yoki butun deb ataladi. Bu esa giperonim nomi hisoblanadi.

Giperonim bilan giponim munosabati giponimik munosabat deyiladi. Giponimik munosabati semantik maydonda yuzaga keldi. Maʼlumki, semantik maydonni yaʼni maʼno bilan umumlashuvchi soʻzlarning maydoni hosil qiladi. Maʼlum bir semantik maydonga kiruvchi giponimik munosabatda boʻlgan giponimlar oʻz navbatida oʻzining semalariga ega. Badiiy va ilmiy asarlar tilini oʻrganish shuni koʻrsatadiki, giponim va giperonimlarni oʻrnini ishlatishni oʻrganish sinonim, omonim va antonimlarning ishlatilishini oʻrganish kabi ahamiyatlidir, chunki giponimlar nutqni badiiylashtirib, uni konkretlashtirishda muhim vazifa bajaradi. Chunonchi, Alisher Navoiyning

Kim kuchuk birla xutukka

Qancha qilsang tarbiyat,

It boʻlur, eshshak boʻlur

⁷⁴ R.Safarova, Oʻzbek tilida giponomiya, “Oʻzbek tili va adabiyoti” 1987, 1-son, 60 bet

Bo‘lmasdur aslo odamiy

Baytida katta badiiylikka, mazmundorlikka, o‘zaro giponimik munosabatlarda turgan so‘zlar kuchuk-it: xutuk-eshshakni ishlatish bilan erilishadi.⁷⁵

Giponimik qator so‘zlari orasidagi o‘zaro ma’no aloqalari o‘ta rang-barangdir. Fikrimiz dalili sifatida echki-taka, -uloq-koban-megajin giponimik qatori so‘zlar orasidagi semantik munosabatlarni ko‘rib chiqishimiz mumkin.

Echki uy hayvonlaridan birining nomi(giperonim) bo‘lib, taka shu jinsining voyaga yetgan erkagi, uloq esa kichik erkak yoki urg‘ochi echkinining nomidir.

Echki-taka-uloq leksik qatorida echki ikki ma’no kasb etadi. Birinchidan, bu so‘z giperonim (tur nomi) sifatida uy hayvonlaridan bir xilning uning boshqa xilidan (masalan qo‘y, it, qoramol, mushuk va bosh) farqlashga xizmat qiladi. Ikkinchidan, echki-taka-uy hayvonlarining erkak turi otenkasiga (erishila) ega bo‘ladi.

Bu munosabatda quyidagicha ko‘rsatish mumkin:

G I P E R O N I M L A R




Gorizontal qatoridagi munosabatlarda echki va qo‘y so‘zlari tur ma’nosi asosida qarama-qarshi qo‘yilsa, vertikal qatorda bu so‘zlar xil ma’nosini (urg‘ochi, erkak: katta-kichik) farqlash bilan qarama qarshi turadi.

Giponimik munosabat juda ko‘p hayvonlarda uchraydi, faqat hayvonlarda emas, balki o‘simliklarda, mevalarda, gullarda shu jumladan qarindosh urug‘chilik nomlarida ham mavjud.

Gul giperonimi o‘zining semantik maydoniga juda ko‘p giponimlarni jamlaydi. Masalan, lola, chinnigul, beorgul, karnaygul, tojixo‘roz va boshqalar. Meva giperonimi, ham shu kabi giponimlarning umumiy nomi hisoblansada,

⁷⁵ O‘sha adabi-yot, 62-bet

tarkibida bir qancha semalarini doira shakldagi semantik maydoni hosil qilishini quyidagicha ko'rsatish mumkin.



Giponimlardagi mavjud semalardan biri giponimlarni bir biriga bog'liqligini ko'rsatsa, ikkinchisi esa bu giponimlarni farqlovchi sema hisoblanadi.

Hamma giponimlar uchun umumiy bo'lgan ma'nolariga nisbatan giponimlar semantik maydonni hosil qiladi.

Quyida biz bu xil munosabat tahlilni qavm-qarindoshlik so'zlarida kengroq o'rganamiz.

Giponimiyaning sinonimiya, antonimiya, omonimiya bilan aloqasi hamda giponimlarning stilistik qo'llanishi kabi masalalar ilmiy tadqiqotimizning navbatdagi vazifalarini tashkil qiladi.

Demak, bir semantik maydonga kiruvchi so'zlarning birlashtiruvchi tuda-*giperonim* deyiladi. Shu umumiy tuda giperonim tarkibiga kiruvchi so'z- *giponim* deyiladi.

1.2 O‘ZBEK TILI QARINDOSHLIK GIPONIMLARING LEKSIK MA’NOLARI HAQIDA QISQACHA TA’RIF

Tilning lug‘at sostavi cheksiz, ularning semantik tomondan g‘oyat induvidual ekanligi ma’lumdir. Keyingi paytlarda yuzaga kelgan semantik nazariyalarning deyarli hammasida tilning lug‘at sostavi o‘ziga xos leksik semantik sistemasi hosil etishi qayd qilinadi.

Bu nuqtai nazarga muvofiq, tilning leksik semantik sistemasi kichik sistemalardan, kichik sistemalar esa o‘z navbatida kichikroq sistemalardan tashkil topadi.

Tilning leksik-semantik sistemasi so‘zlardan tashkil topadi. So‘z- tilning g‘oyat murakkab birligi. Belgi nazariyasiga muvofiq, so‘z –o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lgan ikki tomonning birligidan iborat, ifodalovchi tomon va ifodalanuvchi tomon⁷⁶.

So‘zning nimanidir atashi, ifodalashi, bildirishi tilshunoslikda turlicha nomlanib keladi: real ma’no, material ma’no, lug‘aviy ma’no, leksik ma’no va boshqalar. Keyingi paytlarda bu hodisa semema termini bilan atalishini hisobga olsak, terminologiyada muayyan izchillik yuzaga kelishi ma’lum bo‘ladi.⁷⁷

So‘zning leksik ma’nosi (semema) bir qancha semalardan-komponentlardan iborat bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda muayyan semalar yig‘indisi so‘zning leksik ma’nosi hosil qiladi.

Bu mulohazalardan so‘zning leksik ma’nosi semalarning oddiy to‘plamida iborat bo‘lar ekan degan xulosa chiqarmaslik kerak, semema semalarning o‘ziga xos strukturasidan iborat bo‘ladi.

Semema tarkibidagi semalarning ba’zilari yetakchi o‘rin tutsa, ba’zilari tobe o‘rin tutadi. Yetakchi semalar tobe semalarga nisbatan ko‘pincha umumiyroq, mavhumroq bo‘ladi.

Tilning lug‘at sostavi leksik semantik sistemalarning o‘ziga xos guruhidan iboratdir. Har bir leksik semantik sistema umumiy lug‘at sistemasida qanday o‘rin

⁷⁶ A.A. Ufintseva, Slova v leksiko-semanticheskoy sistema yazika, M.1968

⁷⁷ I.Qo‘chqortoev, tilning lug‘at sistemasini o‘rganishning bir yo‘li to‘g‘risida, “O‘zbek tili va adabiyoti”, 1972,3-son, 28-bet

tutishidan qa'tiy nazar, ma'lum umumiylikka ega bo'lgan so'zlardan (semamalardan) tashkil topadi.

Tilimizdagi qarindosh urug'chilik bildiruvchi so'zlar ham ma'lum bir leksik-semantik sistemasida tashkil etadi. Shu borada bu so'zlar o'ziga xos semalardan iborat. Har bir giponim leksik ma'no kasb etgan holda semema hisoblanadi. Giponimlarning semantik strukturasi aniqlashdan oldin, ular tilimizda qanday ma'no kasb etishi haqida to'xtalib o'tamiz.

O'zbek tilida qarindoshlikni ifodalovchi so'zlar ko'p, ular tilimizda har kunlik turmushimizda qo'llanuvchi serunum so'zlardir. Har bir qarindoshlik so'zi oddiygina bir qishloqda, nohiya va viloyatda dialekt va shevalarga xos turli variantlarda qo'llanadi. Bunday variantlilikning yuzaga kelishiga turli xil sabablar mavjud:

1. Tilning rivojlanayotganligi:
2. Odatdagi avlod-dan-avlodga o'tib nom olish:
3. Kishilar madaniy saviyasining oshganligi: deb tushunish mumkin.

Quyida biz adabiy til uchun norma hisoblangan va umum ko'p qo'llaydigan qarindoshlik so'zlarning leksik ma'nolari haqida to'xtalib o'tamiz.

1.3 Qon-qarindoshlik giponimlari.

Ona

1. Ona so'zi turkiy tillarda qon-qarindoshlik giponimi sifatida bila tug'ib, katta qilingan, tarbiyalangan, o'z bolasi bor yoki biror shaxsning bolasini boqib olgan ayolga nisbatan berilgan va uni aniqlovchi termindir;

2. Ayolning o'zi tug'ib o'stirgan yoki asrab olgan farzandlari tomonidan ana shu ona so'zi bilan shu ayol shaxsini boshqa qarindoshlardan farq qiladi. (I.Ismoilov)

O'g'il va qiz farzandlar o'zlarini tug'ib o'stirgan, oq sut bergan ayol shaxsiga nisbatan ona terminidan tashqari o'zbek tilida: oyi, aya, buva, opa, apacha terminlarini ishlatadilar. Ona so'zi o'zbek tilida shahar, qishloq, mamlakat:

hayvon, parranda, meva, ekin, gullarga nisbatan ham hurmat, ajratib ko'rsatish va belgilash uchun qo'llaniladi.

Ota

1. Farzandli, bola-chaqali er kishiga nisbatan aytiladigan termindir.

2. Shaxsning o'z farzandlarini, asrab olgan qiz yoki o'g'il tomonidan ana shu ota so'zi bilan nomlanadi.

Ota termining o'zbek tilida bir qancha variantlari bor: dada, ada, aka, o'gay ota, qayin ota,

-Siz otamisiz, nimasiz axir, o'g'lingizni tiyib olish sira esingizda keladimi?(A.Qodiriy)

Ota-otaxon so'zlari qari er kishilarga nisbatan ham qo'llaniladi.

O'g'il

1. O'g'il so'zi qon-qarindoshlik termini sifatida hozirgi zamon turkiy tillarning hammasi uchun xos bo'lib er jinsidagi bolaga nisbatan qo'llaniladi. So'zlashuvda o'g'il giponimi egalik affikslari bilan birgalikda keladi.

Bola o'g'ilmi, qizmi?

- Bu qizdan bir balo chiqadi. O'nta o'g'ilning o'rmini bosadi. (S.Ahmad,UFQ)

2. Bobo, buvilar nabiralarga nisbatan, qayin ota, qayin onalar o'z kuyovlariga nisbatan, begona shaxslar tomonidan farzandi tengi er bolaga nisbatan *o'g'ilim* terminini qo'llaydilar.

Qiz

1. Qiz so'zi hozirgi o'zbek va turkiy tillari uchun xos qarindoshlik giponimi hisoblanadi. (Urug'ning anatomi)

2. Bobo buvilar nabiralarini, begonalar farzandi tengi qizga va shaxslar o'z qiz farzandlariga nisbatan *qizim* giponimini qo'llaydilar.

O'g'il va qiz giponimlarining sinonimi, varianti sifatida o'zbek tilida bola, farzand terminlari qo'llaniladi.

AKA

Aka giponimi o'zbek va turkiy tillarda qon-qarindoshlik bildiruvchi termin sifatida qo'llaniladi.

1. Bir ota onadan tug'ilgan yosh jihatdan o'zidan katta er kishiga nisbatan, o'zidan kichik singillari ukalari tomonidan aka termini qo'llanadi.

2. Begona shaxslar o'zidan katta er kishiga nisbatan aka terminini qo'llaydilar.

Turkiy tillarda aka terminini varianti sifatida og'a, birodar terminlari qo'llansada, o'zbek tilida faqat aka shaklida qo'llaniladi.

UKA.

1. Bir ota-onadan tug'ilgan o'g'illardan kichigi kattasiga nisbatan uka hisoblanadi.

2. O'zidan yosh bo'lgan er kishiga murojaat formasi.

-Qaerdan kelgansiz, uka? (P.Tursun(O'qituvchi))

O'zbek tilida o'zidan kichik er kishilarga nisbatan uka termini qo'llanib, uning turkiy tillardagi varianti *i n i*. O'zbeklarda qayin uka, qayin ini, kabi giponimlar ham mavjud.

OPA

1. Opa termini o'zbek va turkiy tillarda ota-onadan tug'ilgan qarindosh, sutdosh, yosh jihatdan katta ayol jinsidagi shaxsga nisbatan uka, singillari tomonidan qo'llanuvchi giponim hisoblanadi.

2. O'zidan katta ayollarga hurmat yuzasidan opa qo'llaniladi. Agar yaqin qarindosh (ammasi, xolasi) yosh bo'lsa ham shu giponim qo'llaniladi.

O'zbek tilining ayrim shevalarda *O P A* giponimining apa, aya, opcha, va boshqa variantlari mavjud bo'lib, ular anglatgan ma'no opaning leksik ma'nosiga to'g'ri keladi. Shuni ham aytish kerakki, opa giponimi ba'zi dialektlar uchun ona o'rnida qo'llaniladi.

SINGIL

Singil so'zi qon-qarindoshlik giponimi sifatida o'zbek va turkiy tillarda ishlatiladi.

Singil termini opa terminiga nisbatan antonimik munosabatda bo'ladi. Amma uka terminini bilan nusxada almashinib keladi.

1. Singil giponimi bir ota-onadan tug'ilgan ayol jinsidagi farzandga nisbatan o'zidan katta yoshdagi aka-opalari tomonidan qo'llanuvchi termindir.

2. Begonalar ham o'zidan kichik ayolga singil deb murojaat qiladi.

O'zbek tilida singil termini qayin, o'gay so'zlari bilan qayin singil, o'gay singil kabi formalarning ifodalanishiga asos bo'ladi. Bulardan tashqari singil termini opa, aka, uka terminlari bilan opa-singil (aka-singil) uka singil kabi juftlashib, ko'plik jamlik ma'nolarini ifodalashi mumkin.

Opa-singil bir ota-onaning turli yoshdagi qizlari bo'lsa opa-uka bir ota onaning turli yoshdagi qizlari bo'lsa opa-uka bir ota onaning turli yoshi katta qizi bilan yoshi kichik o'g'li hisoblanadi.

Yuqorida sanab o'tilgan ota, ona, opa, aka, singil, uka kabi giponimlar bir oilaga mansub bo'lgan qarindoshlardir. Ona va ota, opa va akalar orqali qarindoshlik bildiruvchi so'zlar mavjud.

1. Ona urug'larini ifodalovchi terminlar:

Ona urug'larini ifodalovchi qon-qarindoshlik terminlariga o'zbek tilida tubandagilarni kirishish mumkin:

1. Onasining onasi, onasining otasi

2. Onasining onasi, onasining onasining onasi, onasining otasining onasi

3. Onasining opasi, onasining akasi, onasining singlisi, onasining ukasi.

Bu xildagi bo'linishi chegarasini ko'p pog'onali qilib davom ettirish mumkin. Bular hammasini qarindoshlikni ko'rsatadi, lekin hozirgi zamon turkiy tillari shu jumladan o'zbek tilidan bunday bo'linish uchun termin yo'qqa o'xshab ko'rinadi. Chunki onasining otasining otasi yoki onasining onasi kabilarni ifodalash uchun turkiy tillarda qisqagina katta ota, bobo yoki ota-bobolar kabi juft so'zlar mavjuddir.

Shuning uchun ham biz bu yerda urug'larning yoki ajdodlarning bunday ko'p pog'anali bo'linishi chegarasini qisqartirib yuqoridagi to'rt pog'ana yordamida tekshirib chiqamiz. Jumladan onasining onasi, onasining otasi terminlari o'zbek tilida tubandagicha ko'rinishga, ega:

Onasining onasi(to'g'risida)-buvi, ena, ona, katta buvi, acha.

Onasining otasi—buva, bobo, katta, opoqi, oppoq dada, boy dada.

Buvi

O‘zbek tilida buvi so‘zi qon-qarindoshlik termini sifatida nevarasi tomonidan aytiladigan, uning kim ekanini ifodalab keluvchi so‘zdir. O‘zbek adabiy tilida buvi varianti qabul qilingan bo‘lib, shevalarda yuqorida keltirilgan ena, acha, ona, katta buvi kabi qo‘llaniladi.

Buva

Buva so‘zi buva termining antonimi bo‘lib, onasining otasini ifodalab keladi. O‘zbek tilida bu ma‘noni ifodalash uchun bir necha variantlar mavjud. Buva, bobo, katta, opoqi, opoq dada, katta dada, katta ota kabilar.

O‘zbek tilida buvi so‘zi qon-qarindoshlik termini sifatida nevarasi tomonidan qo‘llaniladi.

Xola.

1.Xola so‘zi ona urug‘ tomonidan qarindosh bo‘lib, onasining opasi yoki singlisini ifodalaydi.

2.O‘zbek so‘zlashuv tilida begona ayollarga nisbatan ham x o l a giponimi qo‘llaniladi.

Tog‘a.

1. Tog‘a giponimi ona urug‘ tomonidan qarindosh bo‘lib, onasining akasi yoki ukasini ifodalash uchun jiyanlari tomonidan qo‘llaniladi.

2. Begona kishilar o‘zidan katta bo‘lsa tog‘a giponimi ishlatadi.

Agar tog‘a jiyandan unchalik katta bo‘lmasa, a k a giponimi qo‘llaniladi. Onasining onasini aka ukalariga nisbatan ham tog‘a giponimi qo‘llaniladi.

Yuqorida keltirilgan ona urug‘iga mansub giponimlar ham qon-qarindoshlik giponimlari gruppasiga kiradi.

2.Ota-urug‘larini ifodalovchi giponimlar.

Ota urug‘larini ifodalovchi qon-qarindoshlik giponimlariga o‘zbek tilida tubandagilarni kiritish mumkin:

1.Otasining onasi, otasining otasi

2. Otasining onasining onasi, otasining otasining otasi

3. Otasining opasi, otasining singlisi

4. Otasining akasi, otasining ukasi asosida ko‘rib chiqiladi.

Yuqorida aytganimizdek ko‘p pog‘anali bo‘linishlarning har biri uchun alohida-alohida nomlanish mavjud emas.

O‘zbek tilida ota urug‘i orqali qarindoshlikni bir necha giponimlar bildiradi.

AMMA

Otasining opasi yoki singlisini ifodalash uchun o‘zbek tilida amma giponimi qo‘llaniladi. Ba‘zan dialektlarda ammacha deb ham ataladi. Bu giponim o‘zbek tilida begonalarga nisbatan ham ishlatiladi.

AMAKI.

1.Otasining akasi yoki ukasini ifodalash uchun o‘zbek tilida amaki giponimi qo‘llaniladi.

2.O‘zidan katta kishilarga hurmat yuzasidan murojaat qilishda ham amaki giponimi ishlatiladi.

Hozirgi o‘zbek va tojik tillarida amaki giponimi bir til ma’noda qo‘llaniladi. Agar amaki yosh jihatdan kichikroq bo‘lsa, aka deyilishi ham mumkin. Ba‘zan dialektlarda otasining akasini katta ota, katta dada deyish ham uchraydi.

JIIYAN.


Jiyan so‘zi qon-qarindoshlik termini sifatida turkiy tillarning deyarli hammasida ishlatiladi. Jiyan giponimining hozirgi o‘zbek tilida qo‘llanishi doirasi ancha keng.

1. Opa-singilning farzandlari tog‘a yoki xolaga nisbatan jiyan hisoblanadi.

2. Ammaning farzandlari aka, xola, tog‘alarning farzandlari yaqin qarindoshlarga nisbatan jiyan deb yuritiladi.

3. Murojaatda shaxslar o‘zining o‘g‘li tengi o‘g‘il yoki qizga nisbatan jiyan giponimi qo‘llaydilar.

J I Y A N giponimi jins jihatdan ajralmaydi. Jiyan giponimini quyidagi qarindoshlik xarakterdagi (so‘zlar) holat ifodalaydi.



O'g'il va qizning bolalarini ifodalovchi terminlar

Turkiy tillarda ota va ona o'z o'g'il va qizlarining bolalarini o'ziga nisbatan kim ekanini ko'rsatish uchun bir qancha terminlardan foydalanadilar.

O'zbek tilida qon-qarindoshlikni yoki bir ota-onadan tarqalgan avlod urug'ini ifodalash bir necha giponimlar mavjud.

O'g'il va qiz farzandi - n e v a r a

Nevara farzandi- ch e v a r a

Chevara farzandi- evara

Evara farzandi- pat nevara

Pat nevara farzandi –kukun nevara

2 bob. NIKOHDAN KEYIN PAYDO BO'LGAN QARINDOSHLIK

GIPONIMLARINING SEMANTIKASI

O'zbek va turkiy tillarda tarixiy taraqqiyoti oila, nikoh sistemasining har-xil formalari qadimdan to jamiyatning shu davriga qadar o'sib rivojlandi.

Oila nikohning xilma-xil formalari shaxslarning bir-biriga nisbatan bo'lgan munosabatda yaqinlik, qarindoshlik terminlarini keltirib chiqaradi.⁷⁸

Buning natijasida vujudga kelgan terminlar turkiy va o'zbek tillarning shevalarida aks etgan bo'lib, ularni nikoh formalarining natijasi deb aytish mumkin. Bu terminlardan ayrimlarining leksik ma'nosi haqida to'xtab o'tamiz.

ER.

Er so'zi termin sifatida hozirgi zamon turkiy tillarning hammasida ba'zi fonetik farqlarni hisobga olmaganda mavjud bo'lib, ma'no nuqtai nazardan esa

⁷⁸ O'zbek tilining izohli lug'ati, 2-tom, Moskva, "Rus tili" 1981, 449 bet

ko'pchilik turkiy tillarda bir xildir, shuningdek er termini qadimiy terminlardan bo'lib, turkiy tillarning yozma yodgorliklarida ham erkak ma'nosida qo'llanilgan.

Er termini umumturkiy so'z bo'lib, giponim sifatida (esa) xotiniga nisbatan u shaxsning kimligini ifodalash uchun qo'llaniladi. Er giponimining leksik ma'no jihatdan doirasi ancha kengdir. U botir, qo'rqmas, kuchli, kabi ma'no ottenkalariga ega.

1. Er –erkak jinsiga mansub kishi, erkak.
2. Xotin kishi bilan nikoh ahdida bo'lgan erkak kishi, qalliq.
3. Mard, olijanob, jasur kishi.

XOTIN

Xotin so'zi turkiy tillarda nikohdan keyin paydo bo'lgan qarindoshlik giponimi bo'lib, ma'no jihatdan er va erkak giponimining antonimidir, Xotin so'zi ham qadimiy terminlardan biridir. Xotin giponimi turmushga chiqqan, ayol jinsiga mansub erning umr yo'ldoshi, qalliq.

Erkak kishi o'zining umr yo'ldoshiga nisbatan xotin giponimi qo'llaydi.

Yoshi katta ayollarga nisbatan ham bu giponimi ishlatiladi.

O'zbek tilida kishi, qiz so'zlari bilan xotin kishi, xotin-qiz tarzida keladi. Ko'p hollarda xotin giponimining varianti sifatida ayol, juvon giponimlari qo'llaniladi.

KUYOV

Kuyov so'zi termin sifatida hozirgi zamon turkiy tillarning ko'pchiligining mavjud bo'lib, ular fonetik jihatdan unchalik farq qilmaydi. Kuyov giponimi turkiy tillarda ma'no tomoni bilan farq qiladi.

1. Qizning umr yo'ldoshi ota-onasiga nisbatan kuyov deyiladi.
2. Endi uylanayotgan yoki yangi uylagan yigit uchun ham bu giponim qo'llanadi.

KELIN. Kelin giponimi o'zbek tilidagi nikohdan keyin paydo bo'lgan qarindoshlik termini hisoblanadi. Kelin so'zi ota-ona va ularning qarindoshlari tomonidan o'g'ilning, erkak jinsdagi qarindoshlarning xotinlarini ifodalovchi qarindoshlik terminidir.

Kelin soʻzining maʼno doirasi tor va konkretlashgan giponimlardandir. Lekin giponimi morfologik birlikka kirib, u bilan bogʻliq boʻlgan yangi maʼnolardagi giponimlarni ifodalaydi. Oʻzbek tilida akasining, togʻasining, amakisining xotinlariga nisbatan ishlatiladigan: kelin oyi, kelin aya, kelinchak aya. Yangi aya, aya giponimlari mavjud.

Oʻzbek tilida gaplashuvi turli joylarda har qaysi giponim mahsuldor hisoblanadi. *KELIN* giponimi nevara giponimi bilan birga kelib bir maʼnoni ifodalaydi, yaʼni nevarasining xotini buva va buviga nisbatan nevara kelin deyiladi.

YANGA giponimi kelin oyi giponimining varianti sifatida uchraydi.

Pochcha

Pochcha giponimi nikohdan keyin paydo boʻlgan qarindoshlik nomlaridan biridir. Pochcha giponimi tilda koʻp hollarda qoʻllaniladi.

1. Opaning eri uka va singillariga nisbatan pochcha hisoblanadi.

2. Er yoki xotining xolasining, ammasining erlari har ikkovi uchun ham pochcha hisoblanadi.

3. Uzoq qarindoshlarning oʻgʻil yoki qizlarning tomonidan oʻzidan katta yoshdagi ayol qarindoshining erning pochcha deb nomlaydilar

BOJA .

Boja soʻzi qavm-qarindoshlik giponimi sifatida turkiy tillarda bir-biriga begona shaxslarga opa-singilning erlariga nisbatan berilgan nomdir. Boja oʻzbek tilida umum dialektal soʻz hisoblanadi. Opa-singillarning erlarini boja termini bilan ifodallasalarda, ammo ular bir biriga murojaatda shaxsiy ismlarini qoʻllaydilar.

Demak boja termin ularni begona shaxsga tanishtirish uchungina ishlatiluvchi termin sifatida qoʻllanadi.

OVSIN.

Ovsin soʻzi qarindoshlik giponimi sifatida boja giponimining antonimidir. Aka-ukalarning xotinlari bir-birlariga nisbatan ham hurmat yuzasida oʻziga yaqin olib murojaat qilish uchun ishlatiladi.

QAYIN.

Qayin soʻzi turkiy tillarning deyarli hammasida qoʻllaniladi. Qayin soʻzining etimologiyasi toʻgʻrisida L.A Pokrovskaya va R.G.Muhammedova oʻz ishlarida

to'xtalib o'tadi. Bu to'g'rida Pokrovskaya qayin so'zining birinchi morfemasi kad bo'lib u tovush y ga o'zgargan va in affiksi qo'shilgan deb aytsa, Muhamedova bu so'zning asosini etnografik nuqtai nazardan tashkil qiladi deb ta'riflaydi va unga bir morfema deb qaraydi.

Bizningcha L.A.Pokrovskayaning nazariyasi to'g'riroq bo'lib, hozircha unga qo'shilish mumkin.

Shunday qilib, qayin so'zi hozirgi o'zbek va turkiy tillarda qo'shma giponim hosil qiladi.

1.Qayin so'zi ona termini bilan so'z birikmasi holida qayin ona-qayinona tarzida kelib, erining onasi, xotinning onasi ma'nosini ifodalaydi.

2.Ota terminiga qayin so'zi qo'shib, qayin ota-qayinota formasida kelib, erining otasi, xotinining otasi ma'nolarini ifodalaydi.

-Xasanalining so'zida qaraganda qayinotaning qizini Toshkentga yubormas ekan.(A.Qod) O'tgan kunlar).

O'zbek tilida oyi, aya, dada, ada, giponimlarining qayin so'zi bilan qo'llanishi sermahsul emas. Shuning kabi xotini erining ota-onasiga, eri xotinining ota-onasiga murojaat qilganida ota, dada, oyi, aya, buvi deb qilaveradi.

Qayin ota, qayin ona terminlari esa ularning o'z ota onalaridan farqlash uchungina ishlatiladi.

Qayin og'a-qayinog'a giponimlari erining yoki xotinining akasiga nisbatan qo'llanadi. Aslida qayni va qayinog'alarning o'z ismlarini aytib murojaat qiladilar.

Qayin egachi-qayinagachi. O'zbek tilida qayingachi giponimi qayin opa tarzida ham qo'llanilib; erining opasiga nisbatan, murojaatda ularning ismlarini aytib chaqiriladi.

Q A Y I N- singil giponimi er yoki xotinining singillariga nisbatan qo'llaniladi.

O'zbek tilida qayin so'zining buva, buvi giponimlariga qo'shib kelishi kam uchraydi. Tog'a, amaki, amma, xola, jiyan, kelin aya kabi giponimlariga esa qayin so'zi qo'shilmaydi. Erning tog'asi, amakisi, xolasi, xotini uchun ham aksincha, xotinining shu kabi urug'larini eri uchun ham bir xilda nomlanadi.

O'zbek tilida "og'a", "egachi", "ini" terminlari "aka", "opa", "uka" terminlariga nisbatan yakka holda kam qo'llansada, lekin bularga qayin so'zi qo'shiladi. Shuningdek har ikki shaxsning opa, uka va singillari ko'p bo'lsa, ularni bir biridan farqlash uchun katta, o'rtancha, kichik kabi yosh bildiruvchi aniqlovchilar qo'shib keladi.

QUDA

Quda so'zi qarindoshlik termini sifatida qiz chiqargan, uzatgan, oila a'zolari bilan shu qizni o'ziga kelib olgan ikkinchi oila a'zolarining bir biriga nisbatan bo'lgan yaqinligi bildirib keladi.

Bu giponimlar er va xotinning ota-onasi, shuningdek ularning katta yoshdagi erkak va ayol qarindoshlariga nisbatan ishlatilaveradi. Bunda ularning ajratib ko'rsatish uchun quda xola, quda tog'a, quda amma, quda amaki kabi giponimlar ham qo'llaniladi.

O'zbeklarda qaychi quda, qarshi quda, giponimi ham mavjud. Ikki oila bir biriga qiz berib qiz olishgan yoki shu ikki oila a'zolaridan bir-biriga qarindoshlardan kelinlikka olgan bo'lsa, bularni oddiy qudalardan farq qilgan xolda *Q A Y Ch I* quda deb ataydilar.

2.1 QARINDOSHLIK GIPONIMLARNING SEMANTIKASI

O'zbek tilida komponent tahlil metodi keng qo'llanilmoqda. Jumladan leksik mikrosistema elementlarining semantik tuzilishini o'rganish borasida olib borilgan ilmiy izlanishlar yaxshi natija bermoqda, ularni aniq, ravshan bayon etish imkonini yaratmoqda.

Bunga turli tillar materialli asosida o'rganilgan qarindoshlik terminlari, harakat va nutq fe'llari, rang-tusini ifodalaovchi so'zlarni misol qilib ko'rsatish mumkin⁷⁹.

Biz quyida komponent tahlil metodikasiga asoslanib qarindoshlik giponimlarining semantik strukturasini tahlil qilishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik. Chunki bunday holda giponimlarni tahlil qilishda ularning semantik

⁷⁹ M.Narzieva, Qon-qarindoshlik nomlarining komponent tahlili, "O'zbek tili va adabiyoti", 1986 yil 5-son

strukturasini, o‘zaro munosabatlarini, bir-biridan farqlovchi va umumlashtiruvchi ma’nolarini aniqroq ko‘rsatish mumkin.

Qarindoshlik giponimlarining tahlilida jadval tuziladi va bu jadval giponimlar, giponimlarni tekshiruvchi ma’no tomonlar, ularning birliklari yozilib, mavjud bo‘lgan semalar uchun ishoralar qo‘yiladi.

Qarindoshlik giponimlarining ma’no doiralarini aniqlashda quyidagi besh tomon klassifikatsiya qildik:

1. Qarindoshlik xarakteriga ko‘ra.
2. Avlodga mansubligiga ko‘ra
3. Jinsiga ko‘ra
4. Yoshiga ko‘ra
5. Oilaviy ahvoliga ko‘ra

Tahlilda qarindoshlik giponimlarining sistemasini aniqlash maqsadida o‘lchov asosi qilib abstrakt “men” tushunchasi olinadi va qarindoshlik munosabatlari mana shu “men” ga nisbatan aniqlanadi.

Qarindoshlik xarakteriga ko‘ra giponimlar “men” bilan qanday vosita orqali qarindosh joni aniqlanadi. Bevosita qarindosh, bilvosita qarindosh, yuridik boqib olish qarindosh.

Avlodga mansubligiga ko‘ra giponimlar qaysi avloddan ekani aniqlanadi. Har bir giponim “men” dan katta avloddan ekaniga shunday nomlandimi yoki kichik ekaniga shunday nomlandimi, bu masala ochiladi.

Jinsga mansubligiga ko‘ra giponimlar aslida ikkiga bo‘linadi (erkak, ayol). Shunday qarindoshlik giponimlari borki, ular har ikkala jins uchun ham qo‘llanilaveradi: jiyan, amakivachcha, nevara. Shuni hisobga olgan holda giponimlarni jinsga ko‘ra uchga, ya’ni ayol, erkak va neytral deb ajratdik.

Yoshga mansubligiga ko‘ra giponimlar “men”dan katta, kichik yoki teng (neytral) bo‘lishi mumkin.

Oilaviy ahvolga ko‘ra esa giponimlar turmush qurgan va turmush qurmagan bo‘lishi tabiiy, lekin giponimlarning ba’zi nomlarida bo‘lgan xususiyat farqlanmay neytral tarzda qo‘llanilaveradi. Masalan opa-singil, aka-uka giponimlari uchun

turmush qurgan yoki qurmaganlik farqlanmaydi, shuning uchun bunday giponimlar neytral (oilaviy ahvolga ko‘ra) hisoblanadi. Shunday giponimlar borki ular faqat turmush qurganda keyingi shaxsga nisbatan qo‘laniladi. Bularga: ona, ota, bobo, aya, bochcha, kelin aya kabi giponimlar kiradi.

Turmush qurmagan shaxslar uchun qo‘llanuvchi giponimlarga o‘g‘il qiz, opa, aka, uka, singil, tog‘avachcha, xolavachchcha, amakivachcha kabi giponimlar kiradi. Ammo bu guruhga mansub giponimlar yuqoridagi xususiyatlarga ega bo‘lishi tabiiy.

Sanab o‘tilganlar va ularning birliklari asosida qarindoshlik giponimlarini semantik tahlil uchun jadvalga joylashtiramiz. Giponimlarning mavjud semalari uchun + (plyus) ishorasini bo‘lishi mumkin bo‘lgan semani ko‘rsatish uchun 0 (nol) ishorasini qo‘ydik. Har bir gruppaga mansub bo‘lgan giponimlarning birlashtiruvchi va farqlovchi semalarini aniqlaymiz. Bu semalar giponimlarni atashda, bir birlaridan ajrata bilishda muhim o‘rin tutadi.

Birlashtiruvchi sema-integral sema deb, farqlovchi sema differentsial sema deb ham yuritiladi.

Integral sema (lom integer- butun, tiklangan). Polisemantik so‘z semalari uchun umumiy bo‘lgan sema, qiyos, differentsial sema.

Differentsial sema (Lom differens- farqlovchi).

Polisemantik so‘z semalaridan har birining o‘ziga xos bo‘lgan sema.

Integratsiya (lot integration-butunlanish, birlashish).

Diiferentsiatsiya lot differento-farqlanish.⁸⁰

2.2 QON QARINDOSHLIK GIPONIMLARINING BIRLASHTIRUVCHI VA FARQLOVCHI SEMALARI.

Qarindosh-urug‘chilik giponimlarining birinchi gruppasini hosil qiluvchi qon-qarindoshlik giponimlariga qo‘yidagilar kiradi.

OTA	TOG‘A
ONA	AMAKI
BUVA	AMMA

⁸⁰ A.Xojiev Lingvistik terminlarning izoqli lug‘ati, Toshkent, “O‘qituvchi”, 1985. 39 bet..

BUVI	XOLAVACHCHA
O'G'IL	TOG'AVACHCHA
QIZ	AMAKIVACHCHA
OPA	AMMAVACHCHA
AKA	JIYAN
SINGIL	NEVARA
UKA	CHEVARA
XOLA	EVARA

Bu giponimlar bir birlari bilan va “men” bilan yaqin qarindoshlikni bildiradi.

Giponimlarning semantik strukturasi bilan tanishib ular farqlovchi va birlashtiruvchi semalar haqida to'xtalsak.

Tahlil jarayonida jadvalda aks etgan giponimlarini semalarga ajratuvchi besh tomon asos qilib olinadi.

1. Qarindoshlik xarakteri.
2. Avlodga mansubligi.
3. Jinsga mansubligiga ko'ra.
4. Yoshiga ko'ra.
5. Oilaviy ahvoliga ko'ra.

Har bir giponimning mana shu tomonlarda aks etgan semalari ko'rsatishda, mana bu hujjatlarga ko'ra deb, qayta-qayta yozishdan ko'ra ularning qat'iy joylashgan sonlaridan foydalansak. Ya'ni 1-2-3-4-5 tomonlariga ko'ra deyishimizda ixchamlik yaratadi.

OTA va ONA giponimlari.

OTA

1. Bevosita qarindosh
2. Bir avlod yuqori
3. Erkak jinsiga mansub
4. Yosh jihatidan katta.
5. Turmush qurgan shaxs.

ONA

1. Bevosita qarindosh
2. Bir avlod yuqori
3. Ayol jinsiga mansub

4. Yosh jihatidan katta.
5. Turmush qurgan shaxs.

Har ikkala giponimning qarindoshlik xarakteri, avlodga mansubligi, yosh jihatdan kattaligi va turmush qurgan shaxs ekanliklari tomonidan bir xil semalar mavjud, bu semalar har ikkala giponimning birlashtiruvchi semalar hisoblanadi. Uchinchi tomoni bilan, ya'ni jinsga mansubligiga ko'ra noo'xshashlik semasi mavjud, bu sema ota va ona giponimlarini bir biridan farqlovchi, differentsiya yasovchi sema hisoblanadi.

Buva va buvi giponimlar.

BUVA

1. Ota va ona orqali qarindosh.
2. Ikki avlod katta.
3. Jinsiga ko'ra katta.
4. Yoshiga ko'ra katta.
5. Turmush qurgan shaxs.

BUVI

1. Ota va ona orqali qarindosh.
2. Ikki avlod katta.
3. Ayol.
4. Yoshiga ko'ra katta.
5. Turmush qurgan shaxs

Buva hamda buvi giponimlarida oltitadan sema mavjud. Buva ham, buvi ham ota yoki ona orqali qarindosh bo'ladi.

Ota onaning "men"iga nisbatan buva, buvi deb nomlanadi.

Buva va buvi giponimlari qarindoshlik xarakteri, avlodga mansubligi, yoshiga nisbatan kattaligi va turmush qurgan shaxs ekanliklari bilan birlashuvichi semalargan jins tomonidan esa farq qiluvchi semaga ega bo'lgan giponimlardir. Bu giponimlar ham ota-onaga giponimlari kabi jins jihatdangina, bir sema bilan farqlanadi.

O'g'il va qiz giponimlari.

O'G'IL

1. Bevosita qarindosh.
2. Bir avlod kichik.
3. Erkak.
4. Yoshga ko‘ra kichik.
5. Oilaviy ahvoliga ko‘ra neytral.

QIZ

6. Bevosita qarindosh.
7. Bir avlod kichik.
8. Ayol.
9. Yoshga ko‘ra kichik.
10. Oilaviy ahvoliga ko‘ra neytral

O‘g‘il qiz giponimlari beshtadan semaga ega. Har ikkala giponim ham “men” bilan hech qanday vositasiz qarindosh, bir avlod kichik, yoshiga nisbatan ham kichik va oilaviy ahvoliga ko‘ra ikkisi ham neytral, ya’ni o‘g‘il-qiz giponimlari shaxsning turmush qurgan yoki qurmagan ekanligiga ko‘ra farqli qo‘llanmaydi. Demak, bu giponimlar to‘rt semasi bilan birlashadi va bir semasi bilan (jinsga mansubligiga ko‘ra farqlashadi). O‘g‘il-qiz “men”ga nisbatan farzand, shuning uchun ham kichik sema mavjud.

Ota va buva giponimlar.

OTA

1. Bevosita qarindosh.
2. Bir avlod yuqori.
3. Erkak.
4. Katta.
5. Turmush qurgan.

BUVA

1. Bevosita ota, ona, orqali qarindosh.
2. Ikki avlod yuqori.
3. Erkak.
4. Katta.
5. Turmush qurgan.

Ota hamda buva giponimlari “men” uchun yaqin bo‘lgan qarindoshlardan. Ota giponimining besh semasi, buva giponimning olti semasi bo‘lib, bu semalarning ayrimlari bilan birlashib, ayrimlari bilan ajraladi.

Birlashuvchi semalar: har ikki giponimning erkak jinsiga mansubligi, yosh jihatdan kattaligi va turmush qurganlari.

Farqlovchi semalar: ota bevosita qarindosh, buva esa “men” ga ota yoki ona orqali qarindosh: ota “men”dan bir avlod yuqori, buva esa ikki avlod yuqori bo‘lgan semalari bilan ota va buva giponimlari bir biridan farqlanadi.

Bu giponimlarning mavjud semalari o‘zlari uchun “men”ga nisbatan qat’iy bo‘lgan semalardir.

Ota va o‘g‘il giponimlari

OTA

1. Bevosita qarindosh.
2. Bir avlod yuqori.
3. Erkak.
4. Katta.
5. Turmush qurgan.

O‘G‘IL

1. Bevosita qarindosh.
2. Bir avlod kichik.
3. Erkak.
4. Kichik.
5. Neytral.

Ota va o‘qil giponimlari “men” uchun bevosita qarindosh bo‘lgan, erkak jinsiga xos giponimlardir. Ular birinchi va uchinchi semalari bilan birlashdilar.

Ota “men”dan avlodga mansublik jihatdan bir avlod yuqori o‘g‘il esa “men” dan bir avlod kichik bo‘lgan semaga ega. Ota yoshga xoslik jihatdan “men”dan katta bo‘lga semaga o‘g‘il esa kichik bo‘lgan semaga ega. O‘g‘il oilaviy ahvolga ko‘ra neytral bo‘lsa, ota giponimi turmush qurganlik semasiga xos. Bu uch semaning noo‘xshashligi giponimlarining farqlovchi tomonlari hisoblanadi.

Oilaviy ahvolga ko'ra o'g'il giponimi turmush ko'rgan yoki qurishgan bo'lishi mumkin.

ONA

1. Bevosita qarindosh.
2. Bir avlod yuqori.
3. Ayol.
4. Katta.
5. Turmush qurgan.

QIZ

1. Bevosita qarindosh.
2. Bir avlod kichik.
3. Ayol.
4. Kichik.
5. Neytral.

Ona va giponimlari beshtadan semaga ega bo'lgan giponimlardir. Har ikkala giponim ham qarindoshlik xarakteriga ko'ra bevosita qarindoshlik semasi va ayol jinsiga mansub bo'lgan semalari jihatidan birlashadi.

Ona giponimning "men"ga nisbatan bir avlod yuqoriligi, qizning esa bir avlod kichikligi va onada oilaviy ahvolga ko'ra turmush qurganlik semasining mavjudligi, qiz giponimida be semaga xoslikning neytralligi semalari jihatdan ona va qiz giponimlari farqlanadi.

Qiz giponimida oilaviy ahvolga ko'ra turmush qurgan yoki qurmaganlik semalari bo'lishi mumkin.

Ona va buvi giponimlari.

ONA

1. Bevosita qarindosh.
2. Bir avlod yuqori.
3. Ayol.
4. Katta.
5. Turmush qurgan.

BUVI

1. Bevosita, ota, ona orqali qarindosh.
2. Ikki avlod yuqori.
3. Ayol.
4. Katta.
5. Turmush qurgan.

Ona giponimining besh semasi, buvi giponimining har olti semasi mavjud bo'lib ikkala giponimning uch semasi birlashtiradi, bular, jinsga xoslik jihatdan ayol jinsga mansublik, yosh jihatdan kattalik va oilaviy ahvoliga ko'ra turmush qurganlik semalaridir.

Farqlovchi semalari birinchi va ikkinchi tomonlariga nisbatan. Ona qarindoshlik xarakteriga ko'ra "men" bilan hech qanday vositasiz qarindosh, avlodga xoslik jihatdan bir avlod yuqori bo'lgan semalarga ega. Buvi esa ikki avlod yuqori bo'lgan semalarga ega. Bu semalar har ikkala giponimning noo'xshashligini ko'rsatadi.

O'g'il va aka giponimlari.

O'G'IL

1. Bevosita qarindosh.
2. Bir avlod kichik.
3. Erkak.
4. Kichik.
5. Neytral.

AKA

1. Bevosita qarindosh.
2. Ayni bir avlodga mansub.
3. Erkak.
4. Kichik.
5. Neytral.

O'g'il giponimining ham, ana shunday giponimning ham beshtadan semalari bor. O'g'il va aka "men" uchun bevosita qarindosh bo'lgan giponimlar. Ikkovi ham erkak jinsiga xos bo'lgan oilaviy ahvolga ko'ra (men uchun) neytral bo'lgan semalar jihatdan birlashadi.

O'g'il giponimi "men"dan avlodga mansublikka ko'ra bir avlod kichik bo'lgan giponim bo'lsa-yu aka esa "men" dan kichik semasi bilan barqaror, aka "men"dan katta bo'lgan semasi bilan barqaror. Demak, har ikkala giponim farqlovchi semalari ikkita bo'lib bular avlodga xoslik va yoshga mansublik semalaridir.

Ota va amaki giponimlari.

OTA

1. Bevosita qarindosh.
2. Bir avlod yuqori.
3. Erkak.
4. Katta.
5. Turmush qurgan.

AMAKI

1. Bilvosita, ota orqali qarindosh.
2. Bir avlod yuqori.
3. Erkak.
4. Katta.
5. Turmush qurgan.

Ota va amaki giponimlarining beshtadan semalari bor. To'rttadan semalari bilan birlashadi, bular: avlodga mansublikka ko'ra, bir avlod yuqorilik semasi, jinsga xoslik yosh jihatdan kattalik va oilaviy ahvolga nisbatan turmush qurganlik semalari.

Bitta semasi bilan ota va amaki giponimlari farqlanadi. Ota bevosita qarindosh bo'lgan semaga ega bo'lsa amaki bilvosita qarindosh bo'lib, ota urug'iga mansubdir. Ota va amaki bir-birini juda yaqin qarindosh bo'lsa, "men"dan katta amakiga qaraganda ota yaqin bo'lgan qarindosh.

Amaki giponim uchun "men"dan katta semasi va turmush qurgan semani o'zgarmas bo'lgan sema emas.

Ona va xola giponimlari.

ONA

1. Bevosita qarindosh.

2. Bir avlod yuqori.

3. Ayol.

4. Katta.

5. Turmush qurgan.

XOLA

1. Bilvosita, ona orqali qarindosh.

2. Bir avlod yuqori.

3. Ayol.

4. Katta.

5. Turmush qurgan.

Ona va xola giponimlari qon-qarindoshlik gruppasiga kiruvchi aktiv giponimlaridir. Ularning har birida beshtadan sema. Ona va xola giponimlarining to‘rt semalari bir xil bo‘lib ularning birlashtiruvchi semalari hisoblanadi. Ona ham xola ham “men”dan avlodga mansublik jihatidan turmush qurgan shaxslardir.

Ona va xola giponimlari uchun farqlovchi semalariga nisbatandir. Ona “men” bilan bevosita qarindosh bo‘lsa xola esa “men” bilan ona vositasida qarindosh.

Xola uchun “men”dan katta va turmush qurganlik semalari o‘zgarmas emas.

Opa va aka giponimlari.

OPA

1. Bevosita qarindosh.

2. Ayni bir avlod mansub.

3. Ayol.

4. Katta.

5. Neytral.

AKA

1. Bevosita qarindosh.

2. Ayni bir avlodga mansub.

3. Erkak.

4. Katta.

5. Neytral.

Aka hamda opa giponimlarining bittadan semalari bor.

“Men”ga nisbatan aka ham, opa ham bevosita qarindosh, bir avlodga mansub bo‘lib, yosh jihatdan har ikkisi ham “men”dan katta, turmush qurgan yoki qurmaganligi jihatdan farqlanmaydi. Chunki aka ham, opa ham oldin qanday nomlansa keyin ham shunday (“men” tomondan) nomlanadi. Opa va aka giponimlari bir semasi jinsi mansubligi bilan farq qiladi. Birinchisi, ikkinchisi, to‘rtinchisi va beshinchisi tomonlari bilan birlashadi.

Singil va uka giponimlari.

SINGIL

1. Bevosita qarindosh.
2. Ayni bir avlod mansub.
3. Ayol.
4. Kichik.
5. Neytral.

AKA

1. Bevosita qarindosh.
2. Ayni bir avlodga mansub.
3. Erkak.
4. Kichik.
5. Neytral

Singil hamda uka giponimlarining har biri beshtadan semaga ega. Bu giponimlar “men” bilan hech qanday vositasiz qarindosh bo‘lib, ayni bir avlodga mansub, yosh jihatidan kichik, oilaviy ahvoliga ko‘ra uka, singil turmush qurgan yoki qurmagan bo‘lsa ham “men” uchun ukaligicha, singilligicha kelaveradi, shu sababli neytral hisoblanadi. Singil, uka giponimlari uchinchi tomoni bilan farq qiladi.

Har ikki giponimning nomlanishda, bir-biridan farq qilishda ikki xil jinsga mansublik alomati muhim rol o‘ynaydi. Singil, uka giponimlarining farqlovchi semasi (jinsga munosabatiga ko‘ra) bitta.

Xola va tog‘a giponimlari.

XOLA

1. Bilvosita ona orqali qarindosh.

2. Bir avlod katta.
3. Ayol.
4. Katta.
5. Turmush qurgan shaxs.

TOG‘A

1. Bilvosita ona orqali qarindosh.
2. Bir avlod katta.
3. Erkak.
4. Katta.
5. Turmush qurgan shaxs.

Xola tog‘a giponimlarining har biri uchun beshtadan sema mavjud.

Xola va tog‘a “men”ga ona urug‘ bo‘lib, ona orqali qarindosh, ona (m) bilan ayni bir avlodga mansub “men”dan bir avlod katta, yosh jihatidan har ikkisi ham katta, “men” ning xola va tog‘a “men”dan kichik yoki teng ham bo‘lish mumkin. Shuning uchun kichik va neytral katakka bo‘lishi mumkin. Men (o) belgisi qo‘yiladi. Oilaviy ahvolga (ko‘ra) nisbatan tog‘a va xola turmush qurgan shaxslardir, aks holda tog‘a va xola deyilmas edi.

Tog‘a va xola giponimlari to‘rt semasi bilan birlashib, jinsga mansubligiga ko‘ra bir semasi bilan farqlanadi.

Amaki va amma giponimlari.

AMAKI

1. Bilvosita ota orqali qarindosh.
2. Bir avlod katta.
3. Erkak.
4. Katta.
5. Turmush qurgan.

AMMA

1. Bilvosita ota orqali qarindosh
2. Bir avlod kattta.
3. Ayol
4. Katta

5. Turmush qurgan.

Amaki va amma giponimlari beshtadan semasiga ega. Bu giponimlari beshtadan semasiga ega. Bu giponimlar “men” bilan ota orqali qarindosh, yoshga nisbatan ko‘p hollarda katta, turmush qurgan shaxslar. Bu tomonlari har ikkala giponim uchun bir xil bo‘lib, birlashtiruvchi semalarni hosil qiladi. Jinsga mansubligiga ko‘ra noo‘xshash semalardan (ya’ni farqlovchi) iborat.

Shuni ham aytish kerakki, amma va amaki “men”dan kichik yoki teng, turmush qurmagan yoki neytral bo‘lishi mumkin.

Jadvalda ko‘p xollarda mavjud bo‘lgan semalarini ko‘rsatdik.

Xola va amaki giponimlari.

XOLA

1. Bilvosita, ona orqali qarindosh.
2. Bir avlod yuqori.
3. Ayol.
4. Katta.
5. Turmush qurgan.

AMAKI

1. Bilvosita ota orqali qarindosh.
2. Bir avlod katta.
3. Erkak.
4. Katta.
5. Turmush qurgan.

Bilvosita qarindosh bo‘lgan xola va amaki giponimlarining har birida beshtadan sema bor. Bu semalarining uchtasi xola va amaki giponimlarini birlashtiradi, bular: bir avlod, yuqorilik, yoshga nisbatan kattalik va oilaviy jihatdan turmush qurganlik semalaridir.

Ikki semalarining noo‘xshashligi jihatdan farqlanadilar, ya’ni xola bevosita qarindosh ona vositasida, ayol jinsiga mansub bo‘lgan giponimdir.

Xola ham, amaki ham “men” uchun qon-qarindosh bo‘lgan shaxslar. Xola va amaki “men”dan yosh jihatdan teng yoki kichik bo‘lishi mumkin.

Amaki va tog‘a giponimlari.

AMAKI

1. Bilvosita ota orqali qarindosh.
2. Bir avlod katta.
3. Erkak.
4. Katta.
5. Turmush qurgan.

TOG'A

1. Bilvosita ona orqali qarindosh.
2. Bir avlod katta.
3. Erkak.
4. Katta.
5. Turmush qurgan shaxs.

Amaki va tog'a giponimlari ko'rib turganimizdek beshtadan semasiga ega. To'rttadan semasi bilan o'xshash bo'lib, bular: avlodga mansublikka ko'ra, bir avlod yuqorilik, jinsiga xoslik jihatdan erkak jinsiga mansubli, yoshga nisbatan va oilaviy ahvoliga ko'ra turmush qurganlik semalaridir. Demak, bu semalar har ikkala giponimni birlashtiruvchi sema hisoblanadi. Qarindoshlik xarakteriga ko'ra amaki ota vositasida, tog'a ona vositasida qarindosh ekanliklari esa ularni farqlovchi semalaridir.

Bu giponimlar bir semasi bilan ajraladilar, to'rt semasi bilan birlashadilar.

Xolavachcha va tog'avachcha giponimlari.

XOLAVACHCHA

1. Bilvosita ona, xola orqali qarindosh.
2. Jinsiga mansubligiga ko'ra neytral.
3. Yoshiga ko'ra neytral.
4. Oilaviy ahvoliga ko'ra neytral.

TOG'AVACHCHA

1. Bilvosita ona, tog'a orqali qarindosh.
2. Jinsiga mansubligiga ko'ra neytral.
3. Yoshiga ko'ra neytral.
4. Oilaviy ahvoliga ko'ra neytral

Xolavachcha va tog'avachcha giponimlari "men" bilan bilvosita qarindosh, xolavachcha ona urug'dan xola orqali, tog'ovachcha ham ona ona urug'idan tog'a orqali qarindosh. Har ikkala giponim ham jinsiga mansublik, yeng xoslik va oilaviy ahvolga nisbatan neytral bo'lgan semalardan iborat.

Xolavachcha ham tog'avachcha ham jinsiga mansublik jihatdan farqlanmaydi, yoshga mansubligiga ko'ra ular "men"dan kattami-kichikmi xolavachcha va tog'avachcha deyilaveradi. Oilaviy ahvoli tomanidan esa turmush qurgan yoki qurmaganlik shaxslarga nisbatan ajratilmaydi.

Xolavachcha va tog'avachcha giponimlarida beshtadan sema bo'lib, ularning to'rttasi bu giponimlarning birlashtiruvchi sema, bittasi esa farqlovchi sema, ya'ni qarindoshlik xarakteriga ko'ra biri tog'a vositasida, ikkinchisi esa xola vositasida.

Amakivachcha va amnavachcha giponimlari.

AMAKIVACHCHA

1. Bilvosita ona, amaki orqali qarindosh.
2. Jinsiga ko'ra neytral.
3. Yoshiga ko'ra neytral.
4. Oilaviy ahvoliga ko'ra neytral.

AMNAVACHCHA

1. Bilvosita ona, amma orqali qarindosh.
2. Jinsiga mansubligiga ko'ra neytral.
3. Yoshiga ko'ra neytral.
4. Oilaviy ahvoliga ko'ra neytral.

Amakivachcha va amnavachcha giponimlari "men" bilan bilvosita ota urug'tomonidan qarindosh, amakivachcha amaki orqali, qarindosh. Bu giponimlar ham jinsiga xoslik, yoshga mansublik va turmush qurgan, qurmaganlik jihatlaridan farqlanmaydi. Shuning uchun ham neytral bo'lgan semalariga ega, bu semalar giponimlarning birlashtiruvchi semalari hisoblanadi. Qarindoshlik xarakteriga ko'ra esa bir sema birlashtirsa (ota orqali semasi), ikkinchi semasi, ya'ni biri amaki, biri amma orqali qarindoshligi farqlovchi semani ko'rsatadi.

Jiyan va nevara giponimlari

JIYAN

1. Bilvosita, opa, aka, singil, ukalar orqali qarindosh.
2. Bir avlod kichik.
3. Jinsiga ko‘ra neytral
4. Yoshiga ko‘ra kichik
5. Oilaviy ahvoliga nisbatan neytral

NEVARA

1. Bilvosita, farzand orqali qarindosh.
2. Ikki avlod kichik.
3. Jinsiga ko‘ra neytral
4. Yoshiga ko‘ra kichik
5. Oilaviy ahvoliga nisbatan neytral

Jiyan va nevara giponimlari o‘zlari uchun mansub bo‘lgan semalari bir birlaridan anchagina farq qiladilar. Har ikkala giponim jinsiga ko‘ra, yoshga munosabati va oilaviy ahvoliga ko‘ra birlashtiruvchi semalarga ega. Qarindoshlik xarakteriga nisbatan va avlodga mansubligi belgilariga ko‘ra jiyan va nevara giponimlari farqlanadilar. Jiyan giponimining sakkiz semasi jadvalimizda mavjud jiyan qarindoshlik xarakteriga ko‘ra, opa, aka, singil va uka orqali qarindosh bo‘lib to‘rt semaga ega. Nevara giponimi esa faqat farzand orqali qarindoshlik semasiga ega.

Jiyan “men”dan bir avlod kichik, chunki opa, aka, singil “men” bilan bir avloddan. Nevara bo‘lsa ikki avlod kichik. Shuni ham aytish kerakki, jiyan “men” dan doimo kichik bo‘lgan semasi bilan barqaror emas. U katta ham, teng ham bo‘lish mumkin.

Jiyan va nevara giponimlariga xos shaxslar ayol yoki erkak bo‘lish mumkin. Oilaviy ahvoliga ko‘ra qaraganda ham bu giponimlarining nomlanishi turmush qurmaganda qanday jiyan va nevaraligicha qolaveradi.

Giponimlarning semantik jadvalida eng ko‘p semaga ega bo‘lgan giponim jiyandir.

Nevara va chevvara giponimlari.

NEVARA

1. Bilvosita.

2. Ikki avlod kichik.
3. Neytral
4. Kichik
5. Neytral

CHEVARA

1. Bilvosita
2. Uch avlod kichik
3. Neytral
4. Kichik
5. Neytral

Nevara hamda chevara giponimlari qon-qarindoshlik gruppasi tarkibiga kiruvchi giponimlardir. Har ikkala giponimlarning beshtasidan semasi bor. Bu semalarning quyidagilari birlashadi: bilvosita farzand orqali qarindoshlik jinsiga nisbatan neytrallik, yoshga nisbatan ayol yoki erkak bo'lishi mumkin. Oilaviy jihatdan ham turmush qurgan yoki qurmagan bo'lishi mumkin.

Bu giponimlar to'rt semasi bilan birlashsa, bir semasi bilan farqlanadi, ya'ni avlodgan mansubligiga ko'ra.

Nevara "men"dan ikki avlod kichik, bo'lsa chevara uch avlod kichik.

EVARA

Nevara va chevara giponimlari bir biridan bir semasi farqlangandek, evara giponimini ham bu giponimlardan bir semasi farqlaydi. Evara "men"dan to'rt avlod kichik bo'lgan giponimdir. Shu tomoni uni farqlovchi semasi hisoblanadi.

Xolavachcha va ammayavachcha giponimlari.

XOLAVACHCHA

1. Bilvosita, xola orqari qarindosh.
2. Neytral
3. Neytral
4. Neytral

AMMAVACHCHA

1. Bilvosita, amma orqali qarindosh.
2. Neytral

3. Neytral

4. Neytral

Xolavachcha va ammavachcha giponimlarining semantik struktura jadvalida to'rttadan semalari bor. Xolavachcha va ammavachcha uch semasi bilan birlashtiradi, bular jinsga mansublikka ko'ra neytrallik, yosh jihatdan (teng) neytrallik va oilaviy ahvolga nisbatan neytrallik semalaridir.

Giponimlarning farqlovchi sema qarindoshlik xarakteriga ko'ra birining ona urug' bo'lgan xola vositasida qarindoshligi bo'lsa, ikkinchisining ota urug' amma vositasida qarindoshligidir.

Xolavachcha va ammavachcha giponimlari shaxsning kim ekanligini (ayol yoki erkak) farqlanmaydi. U shaxslar yosh jihatdan "men"dan kattami, kichikmi "men" uchun xolavachcha va tog'avachcha deb qo'llanilaveradi. Shu bilan birga ular turmush qurgan yoki qurmagan bo'lishi mumkin.

Chevara va evara giponimlari.

CHEVARA

1. Bilvosita, farzand orqali qarindosh .
2. Uch avlod kichik.
3. Jinsga mansubligiga ko'ra neytral
4. Yoshga ko'ra kichik
5. Oilaviy ahvolga ko'ra neytral

EVARA

1. Bilvosita, farzand orqali qarindosh.
2. To'rt avlod kichik.
3. Jinsga mansubligiga ko'ra neytral
4. Yoshga ko'ra kichik
5. Oilaviy ahvolga ko'ra neytral.

Chevara va evara giponimlari "men" bilan bilvosita qarindosh bo'lgan giponimlaridir. Har ikkala giponimida ham beshtadan sema mavjud bu semalardan bittasi giponimlarni farqlaydi. Chevara avlodga mansubligiga ko'ra "men"dan uch avlod kichik, evara esa "men"dan to'rt avlod kichik. Chevara ham evara ham

qarindoshlik xarakteriga “men” bilan farzand orqali qarindosh, jinsga va oilaviy ahvolga nisbatan neytral. Chevara, evara ayol yoki erkak turmush qurgan yoki qurmagan bo‘lishi mumkin, lekin “men” uchun chevara va evaraligicha qolaveradi. Bu giponimlar albatta “men” dan kichik bo‘lgan semasi bilan qon-qarindoshlik giponimlari tarkibiga kiradi.

Qon-qarindoshlik giponimlari gruppasiga mansub bo‘lgan giponimlarning semantik strukturasi bilan tanishib juft-juft holda olib ularning qanday semalari bilan birlashishini qanday semalari bilan farqlanishi ko‘rib chiqdik. Endi giponimlarning mana shu birlashishi va farqlanish tomonlariga ko‘ra ma’lum gruppachalarni hosil qilishini ko‘rib o‘tsak.

Qarindoshlik xarakteriga ko‘ra farqlanuvchi giponimlar.

1.Bevosita qarindosh bo‘lgan giponimlar:

Ona

Ota

O‘g‘il

Qiz

Opa

Aka

Singil

Uka

2.Bilvosita qarindosh bo‘lgan giponimlar:

Buva

Buvi

Xola

Tog‘a

Amaki

Amma

Xolavachcha

Tog‘avachcha

Amakivachcha

Ammavachcha

Jiyan

Nevara

Chevara

Evara

Bevosita qarindosh bo'lgan giponimlar “men” bilan hech qanday vositasiz qarindoshlar. Bevosita qarindosh bo'lgan giponimlar “men” bilan biror vosita orqali qarindoshlik anglatuvchi giponimlar “men” bilan qarindoshlikdan vosita bor yo'qligiga qarab farqlanadilar. Ya'ni ota-onaga nisbatan amaki, amma yoki tog'a, xolalar uzoqroq qarindosh, opa, singil, aka-uka nisbatan amakivachcha, xolavachcha, tog'avachcha giponimlari uzoqroq qarindosh amma bu giponimlarining hammasi qon qarindosh bo'lgan gruppasini hosil qiladi.

Avlodga mansubligiga ko'ra farqlanuvchi giponimlar.

1. Bir avlod katta giponim, ota, ona
2. Ikki avlod katta giponimlari: buvi buvi
3. Aynan bir avlod bo'lgan giponimlar: opa, aka, singil, uka.
4. Bir avlod kichik bo'lgan giponimlar, o'g'il, qiz.
5. Ikki avlod kichik bo'lgan giponim, nevara
6. Uch avlod kichik bo'lgan giponim: chevara
7. To'rt avlod kichik bo'lgan giponim: evara

Avlodga mansubligiga ko'ra farqlanuvchi bu giponimlar oilaviy katta urug'li quyidagicha shemalashtirish mumkin.

Ikki avlod katta	buva buvi
Bir avlod katta	ota ona
Ayni ikki avlod	opa-aka aka singil uka
Bir avlod kichik	o'g'il qiz
Ikki avlod kichik	nevara
Uch avlod kichik	chevara
To'rt avlod kichik	evara

Jinsga mansubligiga ko'ra farqlanuvchi giponimlar.

1.	ERKAK	AYOL
2.	OTA	ONA
3.	BUVA	BUVI
4.	AKA	OPA
5.	UKA	SINGIL
6.	TOG‘A	XOLA
7.	AMAKI	AMMA
8.	O‘G‘IL	QIZ

Bu giponimlar o‘zining gorizontal jufti bilan to‘rttadan semasi orqali, qarindoshlik xarakteriga ko‘ra avlodga mansubligiga ko‘ra yoshiga ko‘ra va oilaviy ahvoliga ko‘ra birlashuvchi semalarga egadir. Bu giponimlar faqatgina jinsga mansub bo‘lgan semalari bilan gorizontal juftidan farq qiladi. Giponimlarning juftlaridan boshqacha nomlanishda ham mazkur jinsga xoslik semasi muhim rol o‘ynaydi.

Vertikal qatoridagi giponimlar ikki gruppani hosil qilib, birinchi qatordagilar erkak jinsga xos giponimlar, ikkinchi qatordagilar erkak jinsiga xos giponimlar, ikkinchi qatordagilar ayol jinsiga mansub bo‘lgan giponimlardir.

Jinsga mansublik jihatidan farqlanmaydigan, ya’ni erkak va ayollar uchun bir xilda qo‘llanuvchi giponimlarga tarkibidagi xolavachcha, tog‘avachcha, amakivachcha, amnavachcha, jiyan, nevara, chevvara va evvara giponimlari kiradi

Yosh jihatdan “men” dan farq qiluvchi giponimlar.

Qon-qarindoshlik giponimlari tarkibida shunday giponimlar borki, ular “men” dan kattaligi uchun shunday nomlanadi, ba’zilar, “men”dan kichikligi uchun shunday nomlanadi. Ammo giponimlarning ma’lum qismi kattami, kichikmi farqsiz nomlanadi.

1.“Men”dan katta giponimlar: ona, ota, buva, buvi, opa, aka, xola, tog‘a, amaki, amma.

2.“Men”dan kichik giponimlar: o‘g‘il, qiz, singil, uka, jiyan, nevara, chevvara, evvara.

3.“Men” uchun katta kichikligi neytral bo‘lgan giponimlar: xolavachcha, tog‘avachcha, amakivachcha, amnavachcha.

Yosh jihatdan bir-biridan farq qiluvchi qarindoshlik giponimlari.

KATTA	KICHIK
OPA	SINGIL
AKA	UKA
OTA	AKA
ONA	OPA
OPA	UKA
AKA	SINGIL
TOG‘A	JIYAN
AMMA	AMMAVACHCHA
XOLA	XOLAVACHCHA
AMAKI	AMAKIVACHCHA
TOG‘A	TOG‘AVACHCHA
NEVARA	CHEVARA
OTA	O‘G‘IL
ONA	QIZ
BUVA	O‘G‘IL
BUVI	ONA
BUVI	OTA
BUVA	ONA
BUVI	OTA

Birinchi neytrallik qatorida joylashgan giponimlardan yosh jihatdan katta bo‘lgan semasi bilan muhim ma’no farqlaydi.

Turmush qurgan shaxslar uchun qo‘llanuvchi giponimlarga qon-qarindoshlik gruppasining ona, ota, buva, buvi, xola, tog‘a, amaki, amma kabi giponimlari kiradi.

Bu giponimlar uchun turmush qurganlik semasi asosiy o‘rin egallaydi. Agar shaxs turmush qurmagan bo‘lsa, u ota, buva, ona, xola, yoki, amaki, deyilmaydi, turmush qurganligi uchun ham farzandi, nevarasi, yoki jiyan tomonidan ona, buvi, xola kabi nomlanadi.

Turmush qurgan yoki qurmaganlik semalari farqlanmaydigan ya’ni giponimlar qon-qarindoshlik gruppasi anchagina. Bu giponimlarga: o‘g‘il, qiz, opa, aka, singil, uka, xolavachcha, tog‘avachcha, amakivachcha, amnavachcha, jiyan, nevara, chevara, evara giponimlari kiradi. Mazkur giponimlar turmush qurgandan keyin ham “men” uchun shunday nomlanadi. Masalan: o‘g‘il, qiz, opa, yoki, aka giponimlari turmush qurgandan keyin “men” tomonidan boshqa nom bilan aytilmaydi, ammo begonalar uchun boshqacha qarindoshlik nomi bilan ataladi. “Men”ga nisbatan o‘zgarmasligini hisobga olib, bu giponimlarni turmush qurgan

yoki qurmaganlik semalariga ega bo'lishi mumkin bo'lgan neytral semali giponimlar deb aytish mumkin.

2.3 Nikohdan keyin paydo bo'lgan qarindoshlik giponimlarining birlashtiruvchi va farqlovchi semalari.

Qarindosh urug'chilik giponimlarining ikkinchi gruppasini hosil qiluvchi nikohdan keyin paydo bo'lgan giponimlariga quyidagilar kiradi.

ER	
XOTIN	QUDA XOLA
KELIN	QUDA TOG'A
KUYOV	QAYIN OPA
QUDA	QAYIN SINGIL
OVSIN	QAYIN AKA
BOJA	QAYIN UKA
BOCHCHA	KUNDOSH
QAYIN ONA	QAYIN OTA

Bu giponimlar ham komponent tahlilda o'zlarining mavjud semalari bilan birlari bilan umumiylikni va farqlilikni ko'rsatadi.

Mazkur giponimlarni "men" bilan qanday munosabatda bo'lishiga ko'ra tahlil qildik.

Nikohdan keyin paydo bo'lgan qarindoshlik giponimlarini semalar aro munosabati haqida to'xtalsak.

ER VA XOTIN GIPONIMLARI.

ER

- 1.Bilvosita, nikoh orqali
- 2.Erkak
- 3.Katta
- 4.Turmush qurgan

XOTIN

- 1.Bilvosita, nikoh orqali
- 2.Ayol
- 3.Katta

4.Turmush qurgan

Er va xotin giponimlarida to'rttadan sema mavjud bo'lib, bu giponimlarni birlashtiruvchi semalari quyidagilar qarindoshlik xarakteriga ko'ra bilvosita nikoh orqali qarindosh oilaviy ahvoliga turmush qurganlik semalari.

Biz tahlil jarayonida o'lchov asosi qilib olgan abstrakt "men" er giponimining semalarini aniqlashda "xotin" o'rnida, xotin giponimining semalari aniqlashda "er" o'rnida turadi. Shuning uchun ham er va xotin uchun hayotiy norma hisoblangan erning xotinidan katta bo'lishi xotinning esa erdan kichik bo'lish semalari mavjud bo'ladi. Demak, er va xotin giponimining farqlovchi semalaridan biri yoshga nisbatan erning katta bo'lgan va xotinning kichik bo'lgan semalari hamda jinsga mansublikka ko'ra birining erkak, birining ayol jinsiga mansubligidir. Yoshga nisbatan er va xotin bir-biri bilan teng ham bo'lishi mumkin.

Bu giponimlar ikki semasi bilan birlashsa, ikki semasi bilan farqlanadi.

Kelin va kuyov giponimlari.

KELIN

- 1.Bilvosita, nikoh orqali, farzand orqali,
- 2.Ayol.
- 3.Kichik.
- 4.Turmush qurgan.

KUYOV

- 1.Bilvosita, nikoh, farzand orqali
- 2.Erkak
- 4.Kichik
- 4.Turmush qurgan.

Kelin va kuyov giponimlarini "men"ga nisbatan semalarga ajratganda har ikkovi giponimning beshtadan semaga ega ekani ma'lum bo'ldi. Ularni birlashtiruvchi semalari quyidagilar: qarindoshlik xarakteriga ko'ra nikohdan keyin, farzand orqali qarindoshlik semalari "men"dan yoshga nisbatan kichiklik va turmush qurganligi semalari farqlovchi sema esa jinsga mansublikka ko'radir. Kelin va kuyov giponimlarining to'rt semasi birlashtiradi, bir semasi esa farqlaydi.

Quda va ovsin giponimlari.

Quda

1. Bilvosita-nikoh va farzand orqali.
2. Neytral
3. Katta
4. Turmush qurgan

Ovsin

1. Bilvosita-nikoh orqali
2. Ayol
3. Neytral
4. Turmush qurgan.

Quda giponimida beshta ma'no anglatuvchi tomon ovsin giponimida bo'lsa to'rt ma'no anglatuvchi tomon mavjud. Quda "men" bilan farzand orqali qarindosh. Ovsin esa nikohdan keyingi qarindosh, bu jihatdan har ikkala giponim farqlanadi.

Quda giponimi shaxsning erkak va ayolligidan qat'iy nazar qo'llaniladi, shuning uchun jins jihatdan neytral, bo'lgan semaga ega, ovsin giponimi faqat ayollarga nisbatan qo'llaniladi. Quda ko'p xollarda "men"dan katta semasi bilan qo'llansada, u mendan kichik ham, teng ham bo'lishi mumkin. Ovsin yoshga mansubligiga ko'ra neytraldir, ya'ni "men"dan katta ham kichik ham bo'lgan mumkin. Qarindoshlik xarakteriga ko'ra jinsga ko'ra va ovsin giponimlari farqlanadi. Har ikkala giponim uchun umumiy, birlashtiruvchi bo'lgan sema oilaviy ahvolga ko'ra turmush qurganlik semasidir.

Pochcha va boja giponimlari.

POCHCHA

1. Bilvosita-nikoh, opa orqali
2. Erkak
3. Katta
4. Turmush qurgan.

BOJA

1. Bilvosita-nikoh, opa orqali
2. Erkak
3. Teng
4. Turmush qurgan

Pochcha va boja giponimlari “men” uchun ancha uzoq qarindosh. Pochcha “men”ga bevosita qarindosh bo‘lgan opalikning eriga nisbatan qo‘llanuvchi giponim, boja esa qayin opa yoki keyin singilning eriga nisbatan qo‘llanuvchi giponim. Lekin har ikkisining qarindoshligi nikoh vositasi mavjud. Semantik tahlilida aniqlangan kabi hayotda ham “men” uchun bojadan ko‘ra pochcha giponimi yaqinroq qarindosh hisoblanadi.

Pochcha giponimida besh sema, boja giponimida to‘rt sema mavjud.

Bu giponimlar qarindoshlik xarakteriga ko‘ra va yoshiga ko‘ra farqlanadi. Jinsga mansublik va turmush qurganlik semalari bilan mavjud bo‘lsa, boja esa mendan katta, kichik yoki teng bo‘lishi mumkin. Pochcha va boja nomini oluvchi shaxslar, albatta, erkak jinsiga mansub bo‘lishlari turmush qurgan bo‘lishlari tabiiydir.

Biz yuqorida aytganimizdek giponimlarni tahlil jarayonida “men”ga nisbatan semalarga ajratdik va shu semalar asosida ularni bir-birlari bilan qiyosladik. Shunga ko‘ra pochcha va boja giponimlari “men”i hisobga olganda yosh jihatdan bir-birlari bilan teng bo‘lishlari ham mumkin, bir birlarini umuman tanimasliklari ham mumkin.

Nikohdan keyingi paydo bo‘ladigan qarindoshlik giponimlari uchun xos bo‘lgan umumiy xususiyatlar komponent tahlil jarayonida kuzatiladi.

1. Bu gruppaga giponimlari “men” bilan nikoh vositasida qarindosh yoki “men”ga bevosita qarindosh bo‘lgan giponimlarining nikohi orqali qarindoshdir.
2. Bu gruppaga giponimlarining “men” bilan bir avlodga mansubligi tomoni yo‘qligi uchun avlodga xoslik semasi ham yo‘q.
3. Jinsga nisbatan neytral qo‘llanuvchi giponimlar faqat bir dona (quda)

4. Yosh jihatdan farqlanmaydigan giponimlar beshtadan ortiq emas.

5. Bu giponimlarning deyarli hammasi uchun turmush qurganlik semasi mavjuddir, ya'ni turmush qurgan shaxslar uchun qo'llanuvchi giponimlardir.

Nikohdan keyin paydo bo'lgan qarindoshlik giponimlarining ma'lum semaga xosliklari jihatdan ularni kichik gruppalariga ajratish mumkin. Masalan: bu giponimlarning jinsga mansublik va yoshga xoslik kabi tomonlariga nisbatan olgan semalarni hisobga olib ularni gruppalariga ajratsak.

1. Jinsga mansublik jihatdan giponimlarning gruppalanishi.

A) ayol jinsiga mansub bo'lgan giponimlar.

Xotin

Kelin

Quda

Ovsin

Qayin opa

Quda xola

Qayin ona

Qayin singil

Kelin aya

Kundosh

B) Erkak jinsiga mansub bo'lgan giponimlar.

Er pochcha

Kuyov qayin ota

Boja quda tog'a

Qayin aka qayin uka

2. Yoshga munosabatiga ko'ra.

A) "men"dan katta bo'lgan giponimlar.

Er

Quda

Qayin ota

Qayin ona

Quda xola

Quda tog'a

Qayin opa

Qayin uka

Kelin aya

B) "men" dan kichik bo'lgan giponimlar:

Xotin

Kelin

Kuyov

Qayin singil

Qayin uka

V) Yoshga nisbatan yo kichikligi farqlanmaydigan giponimlar.

Ovsin

Boja

Pochcha

Quda

Kundosh

3.Oilaviy ahvoliga ko'ra.

A) Turmush qurgan shaxslar uchun qo'llanuvchi giponimlar.

Er

Xotin

Kelin

Kuyov

Quda

Ovsin

Boja

Pochcha

Qayin ota

Qayin ona

Quda xola

Quda tog'a

Kundosh

Kelin aya

B) Turmush qurgan yoki qurmaganlik farqlanmaydigan giponimlar.

Qayin aka

Qayin uka

Qayin opa

Qayin singil

2.3 Nikohdan so'ng hosil bo'lgan yaqinlik ma'nolarini ifoda etuvchi qarindoshlik terminlarning leksik xususiyatlari

Dunyo tilshunosligida barcha millatlar lisoniy olamidagi qavm-qarindoshlik tushunchalarining necha asrlik ijtimoiy amaliyotda shakllangan va ijtimoiy tarkibda qo'llanadigan faol nasliy leksik tizim ko'rinishida, muayyan paradigmalar asosida shaxslarning genetik ierarxiyasini namoyon qilishi batafsil o'rganilgan. Mazkur masala bir yoki turli tizimdagi tillarning grammatik tuzilishini inobatga olib va tilning alohida xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, qavm-qarindoshlik tushunchalarini mantiqiy-lisoniy kategoriya sifatida o'rganishni taqozo etadi. Boshqa tillardagi kabi o'zbek tilida ham qarindoshlik atamaları o'ziga xos leksik tizimni shakllantiradi. Ushbu tizimdagi ayol jinsiga xos qavm-qarindoshlik va yaqinlik atamalarini o'rganish bu birliklarning tarixiy taraqqiyotini va qo'llanish mexanizmini aniqlashga imkon beradi.

Ayol jinsidagi qarindoshlik mantiqiy-lisoniy kategoriyasining funktsional-semantik mikrotizimlari ma'nolariga xos ekspressiv vositalar tizimi va ushbu kategoriyaga tegishli mikrotizimlar tarkibiy qismlari qiymatlarining ekspressiv vositalarini tahlil qilganda, har bir funktsional-semantik mikrotizimlari tarkibiy qismlari qiymatlari odamlar o'rtasidagi munosabatlarda ayol va neytral jinsli qarindoshlik ma'nolarini bildiruvchi ma'lum korrelyatsion atamalar bilan bog'liqligi aniqlanadi.

“Yaqinlik” mantiqiy kategoriyasi ma'nosi bir nechta leksemalar semantik tarkibida kuzatiladigan turlardan biri bo'lib, ularning umumiyligi har bir til lug'atidagi biron bir funktsional-semantik mikrotizimning o'ziga xos xususiyatini namoyon etadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, “yaqinlik” va “qarindoshlik” tushunchalari o'rtasida tarkiban ma'lum bir o'xshashlik mavjud. Shuning uchun qarindoshlik atamalari tizimini o'rganishga bag'ishlangan ishlarda “yaqinlik” tushunchasi “qarindoshlik” deb ham qaralgan va yaqinlikni ifodalovchi vositalarni qarindoshlikni ifodalovchi vositalar sifatida ko'rib chiqilgan. Ammo yaqinlik va qarindoshlik munosabatlari tushunchalari lug'atda boshqa-boshqa semantik tarkib hodisalaridan sanaladi.

Qarindoshlik va yaqinlik xususiyatlarining mantiqiy-semantik kategoriyalari ma'nolarini bildiruvchi belgilar “qon-qarindoshlik” ning mavjudligi va yo'qligiga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Qarindoshlik qiymati belgilari bir-biri bilan qadriyatlar o'rtasida mavjud bo'lmagan yaqinlik – “qon orqali qarindoshlik” bilan bog'liqdir. Yaqinlik munosabatlarining belgilari boshqa bir ijtimoiy xarakterdagi yaqin odamlar bo'lib, ular bir-biriga nisbatan qondosh va qarindosh emaslar.

Yaqinlik mantiqiy-lisoniy kategoriyasining ekspressiv vositalari leksik guruhlashning o'ziga xos turi bo'lib, ularning ma'nolari insonlar ijtimoiy hayotining ma'lum bir sohasini qamrab oladigan leksik birliklar majmuasini ifodalaydi va bir-biri bilan bog'liq bo'lgan til lug'atiga xos bir leksik-semantik maydonning leksik birliklari ahamiyatli ma'nolari asosida shakllanadi. Bunga misol qilib, qaynona, qaynabuvi, qaynopa, qaynisingil, yanga, ovsin, dugona (o'rtoq), qo'shni, quda, kundosh, kursdosh (sinfdoshi//guruhdosh), muallima (ustoz//tarbiyachi), enaga, ma'shuqa (jazman) va boshqalar “yaqinlik” umumiy ahamiyatli ma'no asosida bitta leksik-semantik guruhga (leksik-semantik maydon) birlashtirilgan, biroq bu leksemalar bir-biridan farq qiladigan denotativ-nominativ tarkibning turli lug'aviy birliklari sanaladi. Ular o'z semantik tuzilmalarida integratsiya semasi asosida birlashadi.

Tadqiqotimiz natijalari shuni ko'rsatdiki, ayol jinsidagi yaqinlik mantiqiy-lisoniy kategoriyasi tizimi quyidagi 24 qiymatdan iborat:

- 1) “ayol jinsidagi turmush o'rtoq” // “erning xotini” (xotin, rafiq, zavja);
- 2) “erning ayolining ota-onasi” // “erning onasi” (qaynona, erning xotiniga nisbatan);
- 3) “ayol xotinning ota-onasi” // “xotinning onasi” (qaynona, xotinning eriga nisbatan);
- 4) “erning opasi” (qaynopa, erning xotiniga nisbatan);
- 5) “erning singlisi” (qaynisingil, erning xotiniga nisbatan);
- 6) “xotinning opasi” (qaynopa, xotinning eriga nisbatan);
- 7) “xotinning singlisi” (qaynisingil, xotinning eriga nisbatan);
- 8) “erning otasining onasi” (qaynabuvi, erning xotiniga nisbatan);
- 9) “erning onasini onasini” (qaynabuvi, erning xotiniga nisbatan);
- 10) “xotinning otasi onasi” (qaynabuvi, xotinning eriga nisbatan);
- 11) “xotinning onasi onasi” (qaynabuvi, xotinning eriga nisbatan);
- 12) “erning aka-ukalarini xotini” (ovsin, erning xotiniga nisbatan);
- 13) “erning aka-ukalarining qizi” (qiz jiyan, erning xotiniga nisbatan);
- 14) “xotinning opa-singillarining qizi” (qiz jiyan, xotinning eriga nisbatan);
- 15) “erning ikkinchi (boshqa) qonuniy xotini” (kundosh, erning birinchi yoki ikkinchi xotiniga nisbatan);
- 16) “erning o'gay qizi” (o'gay qiz, erning xotiniga nisbatan);
- 17) “xotinning o'gay qizi” (o'gay qiz, xotinning eriga nisbatan);
- 18) “qiz do'st” // “dugona” (boshqa qiz do'stiga nisbatan);
- 19) “erning noqonuniy xotini” (jazman, erning qonuniy xotiniga nisbatan);
- 20) “yanga” (akaning xotini singilga nisbatan);

Tadqiqotimiz ob'ektining xususiyatidan kelib chiqib, biz faqat ayol jinsi uchun yaqinlik ma'nosidagi mikrotizimlarnigina sanab o'tdik.

Yaqinlik ma'nolari to'plami ikki guruhga bo'linadi:

- a) nikoh bilan bog'liq bo'lgan xususiyatlar (nikohga ko'ra yaqinlik);
- b) nikoh bilan bog'liq bo'lmagan xususiyatlar (nikohdan tashqari yaqinlik).

Yuqorida sanab o'tilgan ayol jinsiga oid yaqinlik ma'nolari asosiy, invariant xususiyatlidir.

Bularga qo'shimcha ravishda, bir qator yaqinlik ma'nolari mavjud: “erning otasining buvisi” (erning otasi tarafida katta buvisi), “erning onasi buvisi” (erning ona tarafida katta buvisi), “xotinning otasining onasi” (xotinning otasi tarafida buvisi), “xotinning onasining onasi” (xotinning onasi tarafida buvisi), “erning otasining singlisi” (erning otasi tarafdan amma), “erning onasining singlisi” (erining onasi tarafdan xola), “xotinning otasining singlisi” (xotinning otasidan tarafdan amma), “xotinning onasining singlisi” (xotinning onasi tarafdan xola), “erning opasining qizi” (erning qiz jiyani), “xotinning akasining qizi” (xotinining qiz jiyani) va boshqalar dissertatsiya ishimizda hisobga olinmagan .

Shuni ta'kidlash kerakki, garchi leksik va semantik sathlarda bir-biridan farq qilsa ham, yaqinlik ma'nolarining ekspressiv vositalari qarindoshlik terminlari tizimi bilan bir xil leksik-semantik darajaga egadir.

Qarindoshlik ma'nolari tizimi o'rganilgan ishlarda (aniqrog'i, qarindoshlik nomlari), yaqinlik va qarindoshlik nomlariga farqlanmagan. Ular (yaqinlik atamalari) qarindoshlik terminlari tizimida funktsional va semantik turlaridan biri sifatida ko'rib chiqilgan. Aslida qarindoshlik atamalari va yaqinlikni ifodalovchi nomlar lug'atning har xil funktsional va semantik hodisalari bo'lib, ular ekspressiv vositalarning semantik tuzilishida yaqinlik semasining mavjudligi va yo'qligi jihatidan bir-biridan farq qiladi. Qarindoshlik atamalarining ma'nosi ma'lum bir FSMT tarkibiy qismlarini anglatuvchi ikki kishi o'rtasidagi qon qarindoshlikni anglatadi, yaqinlik ma'nosidagi nomlar qon qarindoshlikni anglatmaydi, FSMT komponenti tarkibiy qismlarining denotatsiyalari o'rtasidagi qondoshlikka oid bo'lmagan turli xil munosabatlar mavjud. Misol uchun, ona“ota-onaning ayol jinsdagisi”(ota-ona farzandlariga nisbatan) leksemasining ma'nosi hamda qiz “ayol jinsidagi farzand” (ayol jinsidagi farzandning ota-onasiga nisbatan) leksemasi bilan bir-biriga bog'liq. Ushbu leksemalar (ona,qiz) ma'nolari o'rtasida bir-biriga qondosh yaqinlik munosabatlari mavjud.

Endi er va xotin leksemalari ma'nolari denotatsiyalariga e'tibor qarataylik. Ushbu leksemalarning denotatlari orasida shu oilaning ikki nafar boshlig'i sifatida

to'g'ri munosabatlar mavjud, bu leksemalar ma'nolari denotatsiyalari orasida qon bilan qarindoshlik yo'q.

Tadqiqotimiz faktik materiallarining xarakteri shuni ko'rsatadiki, kommunikativ-pragmatik vaziyatlarda qarindoshlik atamalari yaqinlik ma'nolarida ham qo'llanilishi mumkin. Bunday hollarda “qon qarindoshlik” semasi qarindoshlik atamalarining semantik tuzilishidan kelib chiqadi. Yaqinlik ma'nosidagi leksemalardan qon-qarindoshlik doirasida foydalanish kuzatilmaydi: yaqinlik ifodalovchi leksemalar funktsional-semantik kategoriyasini qarindoshlik atamalari funktsional-semantik kategoriyasiga almashtirish mumkin emas.

Yaqinlikning mantiqiy-lingvistik kategoriyasi ekspressiv vositalarining funksiyasida qarindoshlik atamalaridan foydalanish, odatda, tinglovchi-ob'ektga ma'ruzachi-sub'ektning nutqiy murojaatida namoyon bo'ladi. Bunda yaqinlik ma'nosi kontekstual xususiyatga ega bo'ladi. Misol uchun: “Opa, Sizga yo'l bulsin!” – gapidagi opa leksemasini keltirish mumkin.

Odatda yaqinlikni ifodalashda ota (father), ona (mother), opa (elder sister) kabi qarindoshlik atamalaridan foydalanadi va, o'z navbatida, ular “erining otasi” // “husband's father” (erining xotiniga nisbatan), “xotinning otasi”//“wife's father” (xotining eriga nisbatan), “xotinning onasi”// “wife's mother” (xotining eriga nisbatan), “erining onasi”//“husband's mother” (erining xotiniga nisbatan), “erining opa-singlisi”//“wife's sister” (erining xotiniga nisbatan), “xotinning opa-singlisi”//“husband's sister” (xotinning eriga nisbatan) va boshqa ma'nolarga ega.

Nikoh orqali bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lgan ayol jinsidagi yaqinlikining asosiy invariant qiymatlari tizimiga quyidagilar kiradi:

1) “xotin”; 2) “erining onasi”, 3) “xotinning onasi”; 4) “erining opa-singlisi”; 5) “xotinning opa-singlisi”; 6) “erining aka-ukalari qizi”; 7) “erining opa-singillari qizi”; 8) “xotinning aka-ukalari qizi”; 9) “xotining opa-singillari qizi”; 10) “erining aka-ukalari xotini”; 11) “xotinning aka-ukalari xotini”; 12) “erining ammasi”; 13) “erining xolasi”; 14) “xotinning ammasi”; 15) “xotinning xolasi”; 16) “o'gay ona”; 17) “erining o'gay qizi”; 18) “xotinning o'gay qizi”. Ayol jinsidagi

qarindoshlik kategoriyasining har bir ma'nosi alohida funktsional-semantik mikrotizimlar (FSMT) tarkibiga kiritilgan.

Turli grammatik tizimdagi tillarda ayol jinsidagi qarindoshlik va yaqinlik ma'nolari xususiyatlari, ularning mantiqiy-lisoniy kategoriya xarakterini tavsiflaydigan tarkibiy rejasiga nisbatan farq qilmaydi .

Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, til lug'atining har bir qatlami o'zining birinchi ifoda rejasiga va tarkib rejasiga ega, ularning leksik-semantik qatlamlari to'plami mantiqiy-lisoniy kategoriyalar xarakteri bilan belgilanadi. Ularning monografik jihatdan o'rganilishi zamonaviy tilshunoslikning dolzarb muammosidir.

